


B. Ya. Nuriddinov

QORAMOLLARDA BARMOQLARNING YIRINGLI-NEKROTIK KASALLIKLARI

MONOGRAFIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH
QO'MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

NURIDDINOV BOBOXON YALLABOYEVICH

**QORAMOLLARDA BARMOQLARNING
YIRINGLI-NEKROTIK KAŞALLIKLARI**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2024

UO'K: 619:636.2:616.76
KBK: 48.731.311

619.2:616.7
N 87

B.Ya.Nuriddinov

Qoramollarda barmoqlarning yiringli-nekrotik kasallikkлari.
Monografiya. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa
markazi, 2024. 152 bet.

Ushbu monografiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil 27-sentabrdagi 2-son
bayoni bilan chop etishga tavsija etilgan.

Monografiyada qoramollarda barmoqning yiringli-nekrotik kasalliklarining
etiologiyasi, patogenizi, davolash va oldini olish usullarining umumiylahili
adabiyot ma'lumotlari va mualifning uzoq yillik ilmiy tadqiqot natijalari atroficha
yoritilgan. Bundan tashqari qoramollar barmoqlarining anatomo-topografik tuzilishi
fiziologik xususiyatlari to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Monografiya
amaliyot veterinariya vrachlari, veterinariya yo'nalishlari talabalari, magistrлari va
ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Veterinariya fanlari doktori, professor: B.A. Elmurodov
Veterinariya fanlari doktori, professor: Q.N. Norboyev

ISBN: 978-9910-9180-9-4

SDVU Akborot-
resurs markazi
Inv № 373147

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| KIRISH..... | 4 |
| I.BOB. QORAMOLLARDA BARMOQ KASALLIKLARINING UMUMIY TAVSIFI | 7 |
| Qoramollarda barmoqning anatomo-fiziologik tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumot..... | 12 |
| Oqsash turlari va ularning tavsifi..... | 24 |
| II.BOB. QORAMOLLARDA BARMOQ KASALLIKLARIGA TASHXIS QO‘YISH..... | 31 |
| Kasal hayvonlarni umumiyl tekshirish..... | 31 |
| Perkussiya va auskultatsiya usulida tekshirish..... | 31 |
| Bo‘g‘im, pay va bog‘lamlarni tekshirish | 33 |
| III.BOB. QORAMOLLARDA BARMOQLAR YIRINGLI – NEKROTIK JARAYONLARINI KELTIRIB CHIQARUVCHI ETIOLOGIK OMILLAR, ULARNI PATOGENETIK XUSUSIYATLARI | 42 |
| Sigirlar barmoq sohasi yiringli-nekrotik jarayonlarni uchrash darajasи | 42 |
| Klinik-fiziologik ko‘rsatkichlar..... | 54 |
| Sigirlarning barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlardan olingan immuninaldagи mikroorganizm turlari va ularning antibiotiklarga sezuvchanligi...66 | |
| Patologoanatomik o‘zgarishlar..... | 74 |
| IV.BOB. QORAMOLLARNING BARMOQLARIDAGI YIRINGLI- NEKROTIK JARAYONLARNI DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 78 |
| Qoramollarda barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarini takomillashtirilgan usullarda davolash | 78 |
| Klinik-fiziologik ko‘rsatkichlar..... | 86 |
| Gematologik ko‘rsatkichlar..... | 98 |
| V.BOB. QORAMOLLARDA BARMOQLARNING YIRINGLI – NEKROTIK JARAYONLARINI OLDINI OLYSH..... | 116 |
| Klinik ko‘rsatkichlar..... | 120 |
| Ishning iqtisodiy samaradorligi..... | 122 |
| OLINGAN ILMIY TADQIQOT NATIJALARI BO‘YICHA MULOHAZALAR..... | 126 |
| SUT YO‘NALISHIDAGI QORAMOLCHILIK XO‘JALIKLARIDA BARMOQ KASALLIKLARINI OLDINI OLYSH BO‘YICHA TAVSIYALAR..... | 135 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... | 137 |

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»¹gi, 2019 yil 28 martdagি PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 16 martdagи «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4841-son va 2020 yil 29 yanvardagi «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4576-son, 2022 yil 8 fevraldagи PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda soha xodimlari zimmasiga yurtimizda chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish vazifasinigina emas, balki ularning zotlarini yaxshilash, mahsulorligini oshirish, zooveterinariya xizmatlari sifatini yaxshilash vazifasini ham yukladi.

Mamlakatimizda qoramolchilikga ixtisoslashgan shaxsiy fermer xo‘jaliklari va M.CH.J kundan kunga ko‘payib, hukumatimiz tomonidan berilayotgan intiyorolar hisobida rivojlanishi, veterinariya mutaxassislar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shaxsiy fermerlar xo‘jaliklari rahbarlari o‘zlarini yangi tartibda ish yuritib, ayrim veterinariya chora-tadbirlarini o‘z vaqtida o‘tkazishda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ko‘pchilik shaxsiy fermer xo‘jaliklarida zoogigienik qoidalar va oziqlantirish tartibi buzilishi va golshtin friz zotli qoramollar yangi sharoitga moslashishi qiyin bo‘lishi oqibatida hayvonlar o‘rtasida turli xildagi ochiq va yopiq mexanik shikastlanishlar kelib chiqmoqda. Bunday kasalliklardan biri qoramollarning pododermatit jarayonlari bo‘lib, uning oqibatida hayvonlar ish faoliyati va maxsulorligining keskin pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda chorvachilik soxasida uchraydigan yuqumsiz kasalliklarning salmog‘i yuqori ekanligi bir qancha olimlar tomonidan takidlanib kelinmoqda. Bu kasalliklarning aksariyat ko‘pchiligining kelib

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

chiqish sabablari noaniqligi, veterinariya mutaxasislari oldida juda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ko'pchilik fermer xo'jaliklar hayvonlarni noto'g'ri saqlash u erdag'i zoogigienik talablarning tuzilishi sezilarli darajada shikastlanishlarning rivojlanishiga sabab bo'imorda. Ko'pchilik shikastlanishlarni kelib chiqishiga jumladan tuyoqlar patologiyasining rivojlanishiga sabab bo'luechi omillarga tuyoqlarni noto'g'ri qirqish, hayvonlarni qattiq polda saqlash, ularni noto'g'ri tashish va ishlatish hamda etarli darajada ozigantirmaslik asosan qoramollar oyoqlarida turli tuyoq patologiyalari kuzatiladi, shuning uchun xam biz ushbu ishimizda qoramollarda barmoq bo'g'implari anatomo-topografik tuzilishi, fiziologik xususiyatlari, barmoqda aseptik va septik patologik jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo'ladigan omillar, patologik jarayonning patogenezi, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora tadbirlarini o'rganib, hayvonlarni mahsuldarligini va ish faoliyatini tiklashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Keyingi yillarda yurtimizga xorij mamlakatlaridan ko'plab mahsuldarligi yuqori bo'lgan zotli mollar keltirilib, mas'uliyati cheklangan va fermer xo'jaliklarga tarqatildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijdan keltirilgan naslli chorva mollarini sog'lom saqlash, ulardan sifatli va ekologik toza mahsulot olish uchun chorvachilik xo'jaliklariga zoogigienik talablarga mos molxona, yayrash maydonchalari kirish joylarida dezobarerlar bo'lishi kerak.

Xorij mamlakatlaridan olib kelingan mahsuldarligi yuqori bo'lgan g'unojinlarning katta sonini golshtin-friz zoti tashkil etadi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ular uchun maxsus bog'lovsiz boqish uchun komplekslar qurilgan. Bu sigirlar yuqori sut mahsuldarligiga ega bo'lib, sut mahsulotini ko'paytiradi. Ko'pchilik fermer va mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda oyoqlarning distal qismi kasalliklari jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu patologiyani etiopatogenezi, klinik belgilari davolash va oldini olish chora-tadbirlarini izlab topish dolzarb muammolardan biridir.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlari chorvachiligidagi mahsuldar qoramollar orasida xirurgik kasalliklar keng tarqalganligi u 35-60 % ni yoki oyoqlarning zararlanishi barcha jarrohlik patologiyaning 76 % ni tashkil etmoqda va aholining chorvachilik mahsulotlariga nisbatan muntazam o'sib borayotgan talabini qondirish hujunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eng katta to'siqlardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, hayvonlarning lokomotor tizimi kasalliklari

orasida, ayniqsa oyoqlarning distal qismi ya'ni barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlari bilan yuqori mahsuldor sigirlarning kasallanishi oqibatida ulardan olinayotgan sut mahsuloti keskin pasayadi, kasal hayvon kuchli oriqlaydi, pushtdorlik ko'rsatkichlarida jiddiy muammolar paydo bo'ladi.

Shunga ko'ra, mahsuldor sigirlarning barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarini turlari va yil fasllari bo'yicha uchrash darajasi, iqtisodiy zarari, kechish xususiyatlari hamda simptomlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo veterinariya ilm-fani va amaliyotida shu paytgacha sigirlarda barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarining kelib chiqishi, tarqalishi, bo'yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan ushbu kasallikka o'z vaqtida tashxis qo'yish, uni davolash va oldini olish bo'yicha yagona ilmiy xulosaga kelinmagan. Bu borada mahsuldor sigirlar orasida keng tarqalgan barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlariga ertachi va to'g'ri tashxis qo'yish, konservativ va operativ davolash usullarini takomillashtirish, patologik jarayonlarda bitish jarayonini tezlashtirish uchun yangi zamonaviy dori moddalarini qo'llashning ma'lum me'yor va miqdorlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb tadqiqotlar hisoblanadi.

Mamlakatimizning qoramolchilikka ixtisoslashgan ho'jaliklariga xorijdan olib kelinayotgan yuqori sut mahsuldorlikka ega bo'lgan sigirlar orasida tarqalgan jarrohlik kasalliklarini oldini olishga qaratilgan zooveterinariya tadbiralarining o'tkazilib borayotganligiga qaramasdan, mexanik shikastlanishlar va boshqa omillar oqibatida jarrohlik kasalliklari xususan, barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlari yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bunday holat, tabiiyki, mahsuldor qoramollarda barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarini respublikamiz fermer xo'jaliklari sharoitlaridagi mavjud xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertachi tashxislash, guruhli oldini olish va samarali davolash tadbiralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

I.BOB. QORAMOLLARDA BARMOQ KASALLIKLARINING UMUMIY TAVSIFI

Qishloq xo'jalik hayvonlarida oyoq kasalliklari ko'p uchrab chovchilikga ixtisoslashgan xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Turli hayvonlar o'rtaida oyoq kasalliklari umumiy yuqumsiz kasalliklarning o'rtacha 15-20 %ni tashkil etadi.

Oyoq kasalliklar sigirlarda sut mahsulotlarining pasayishiga on cho'chqlarning serpushtligiga salbiy ta'sir etadi. Naslli buqa va qo'chqorlarda tuyaq kasalliklari kuzatilsa, ularning qochirish faoliyati sustashadi. Qo'yldarda orsida asosan namgarchilik ko'p bo'lgan yillarda nekrobozelloz, tuyaq chirishi, dermatitlar va tuyaq shox pardasining maserasiyasi ko'p kuzatilib, ushbu kasallikga chalingan ona qo'yldan nimjon va yashonchanligi past bo'lgan qo'zilar tug'iladi. Tuyoq kasalligiga chalingan qo'yldarda o'z vaqtida davolash va oldini olish chora jadibirlari qo'llanilmasa kasalliq oylab va hatto yillab davom etadi, nekrobosilloz, tuyaq chirish kasalliklari bilan kasallangan hayvonlardan kasallik sog'lom hayvonlarga ham tarqaladi.

Oyoq kasalliklari bilan kasallangan hayvonlarda ko'p hollarda oyoqlar harakati buzilib oqsash kuzatiladi. Oqsash kasallik emas, balki u hayvonda organ harakatini buzilishidan darak beruvchi kasallikning klinik simptomidir. Hayvonda tirik kasalliklari teri yorilishi, ekzema, dermatitlar va kuyish, teri osti klitchatkasi kasalliklaridan flegmona, so'poz va yotoq yarasi, fassiya kasalliklaridan yallig'lanish va uzilishi, mustul kasalliklardan cho'zilish, uzilish, miozit, miapatoz, va atrafiya, pay bog'lam apparatlari kasalliklarda tendinit, lyaminit, kontraktura va uzilish, bursa va pay qini kasalliklaridan bursit va tendovaginit, nerv no'qimalari kasalliklaridan nevrit, falajlanish va parez, suyak ustki pardasi, suyak va suyak ilgichi kasalliklaridan perostit, ostit, osteopatiya, osteomalyasiya, raxit, karies, nekroz, osteomielit, osteodistrofiya, va sinishlarda bo'g'im kasalliklarida artrit, artoz, sinovit, periartirit, ankilosiz va chiqishlarda ochsash namoyon bo'ladi.

Oyoq kasalliklarini kelib chiqishiga ko'proq hayvon ekstereridagi qanchiliklar, o'ziqlantirishdagi etishmovchiliklar, hayvonlarni bog'lab boqqanda matsionning yo'qligi,sovuj qotish, tuyoqlarni o'z vaqtida kormaslik, yosh hayvonlarni noto'g'ri ishlatish va yo'llarning notejisligi sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari oyoq kasalliklarini kelib chiqishiga shikastlar(latayish) jarohat, cho'zilishlar, termik va kimyoviy shikastlanishlar

(yong'indan, issiq suv yoki bug'da, elektr toki, kislota va ishqorlar ta'sirida, kuyishlar), organizimga kirgan mikroorganizimlar (yiringli va chirituvchi) ham etiologik omil bo'lib xizmat qiladi.

Harakat organlar funksiyasining buzilishiga boshqa organlarning (qon va limfa tomiri, oshqozon, ichak, yag'rin va endokrin bezlari) yoki mineral moddalar almashinuvi buzilishi(raxit, osteomalyasiya, avitaminoz, endemik osteodistrofiya) shuningdek yuqumli kasalliklar (oqsil, brutsellyoz, paratif, manqa, otlarning kontagioz plevropnevmoniyasi) yoki invazion (onxoserkoz) kasalliklari xam sabab bo'lishi mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xorij mamlakatlardan zotli qoramollar olib kelinmoqda. Zotli mollar adaptatsion ya'ni moslashish jarayonida turli yuqumsiz kasalliklarga jumladan oyoq kasallialariga ko'proq chalimoqda, bu esa xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Oyoq kasalliklari qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldarligiga salbiy ta'sir etib, sigirlarda sut mahsuldarligining kamayishiga sabab bo'ladi. G.Yautsi. P.Shmolt va boshqalarning ma'lumot berishiga, komplekslardan panjarali pollarda sigirlarni saqlab boqishda ularning 10-20% tuyoq kasalliklari uchrashi qayd etilgan va kasallik davrida har bir sigirdan 4-5 kg sut kam sog'ib olingan.

Rixter va Mitning takidlashicha tuyoqlari yiringli jarayonlar bilan kasallangan sigirlar kasalligi davrida 1000kg sutni va 100kg tana og'irligini yo'qatadi. Bundan tashqari sigirlarda tuyoqlarnig xadan tashqari o'sib ketishi, 8-12% sutni kamayishiga sabab bo'ladi.

A.G.Saninning ta'kidlashicha katta sutchilik xo'jaliklarda oyoq kasalliklari 66-88% ni tashkil qiladi, shulardan barmoqlararo yorg'ichi 1,4%, tuyoq aylanasi flegmonasiga – 15% , barmoq yumshog'ining flegmonasiga -14% tuyoq devori pododermatitlariga -5% oyoq distal dermatitlariga -1,2 % , yiringli artritlarga -10,3%, periostitlarga -1,2% to'g'ri keladi.

A.N. Eliseev ko'rsatishicha, shikastlanishlarning umumiyligi sonidan suyak va bo'g'im ichi sinishlar 10-14 %ni tashkil qiladi. A.M. Ataeva ma'lumot berishiga yirik cho'chqachilik xo'jaliklarida hayvonlarning toson bo'g'imining chiqishlari yuqumsiz kasalliklarning 33% ga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda yurtimizga xorij mamlakatlaridan ko'plab mahsuldarligi yuqori bo'lgan zotli mollar keltirilib, mas'uliyati

cheklangan va fermer xo'jaliklarga tarqatildi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijdan keltirilgan nasli chorva mollarini sog'lom saqlash, ulardan sifatlari va ekologik toza mahsulot olish uchun bizning mintaqamizga va zoogigienik talablarga mos molxona, yayrash maydonchalarini kirish joylarida dezobarerlar bo'lishi kerak.

Xorij mamlakatlaridan olib kelningan mahsuldorligi yuqori bo'lgan g'unojmlarning katta sonini golshtin-friz zoti tashkil etadi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ular uchun maxsus bog'levsiz boqish uchun komplekslar qurilgan. Bu sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga ega bo'lib, sut mahsulotini ko'paytiradi. Ko'pchilik fermer va mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda oyoqlarning distal qismi kasalliklari jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu patologiyani etiopatogenezi, klinik belgilari davolash va oldini olish chora-tadbirlarini izlab topish dolzarb muammolardan biridir.

Xorij adabiyotlarida ta'kidlanishicha, mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda keyingi 30 yil ichida oyoqlarning distal qismi kasalliklari asosiy muammolardan biri bo'lib, oqibatda kasallangan sigirlarning 50 % muddatidan oldin so'yilmoqda va bu xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy parur keltirmoqda.

Juft tuyroqli hayvonlar, jumladan golshtin – friz zoti xozirgi kunda o'sining xalq xo'jaligidagi va ayniqsa sutchilik va bo'rdoqichilik xo'jaliklardi mohiyatini yo'qotmaganligi tufayli, zamonaviy veterinar ortopediya mahsuldor hayvonlarning tuyeq kasalliklari bilan bir qatorda, juft tuyroqli hayvonlar tuyeqlari zararlanishining patologiyasini, davolashni va oldini olishni o'rganadi. Bunda u tuyeqlarni parvarishlashga, shu jumladan davolovchi ya'ni ortopedik qirqishga alovida o'tiborni qaratadi. Bu tadbirdarda yo'l qo'yilgan barcha xatolar hayvon mahsuldorligi va nasl berishining pasayishi yoki tuyeq, akusher-ginekologik kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Harmoq va xususan tuyeq kasalliklarini o'rganishda zamonaviy veterinariya ortopediyasi nafaqat hayvonlar yashaydigan mintaqaviy xususiyatlarni, balki ularni saqlash usullarini (bog'lovli, bog'lovsiz va yuyluv sharoitida saqlash) hamda chorvachilikning texnologiyasini hisobga oladi, chunki kasalliklarning o'ziga xosligi odatda ko'rsatib o'nigan omillar bilan bevosita bog'liqidir. Adabiyotlardan va amaliy tadbirdardan olingen ma'lumotlarning tahlili bo'yicha, tuyeq kasalliklari tufayli xo'jaliklar hayvonlardan mahsulotni kutilgandan kam oladi, kasal hayvonlarni saqlash va davolash uchun ko'p mablag' sarflaydi, natijada ishlama iqtisodiy zarar ko'radi. (A.F.Burdenyuk, G.S.Kuznesov, 1976).

Chet el tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, tuyoqlari yiringli jarayonga chalingan sigirlardan laktasiya davrida o'rtacha 1000 kg sut kam olinadi, ular 100 kg gacha tirik massasini yo'qtadi, davolashga esa 1000 marka sarflanadi. (V.A.Molokanov, V.M.Shevlev, M.T.Baykenov 2001)

Xorij adabiyotlarida ta'kidlanishicha, mahsuldarligi yuqori bo'lgan sigirlarda keyingi 30 yil ichida oyoqlarning distal qismi kasallikkari asosiy muammolaridan biri bo'lib, oqibatda kasallangan sigirlarning 50 % muddatidan oldin so'yilmoqda va bu xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Mahsuldarligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyoqning shikastlanishi jami oyoq kasalliklarining 50-60 % ni yoki jarroqlik patologiyasining 14-17 % ni tashkil etadi (A.F.Burdenyuk, G.S.Kuznetsov , 1976). Keyingi yillarda oyoq kasallikkari oqibatida muddatidan oldin hisobdan chiqariladigan sigirlar 4-15,3 % ni tashkil etmoqda (Ulimbashev M. B.,2007). Rossiya va boshqa xorij mamlakatlarida yirik shoxli hayvonlarda oyoq kasalliklarining ancha ko'payganligi qayd etilmoqda (Distl, Koorn D. S., Mc Daniel B. et al.). Shvetsiya va Angliyada 74 % va 55 % hayvonlarning oyoq kasallikkari oqibatida so'yilishi qayd qilingan (Politiek R.D, Distl O., Fjeldaas T. et al.,1990; Bowey R.,1993). Ayrim mualliflar (Veremey E.I., Jurba V.A., 2003) ayrim Evropa mamlakatlarida hayvonlarning hisobdan chiqarilishining asosiy sabablaridan biri oyoq kasallikkari ekanligini ta'kidlaydilar. Niderlandiyada oyoq kasallikkari mastit va bepushtlikdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Irlandiya chorvachiligidagi ilg'or texnologiyaning kiritilishi hayvonlar o'rtasida oqsashning (54 %) oshishiga sabab bo'ldi. SHvetsiyada oqsash oqibatida 4 %, Germaniyada 3 % va Niderlandiyada 2 % dan ortiq sut beradigan sigirlar hisobdan chiqarilmoqda. Keyingi 10-15 yil ichida Janubiy Ural, Rossiyaning Chelyabinsk, Kurgan viloyatlari, Qozog'istonning Kustanay viloyati ferma va komplekslarida sigir sonining kamayishiga qaramasdan tuyoq shikastlanishi 20-50 % ga oshganligi qayd qilindi (V.A.Molokanov idr.,2001). I.S. Panko, V.A. Lukyanov (2003) ma'lumoti bo'yicha har uchta sigirdan bittasi tuyoq deformatsiyasi yoki oqsash oqibatida hisobdan chiqariladi. Tuyoq deformatsiyasi va uning kasalligi oqibatida har kunlik sut 3,3-4,5 kg kamayadi va hayvonlarning umumiyligi ahvoli yomonlashadi (I.S.Panko, V. A. i dr., 2003).

Hayvonlarning bog'lovda va bog'lovchisiz har xil sharoitlar, pollarning tuzilishi ,quruqda va namda saqlash harkatning chegaralanishi

bog'ishning o'ziga xos xususiyatlari beda, qattiq lavlagi, pichan miqdorini kamayib paxtadan olinadigan ozuqalar g'o'zapoya sheluxa, kunjara miqdorini oshib ketishi kabi sabablar bo'lishi kasalliklari salmog'ini yanada oshirib ularni kelib chiqish sabablari kechish xususiyatlarini o'zgarishiga olib keldi.

Jumxuriyatimizda bu kasalliklarni ayrimlari yuqorida ko'rsatilgan sabablariga ko'ra yoppasiga uchrab, og'ir kechadi, davolash muvozantlarini qiyinlashtirji va katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ayrim hollarda bug'in kasalliklari 9 – 11% ni tashkil qiladi. Hayvonlarni muddatdan ilgari hisobdan chiqarishga ba'zan esa ularning o'lishiga sabab bo'ladi. shuni alohida ta'kidlash zarurni bug'in kasalliklariga barmoqlarda joylashgan bug'inlar mexanik shikastlanishlar tufayli ko'proq bug'in kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Veterinariya arteriologiya muammolari ko'pdan urganilib kelishiga qaramay hali ko'p imonlari to'liq urganilmagan kasalliklarni kelib chiqishi rivojlanishini aniqlash davolash va oldini olish ilmiy asoslangan.

Respublikamiz xo'jaliklarida, ayniqa yilqichilik fermer xo'jaliklarida hayvonlar orasida oyoq bo'g'imlarining yiringli yallig'lanishlari keng tarqalgan bo'lib, xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Masalan, otlarning yiringli artritlar bilan kasallanishi 6 foizni tashkil etib, bir bosh hisobiga tana vazni ortishining 25-35 kilogrammga, ularning o'sish jadalligining 28-30 foizga kamayishi kuzatiladi.

N.Sh.Davlatov va boshqalarning (1996) ma'lumotlariga ko'ra, xo'jaliklarda yirik shoxli hayvonlarning 20 foizdan ko'prog'ida bo'g'imlarning yiringli xarakterdagи patologiyasi uchraydi va katta iqtisodiy zarar keltiradi

Bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarini davolashda yorug'lik nurlari va elektroterapiya usullarini qo'llash natijasida yaxshi terapevtik qamaraga erishilgan .

Tibbiyotda yoruglik nurlari bilan davolashda infraqizil va ultrabinafsha nurlar, elektr bilan davolashda galvanizatsiya, elektrofarez diatermiya va ultratovush davolash usullari qo'llanilgan. Veterinariyada esa, bo'g'im kasalliklarini davolashda lazer nurlaridan foydalanish qamarali usullardan biri hisoblanadi (N.Sh.Davlatov boshq., 1996 ,1998).

Keyingi yillarda veterinariya amaliyotida ham fizikaviy davolash usullarini qo'llash keng joriy etilmoqda. Kichik intensivlikdagi lazer nurlaridan foydalanish ham shular jumlasiga kiradi. Kichik energiyali lazer nurlari hayvonlar organizmidagi yallig'lanishlarni davolashda

yaxshi natija beradi. Lazer nurlari bilan nurlantirilgan autoqon ot qoramollarda tayanch-harakat a'zolarining kasalliklarini davolashdi (Niyozov H.B., 2008; Niyozov H.B. va boshqalar, 2008, 1998, 2003, 1998; Niyozov H.B., D.Kayumov, 2007; Niyozov H.B., T.Bobomurodov, 2007; Niyozov H.B., A.Xujamshukurov, 2008), keng qo'llanilib juda yaxshi natijalar olingan.

Sut va go'sht mahsulotlarining isrof garchiligini oldini olish ko'p jihatdan hayvonlarni parvarishlash, tashish va go'shtga so'yish qoidalariga rioya qilishga bog'liq. Travmatizmlarni oldini olish tadbirlari hayvonlarni ishlatalish, parvarishlash va transportda tashish sharoitlarini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etilgandagina kutilgan samarali beradi. Profilaktik tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish bilan travmatizmlarni oldini olish mumkin. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, veterinariyada keng miqyosda qo'llanilib kelinayotgan davolash profilaktik vositalar va usullar turli travmatizmlarni va oyoq distal qismi bo'g'imlarining kasalliklarini, shu jumladan bo'g'imlarining yiringli yallig'lanishlarini davolash va oldini olish to'lig'icha samara bermaydi. Shuning uchun bu muammolarni hal etishning yuqori samarali usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'iladi.

Qoramollarda barmoqning anatomo-fiziologik tuzilishi to'g'risida ma'lumot.

Qoramolning har bir oyog'ida to'rttadan barmoqlar mavjud shulardan faoliyat ko'rsatadiganlar ya'ni tayanch vazifasini bajaradiganlar faqat uchinchi va to'rtinchi barmoqlardir, ikkinchi va beshinchilari esa rudimentlashgan (qoldiq barmoqlar). Tayanch barmoqlarning sohasida quyidagi to'rtta qavatlar bor.

Birinchi qavat – teri. Dorsal yuzada teri volyar yuzaga nisbatan qalin bo'ladi. Teri ostida, kuchsiz rivojlangan kletchatkada qon tomirlari joylashadi.


Ikkinchi qavat – yuza fassiya. U barmoqlararo yorig'i gumbaz sohasida qalin yog' to'qimasini (yog' yostiqchasi, barmoqlararo yog') tashqaridan qoplab turadigan mahsus fassial g'ilofni hosil qiladi.

Uchinchi qavat – barmoqning chuqur fassiyasi.

To'rtinchi qavat – pay, paychalar (bog'lamlar), nerv, qon va limfatik tomirlar hamda falangalar suyaklari va ularning bo'g'imlari (7 – rasm). Bu qavatdagi pay, nerv va qon tomirlarning joylashishi quyidagicha:

1. Barmoqning dorsal (old) yuzasida barmoqni mahsus, umumiy yon tomondan yozuvchi paylar, volyar (orqa) yuzasida esa barmoqni bukuvchi yuza va chuqur paylar joylashgan.

Uchinchi barmoqni yozuvchi mahsus pay uchinchi barmoqning dorsal yuzasida, barmoqlarni umumiy yozuvchi paydan medial yotadi. U yumalоq suyakda va faqat a'loxida tutamlar bilantushoq va tuyospimon suyaklarda tugaydi. Tugash joyining yaqinida pay suyaklararo o'rta muskuldan (11) ikkita yordamchi tarmoqlarni qabul qiladi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G., 2013)



Barmoqlarni umumiy yozuvchi payi (4) kaftning dorsal yuzasida barmoqni yozuvchi mahsus paylarning orasidan o'tadi. Kaftning o'rta va distal qismlari chegarasida u ikkita tarmoqga ajraladi. Tarmoqlarning har birisi tegishli tuyoqsimon suyakning yozuvchi o'simtasiga birikadi.

1–rasm. Yirik shoxli hayvonning oldindi oyoq barmog'i sagital kesimi:

1 – kaft suyagi; 2 – barmoqni yon tomondan yozuvchi pay; 3 – tushoq suyagi; 4 – barmoqni umumiy yozuvchi pay; 5 – yumaloq suyak; 6 – tuyoq jiyagi; 7 – tuyoq aylanasining teri asosi; 8 – tuyoqchaning dorsal devori; 9 – tuyoqcha suyagi; 10 – tuyoq bo'g'imining old sinovial bo'rtig'i; 11 – suyaklararo o'rta muskul; 12 –

imparision suyak; 13 – barmoqni bukvuchi chuqur pay; 14 – barmoqni yozuvchi pay; 15 – kesishgan paycha; 16 – tushoq sohasidagi xalqasimon paycha; 17 – imparision barmoq; 18 – tuyoq bo'g'imi sohasidagi xalqasimon paycha; 19 – tuyoq bo'g'imiining orqa sinovial bo'rtig'i; 20 – mokisimon shiliq xaltacha (bursa); 21 – imparision suyak; 22 – barmoqning yumshoq tovoni (tuyoq yumshog'i); 23 – tuyoq ha'katli.

Ular ajralgan joyidan to ikkinchi falanganing o'rtasigacha xususiy pay qiniga ega.

Tarmoqlariniyon tomondan yozuvchi pay (2) (beshinchi barmoqning mahsus yozuvchi payi) umumiy yozuvchi paydan lateral joylashadi. Tushoq bo'g'imining pastida u suyaklararo o'rta muskuldan ikkita bishoyitiruvchi tarmoqlarni qabul qiladi va asosan yumaloq suyakda va ingishka tarmoq bilan to'rtinchi barmoqning tuyoqsimon suyagida ingaydi.

Barmoqni bukuvchi yuza pay (14) volyar yuzada joylashgan bo‘lib, kaftning distal qismida ikkita oyoqchalarga bo‘linadi. Tushoq bo‘g‘imining ustida u suyaklararo o‘rtta muskuldan ikkita ingichka tarmoqni qabul qiladi. Bu payning har ikkala oyoqchalari birinchi falanganing orqasida yana ikki tarmoqga bo‘linadi. Ularning orasidan barmoqni bukuvchi chuqr payning tugallanish tarmog‘i tashqi yuzaga chiqadi. Pay kuchsiz ikkita oyoqchalari bilan yumaloq suyakning proksimal volyar pay birikuvchi bo‘rtiklarida, uchinchi kuchliroq tarmog‘i bilan esa yumaloq suyakning orqa yuzasida tugaydi.

Barmoqni bukuvchi chuqr pay (13) ham barmoqning volyar yuzasida yotadi. Tushoq bo‘g‘imining ustida u ikkita tarmoqga bo‘linadi. Ular esa uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarga boradi. U g‘ilof ko‘rinishida barmoqni bukuvchi yuza payning tugallanish tarmoqlari bilan o‘raladi. Payning har bir oyoqchasi barmoqni bukuvchi yuza payning tegishli tugallanish qismini teshib o‘tib, ikkinchi falangaga kuchsiz tarmoqni beradi va tuyuoq suyagining bukuvchi yuzasida tugaydi. Tugallanishga yaqin joyda bukuvchi chuqr payning oyoqchasi va mokisimon suyakning oralarida, otlardagidek mokisimon shilimshiq xaltacha (bursa) mavjud (20). (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)


Barmoqni bukuvchi yuza va chuqr paylar umumiylay pay qiniga ega. Pay qini kaftning o‘rtasidan pastroqda boshlanadi va yana pastroqda ikkiga bo‘linib, yumaloq suyaklarning o‘rtta sohasida tugaydi. Bu erda pay qinlari mokisimon shilimshiq bursadan mokisimon suyakning ko‘tarib turuvchi paychasi orqali ajratiladi.

2. Barmoqlar sohasidagi nervlar tomirlar bilan birqalikda suyaklar va paylar hosil qilgan mahsus ariqchalarda o‘tadi. Barmoqlar innervatsiyasi barmoqning umumiylay dorsal, medial uchinchi dorsal, kaftning lateral dorsal, barmoqning lateral to‘rtinchi volyar va kaftning volyar medial nervlari orqali amalga oshiriladi (8 – rasm).

Barmoqning umumiylay dorsal nervi yuza tirsak nervidan ajralib, tushoq bo‘g‘imi ustida uchinchi lateral va barmoqning medial to‘rtinchi dorsal nervlariga bo‘linadi. Ular esa uchinchi va to‘rtinchi barmoqlarning dorsal yuzalari ichki chetlarini bo‘ylab (barmoqlararo) distal yo‘naladi va tuyuoqning teri asosida tarmoqlanadi.

Medial uchinchi dorsal nerv (tirsakning yuza medial nervi tarmog‘i) uchinchi barmoqning medial yuzasi bo‘ylab pastga tushadi va teri, tushoq,yumaloq suyak va tuyuoq bo‘g‘imlarning innervatsiyasini amalga oshiradi. Barmoqning har bir dorsal nervi uchinchi va to‘rtinchi

barmoqlarning yumaloq suyak bo‘g‘imlari sohasida volyar nervlardan birlashtiruvchi tarmoqlarni qabul qiladi.



2- rasm. Yirik shoxli hayvon barmoqlarining volyar yuzasida joylashgan qon tomirlar, nervlar va paylar:

1 – kaft suyagi; 2 –ko‘tarib turuvchi paycha; 3 – tirsak nervining volyar tarmog‘i; 4 – barmoqni chuqur bukuvchi pay; 5,6 – barmoq nervlarining birlashtiruvchi tarmoqlar; 7 – barmoqning lateral to‘rtinchi maxsus volyar arteriya va venalari; 8 – barmoqning lateral to‘rtinchi volyar nervi; 9 – rudimentar barmoq nervi; 10 – barmoqni bukuvchi yuza pay; 11 – kaftning yuza volyar arteriyasi; 12 – kaftning volyar medial nervi; 13 – barmoqning medial uchinchi volyar nervi; 14 – barmoqlarning medial uchinchi maxsus volyar arteriyasi va venasi; 15 – barmoqning lateral uchinchi volyar nervi; 16 – barmoqlarning uchinchi umumiy volyar arteriyasi va venasi; 17 – barmoqning medial to‘rtinchi volyar nervi.

Kaftning dorsal lateral nervi (bilak nervining dorsal tarmog‘i) barmoqlarni yon tomonga yozuvchi pay va suyaklararo o‘rtalik muskuli hosil qilgan ariqchada o‘tadi. Tushoq bo‘g‘imidan bir oz yuqoriqorda bu nerv rudimentar beshinchli barmoqqa barmoqni (9) va kaftning volyar nerviga birlashtiruvchi tarmoqni ajratadi. Bundan keyin bu nerv barmoqning lateral to‘rtinchi dorsal nervi deb ataladi. Bu nerv to‘rtinchi barmoqning lateral yuzasidan distal yo‘nalib, moyoq aylanasi terisining asosida hamda tushoq va yumaloq suyak bo‘g‘imlarda tarmoqlanadi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G., 2013)

Barmoqning lateral to‘rtinchi volyar nervi (8) (bilak nervining volyar tarmog‘i) barmoqlarni bukuvchi paylarning lateral chetlaridan, pastga to‘rtinchi barmoqning lateral yuzasiga yo‘naladi.

Kaftning volyar medial nervi (o‘rtalik nervning davomi) barmoqlarni bukuvchi yuza payning medial chetidan yo‘nalib, kaftning distal qismida lateral va medial tarmoqlarga bo‘linadi. Tushoq bo‘g‘imi sohasida lateral tarmoq yana o‘zidan barmoqning lateral uchinchi va medial to‘rtinchi volyar nervlarni (15,17) ajratadi. Ular tegishli barmoqlarning barmoqlararo yuzasiga boradi va bu erda barmoqning dorsal nervi bilan

anastamoz hosil qiladi. Medial tarmoq ikkinchi rudimentar barmoqqa tarmoq ajratadi va keyinchalik uchinchi barmoqning yon yuzasiga barmoqning medial uchinchi volyar nerv sifatida yo'naladi (13).

3. Barmoqlar sohasidagi kon tomirlar suyaklar va paylar hosil qilgan lateral va medial volyar ariqchalarda o'tadi. Barmoq to'qimalarining qon bilan ta'minlanishida barmoqning umumiy dorsal arteriyasi, barmoqning ikkinchi, to'rtinchi va uchinchi umumiy volyar arteriyalari ishtirop etadi (8 – rasm).

Barmoqning umumiy dorsal arteriyasi yaxshi rivojlanmagan. U dorsal yuzada uchinchi va to'rtinchi kaft suyaklari hosil qilgan ariqchada o'tadi. Barmoqlararo yorig'i gumbazining proqsimal qismida bu arteriya barmoqning uchinchi umumiy volyar arteriyadan (16) tarmoq qabul qilib, teshib o'tuvchi barmoqlararo arteriya nomini oladi. U esa o'z navbatida barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi mahsus dorsal arteriyalariga bo'linadi. Bular uchinchi va to'rtinchi barmoqlar dorsal yuzalarining ichki (barmoqlararo) chetlari bo'ylab tegishli tuyoqchalarga boradi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)

Barmoqning ikkinchi umumiy volyar arterisiya kaftning pastki qismida kaftning ikkinchi volyar chuqur va barmoqning to'rtinchi umumiy volyar arteriyalari bilan anastamoz hosil qiladi. Buning natijasida tushoq bo'g'iming yuqoritog'ida, suyaklararo o'rta muskul va kaft suyaklari orasida chuqur volyar arterial yoyhosil bo'ladi. Pastroqda u rudimentar ikkinchi barmoqqa tarmoqchalar berib, barmoqning medial uchinchi mahsus volyar arteriyasi nomini oladi (14). Oxirgisi bukuvchi chuqur payning medial cheti bo'ylab pastga tushadi va uchinchi barmoqning tuyoqchasida tarmoqlanadi.

Barmoqning to'rtinchi umumiy volyar arteriyasi kaftning yuza volyar arteriyasi tarmog'idir. U kaftning to'rtinchi volyar chuqur va kaftning ikkinchi volyar chuqur arteriyalari bilan anastamoz hosil qiladi. Yuqoriga yo'nalib bu arteriya rudimentar beshinchi barmoqqa tarmoq beradi va shundan so'ng barmoqning lateral to'rtinchi mahsus volyar arteriyasi (7) nomini olib, to'rtinchi barmoqning to'qimalarida tarmoqlanadi.

Barmoqning uchinchi umumiy volyar arteriyasi (16) kaftning volyar yuza arteriyasi tugallanish qismidir. U o'zidan barmoqning ikkinchi va to'rtinchi umumiy volyar arteriyalarini ajratgandan so'ng hosil bo'ladi. Bu arteriya yumshoq tovon, uchinchi va to'rtinchi barmoqlarning ikkala arteriyalariga umumiy stvolni va birinchi falangalar uchun tarmoqlar beradi. Undan tashqari, bu arteriyadan barmoqlararo yorig'i gumbazi

sohasida barmoqning umumiy dorsal arteriyasi uchun teshib o'tuvchi barmoqlararo arteriya ajraladi. Keyinchalik barmoqning volyar arteriyasi barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi mahsus volyar arteriyalariga bo'linadi.

Bu qavatda uchinchi va to'rtinchi falangalarning ichki (barmoqlararo yorig'iga qaratilgan) yuzalarida barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi venalari o'tadi. Bu venalar tuyoqning venoz to'ridan chiqadi. Tushoq suyagining o'rtasida ular o'zaro birlashadi va barmoqning umumiy volyar venasini hosil qilib, kaftning yuza venasiga qo'shiladi.

4. Limfatik tomirlar asosan barmoqlarning orqa yuzalaridagi qizchalarga yoki bo'g'imlarning bukish yuzalariga yaqin joylashadi (9 – rasm). Limfatik tomirlarning bunday joylashishi ularning cho'zilishi, sigilishi va shikastlanishiga yo'l qo'ymaydi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)


Barmoqlar sohasidagi bo'g'im, teri va uning hosilalaridan limfaning oqib chiqishi sakkizta bosh, shu jumladan to'rtta yuza va to'rtta chuqur imtatlari tomirlar orqali bajariladi. Yuza bosh limfatik tomirlar barmoqning lateral va medial yuzalarida, teri osti kletchatkada ikkitadan bo'lib o'tadi. Chuqur bosh limfatik tomirlar tomir – nerv tutamlar bilan birgalikda o'tadi.

5. Har bir barmoqning suyak asosini tushoq, ikkita kunjutsimon, yumaloq, tuyoqsimon va mokisimon suyaklar (7 – rasm) tashkil qiladi. ~~Ilu suyaklar~~ birlashadigan joylarda tushoq, yumaloq suyakva tuyoq bo'g'imirni hosil bo'ladi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)

Tushoq (kaft – barmoq) bo'g'imi (birinchi falanga bo'g'imi) o'zaro birikkan uchinchi va to'rtinchi kaft suyaklari, ikkita tushoq suyaklarining proksimal uchlari va to'rtta kunjutsimon suyaklar hisobidan hosil bo'lgan. Kaft suyaklarining bo'g'im yuzalari birinchi falangalargategishli suyaklar, bo'g'im kapsulasi, to'rtinchi barmoqning tushoq bo'g'imi lateral yon paychasi, uchinchi barmoqning medial yon paychasi va ikkita chej barmoqlararo paychalar bilan birlashadi.

Barmoqlararo paychalar kaft suyagining do'ngliklararo yorig'ida bosqinib, helpigich ko'rinishida tarqaladi va tushoq suyaklarning bir – biriga qaratilgan proksimal uchlari birkadi. Barmoqlar yon tomonlarga haddan ziyod tarqalishiga birinchi falanganing o'rta qismlari orasida joylashgan barmoqlararo paycha va kesishgan paychalar yo'l qo'ymaydi. Kesishgan paychalarkunjutsimon suyaklarning distal qismlarida bosqinib, o'zaro kesishadi va uchinchi va to'rtinchi barmoqlarning

birinchi falangalari proksimal uchlarida tugaydi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)



3 – rasm. Yirik shoxli hayvon orqa oyoqlarining limfatik tomirlari:

a – barmoqning medial yuzasi: 1 – barmoqning umumiy uchinchi medial venani kuzatuvchi kollektor; 2, 7 birinchi falanga terisi tomirlari; 3, 8 – ikkinchi falanga terisi tomirlari; 4, 5, 10 – yumshoq tovon tomirlari; 6, 11 – tuyoq devori tomirlari; 9 – tuyoq aylanasi tomirlari; b – plantar yuza: 1 – beshinchchi rudimentar barmoqning tomirlari; 2, 3, 8 – barmoqning umumiy kollektori; 4, 6, 10, 11 – yumshoq tovon tomirlari; 5 – ikkinchi falanga terisi tomirlari; 7 – ikkinchi rudimentar barmoqning tomirlari; 9 – kaft tomirlari.

Yumaloq suyakbo'g'imi (ikkinchi falanga bo'g'imi) yoshi katta hayvonlarda tuyoq aylanasidan o'rtacha 2 sm ga balandroq joylashadi. Bo'g'im tushoq va yumaloq suyaklarning birlashishi natijasida hosil bo'ladi. Suyaklar bo'g'im kapsulasi, keng lateral va medial yonbosh psychalar, hamda ikkita juft orqa (yon va o'rta) psychalar yordamida o'zaro birikadi. Ayrim hollarda bo'g'im bo'shligi barmoq bukuvhilarining pay qini bilan birlashadi.

Tuyoq bo'g'imi (uchinchi falanga bo'g'imi) yumaloq suyakning distal uchi, tuyoqsimon va mokisimon suyaklarning bo'g'im yuzalari birlashishi hisobidan hosil bo'ladi. Uning bo'g'im kapsulasida old va orqa sinovial bo'rtiqlari bor. Old bo'rtiqning yuqorigi uchi shoxsimon kapsuladan bir oz yuqoriroqda joylashadi. Undan tashqari bo'g'imda

lateral va medial yonbosh psychalari mavjud. Lateral psycha yupqaroq bo'lib, yumaloq, tuyoqsimon va qisman mokisimon suyaklarga birikadi.

Medial (barmoqlararo) yonbosh psychanening ostida elastik psycha joylashadi. Bu psycha ikkinchi falanganing distal uchidagi pay birikuvchi bo'rtig'idan boshlanib, tuyoqsimon suyakning yozuvchi o'simtasiga va barmoqni umumiy yozuvchi payga boradi. Uchinchi va to'rtinchi barmoqlar ayтиб o'tilgan psychalardan tashqari distal kesishgan barmoqlararo psychalar orqali ham o'zaro birlashadi. Bu psychalar uchinchi va to'rtinchi barmoqlar ikkinchi falangalarining yonbosh proksimal pay birikuvchi bo'rtig'idan boshlanadi, barmoqni bukuvchi chuqr pay ustidan va u bilan tig'iz bog'langan holda pastga, barmoqlararo bo'shilg'iga qarab qiya boradi, u erda kesishadi va o'zaro tutashadi. Kesishgandan so'ng psychalar qarama-qarshi barmoqlarning mokisimon suyaklariga va uchinchi falangalarning barmoqlararo yuzalariga birikadi.

Mokisimon suyak uni ikkinchi falanga bilan birlashtiradigan ko'tarib turuvechi psychaga ega. U tuyoqsimon suyak bilan faqat bo'g'im kapsulasi orqali bog'lanadi.

On bilan ta'minlanishi va innervatsiyasidagi ayrim xususiyatlarni hisobga olmaganda orqa oyoqlarning barmoqlari anatomik jihatdan old oyoqlarning barmoqlaridan deyarli farq qilmaydi.

Orqa oyoqlar barmoqlarining innervatsiyasi kichik boldir yuza nervi tarmoqlari, xususan barmoq terisining dorsal yuzasida tarqalgan barmoqning lateral to'rtinchi dorsal nervi (lateral tarmoq) va medial uchinchi dorsal nervi (medial tarmoq) hamda barmoqlararo yorig'ining gumbazi kletchatkasida nerv to'rini hosil qilishda qatnashadigan barmoqning umumiy dorsal nervi (o'rtta tarmog'i) orqali amalga oshliladi. Tushoq bo'g'imi sohasida bu nerv kichik boldir chuqr nervi tarmog'i bilan anastamoz hosil qiladi.

Undan tashqari barmoqlar tovonning medial plantar (katta boldir nervining medial tarmog'i) nervi orqali innervatsiya qilinadi. U barmoqlarni bukuvchi paylar orasidan pastga yo'nalib, shu paylarga, suyaklararo o'rtta muskulga va ikkinchi rudimentar barmoqlar beradi va keyinchalik medial va lateral tarmoqlarga ajraladi. Lateral tarmoq barmoqlararo yorig'i gumbazidagi to'qimalarga borib, kichik boldir chuqr nervi tarmoqlari bilan qo'shiladi. Medial tarmoq barmoqning medial uchinchi plantar nervi deb ataladi va uchinchi barmoq (o'qimalarining innervatsiyasida ishtiroy etadi).

Undan tashqari barmoqlar innervatsiyasida tovonning lateral plantar nervi (katta boldir nervi tarmog'i) ham ishtirop etadi. Bu nerv suyaklararo o'rta muskulga va beshinchi rudimentar barmoqqa tarmoqlarni ajratgandan so'ng, barmoqning lateral to'rtinchi plantar nervi deb ataladi va to'rtinchi barmoqni innervatsiya qiladi.

Orqa oyoq barmoqlarining qon bilan ta'minlanishi kaftning dorsal uchinchi arteriyasi, medial va lateral plantar arteriyalari orqali amalga oshiriladi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)

Kaftning dorsal uchinchi arteriyasi asosiy stvoli kaftning pastki uchida barmoqning umumiy dorsal arteriyasi deb nomlanadi. U tushoq bo'g'imigacha etib borib, barmoqning mahsus lateral va medial arteriyalariga bo'linadi. Ular barmoqlararo yorig'igumbazi yaqinida uchinchi va to'rtinchi barmoqlarning mahsus plantar arteriyalari bilan anastomoz hosil qiladi.

Uchinchi barmoqning dorsal chuqur venasi dorsal barmoqlararo chuqur nervi bilan birgalikda birinchi, ikkinchi va uchinchi falangalarning lateral yuzasidan o'tadi. O'z yo'lida u yumshoq tovon arteriyasi, plantar va uchinchi falanganing dorsal arteriyalari, uchinchi barmoqning tuyog kafti arteriyasini beradi. Keyin bu arteriya tuyoqsimon suyagining tomirli kanali tomonga yo'naladi.

Barmoqning mahsus medial dorsal to'rtinchi arteriyasibarmoqning mahsus lateral dorsal uchinchi arteriyasi kabi yo'naladi va bo'linadi.

Medial plantar arteriya birinchi falangalar o'rtasida barmoqning dorsal umumiy arteriyasi bilan anastomoz hosil qilib, barmoqlararo yojni yaratadi. Tushoq bo'g'imi ustida u barmoqlarning ikkinchi va uchinchi umumiy plantar arteriyalariga bo'linadi. Bundan keyin barmoqning ikkinchi umumiy plantar arteriyasi ikkinchi rudimentar barmoqqa tarmoq beradi, o'zi esa uchinchi barmoqning medial yuzasida barmoqning mahsus plantar arteriyasi sifatida boradi. Barmoqning uchinchi umumiy plantar arteriyasi barmoqlararo yorig'i gumbazishosadabarmoqlarning medial uchinchi va lateral to'rtinchimahsus arteriyalari bilan anastomoz hosil qiladi. Keyin u medial to'rtinchi va lateral uchinchingahsusplantar arteriyalariga tarmoqlanadi. Bu arteriyalar falangalarning barmoqlararo yuzasidan yo'nalib, dorsal va plantar tarmoqlarni beradi va keyinchalik tuyoqsimon suyakning kanaliga kirib o'zaro birlashadilar.

Lateral plantar arteriya (arteriya safenaning tarmog'i) tovon bo'g'imi sohasida bir qator tarmoqlar berib, barmoqning to'rtinchi umumiy plantar arteriyasi deb nomlanadi. Bu erda u beshinchi rudimentar barmoqqa tarmoq beradi va barmoqning lateral to'rtinchi mahsus plantar

steriyasiga aylanadi. Oxirgisi barmoqning uchinchi umumiy plantar arteriyasi bilan anastomoz hosil qiladi va to'rtinchi barmoqning lateral yuzasidan tuyoqsimon suyak tomonga yo'naladi.

Ongi oyoq barmoqlarining venalari ham tuyoqlarning venoz to'ridan boshlanadi. Falangalarning dorsal yuzasidan o'tadigan barmoqlarning lateral uchinchi va medial to'rtinchi venalari tushoq bo'g'imi ustida o'aro birlashib, barmoqning to'rtinchi umumiy dorsal venasini hosil qiladilar. U kaftning pastki qismida distal plantar venoz yoyi bilan anastomoz hosil qiladi va kaftning dorsal lateral venasi sifatida yuqoriga yo'naladi. Bu vena barmoqning uzunva yon tomondan yozuvchi paylar orasida joylashadi.

Barmoqlarning yon yuzalaridan barmoqlarning lateral to'rtinchi va medial uchinchi venalari o'tadi. Ular tushoq bo'g'imi ustida distal plantar venoz yoy hosil bo'lishida ishtiroq etadi. Bundan keyin ular kaftning lateral va medial plantar chuqur venalari nomini olib, barmoqni bukvuchi chuqur pay chetlari bo'ylab yuqoriga yo'naladi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)

Uchinchi falangasohasi.

Yirik shoxli hayvonlarning tuyoqlari quyidagilardan tashkil topgan: tuyoq jiyagi, tuyoq aylanasi, tuyoq devori, tuyoq kafti va yumshoq tovoni (tuyoq yumshog'i).


Tuyoqning tashqi qoplamasi shoxsimon kapsula deb ataladi va u tuyoq teri asosidan ishlab chiqariladi. Teri asosi shoxsimon kapsula ostida yotadi va uning ichki yuzasi bilan birikadi. Teri asosi tuyoq jiyagining teri asosi, tuyoq aylanasining teri asosi, tuyoq devorining teri asosi, kaftning teri asosi va yumshoq tovoning teri asosiga bo'linadi (10 – rasm).

4 – rasm. Teri asosi:

- 1 – tuyoq jiyagining teri asosi;
- 2 – tuyoq aylanasining teri asosi;
- 3 – tuyoq devorining teri asosi.

Tuyoq jiyagining teri asosi(1) eni 4 – 7 mm keladigan bo'rtiq tasma ko'rinishida bo'ladi. Jiyakning teri asosi yarim xalqa shaklida barmoqni o'rab turadi va uning volyar aniq chegarasiz yumshoq tovonga o'tadi.

Tuyoq aylanasining teri asosi(2)tashqi ko'rinishidan 2 – 2,5 sm yoki da yostiqchani eslatadi. U tomirla va g'uddali qavatlardan iborat. 1,8



mm uzunlikda ko‘p sonli g‘uddalar uchlari distal yo‘naltirilgan. Jiyak va tuyoq aylanasining teri asoslari ostida teri osti biriktiruvchi to‘qima qavati joylashgan. Bu qavat bo‘g‘im kapsulasining old sinovial bo‘rtig‘i va tuyoq bo‘g‘imining yonbosh psychalariga yopishib turadi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013).

Tuyoq devorining teri asosi (3) varaqli, tomirli va periostal qavatlardan tuzilgan. Tuyoqning tovon qismida u yumshoq tovonning teri asosi bilan qo‘shiladi.

Tuyoq devorining teri asosini qoplab turuvchi epidermisning hosilali qavati tuyoq kapsulasining ichki (varaqli) qavatiini ishlab chiqaradi. Tuyoq kapsulasi devorining shoxsimon varaqchalarini va teri asosining varaqchalarini o‘zaro uncha mustahkam birikmaydi, shu sababli patologik jarayonlarda yirik shoxli hayvonlarning tuyoq kapsulasi otlarnikiga nisbatan ko‘proq hollarda ajraladi. Old tomonda va qisman yon devorlar qismida teri asosi tuyoqsimon suyak bilan tig‘iz birikadi.

Tuyoq kaftining teri asosi g‘uddali tuzilishga ega. U tuyoqsimon suyakning tegishli yuzasiga bevosita yopishib turadi.

Tuyoq jiyagi, tuyoq aylanasi, tuyoq devori va tuyoq kaftida ko‘p miqdorda qon tomirlar va nervlar tarmoqlanadi. Oxirgilar o‘xhash nomli venoz va arterial to‘rlarini hosil qiladi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013)

Yumshoq tovonning (tuyoq yumshog‘i) teri asosi tashqaridan ko‘p sonlig‘uddalar bilan qoplangan. Undagi epidermisning hosilali qavati yumshoq tovon shoxini ishlab chiqadi. Tuyoqning boshqa qismlaridan farqi o‘laroq yumshoq tovonning teri asosi ostida yaxshi rivojlangan teri osti qavati joylashgan. Bu qavat o‘zaro kesishgan mustahkam kollagen (elim beruvchi) va elastik tolalardan tuzilgan. Tolalar orasida yog‘ to‘qimasi joylashadi. Tovan qismlarida tuyoq yumshog‘ining qalinligi 1–1,5 sm gacha etadi. U pona shaklida bo‘lib, old tomonga yo‘naladi, astasekin yupqalashadi va tuyoq o‘qchasi bilan qo‘silib ketadi.

Yumshoq tovon teri osti qavatining tagida barmoqni bukuvchi chuqur payning uchi yotadi.

Tuyoqning shoxsimon kapsulasi shoxsimon jiyak, shoxsimon tuyoq devori, shoxsimon kaft (tuyoq o‘qchasi) va shoxsimon yumshoq tovondan tashkil topgan.

Shoxsimon jiyak eni 4–7 mm keladigan, och kulrang yumshoq shoxdan tuzilgan tasima shaklida teri va shoxsimon kapsula orasida joylashadi.


Shoxsimon devor jiyakdan pastroqda joylashadi. U yuza, o'rtaligida qavatlardan tuzilgan.

Tashqi ya'ni yaltiroq qavat jiyak teri asosidagi epidermisning hosilatligi qavatidan ishlab chiqariladi. Yaltiroq qavat tuyog shoxining fizikaviy xususiyatlarini saqlashda muhim ahamiyat kasb etib, uni haddan ziyod qurishidan va namlanishidan saqlaydi.

O'rtaligida qavat eng qalin bo'lib, shoxsimon naychalardan tuzilgan. Naychalar orasida naychalararo shoxsimon to'qima joylashadi. Bu qavat tuyog aylanasi teri asosi epidermisining hosilali qavatidan ishlab chiqariladi.

Chuqur qavat shoxsimon varaqchaldan tashkil topgan bo'lib, ular tuyog devori teri asosining hosilali qavatidan ishlab chiqariladi.

Tuyog shoxsimon devorining old qismi nisbatan qalin bo'lib, volyar formonga borib yupqalashadi. Uning ichki (barmoqlararo sohasi) qismi eng yupqa bo'lib, o'rtacha 5 mm, tashqi qismi esa 7 mm qalnlikda bo'ladi. Har bir tuyogchaning devori uzunasi bo'yicha shartli ravishdaikkita yon devorlar (tashqi va ichki – barmoqlararo) va ikkita tovon devorlariga bo'linadi (11 – rasm, a).



5- rasm. Yirik shoxli hayvon tuyogchalarini:

- a – yon tomondan ko'rinishi:
1 – tovon devori; 2 – yon devor; 3 – old devor;
b – kaft tomondan ko'rinishi:
4 – rudimentar (qoldiq) tuyogcha;
5 – shoxsimon yumshoq tovon;
6 – shoxsimon o'qcha; 7 – oq liniya;
8 – barmoqlararo yoriq.

Shoxsimon kapsulaning yon devorlari tovon qismida ichkariga qaytdi va shoxsimon tuyog yumshog'iga o'tadi. Tuyogning pastki ya'ni qismi tuyog o'qchasi va yumshoq tovondan tashkil topgan (11 – rasm, b).

Tuyog o'qchasi yarim oysimon shaklda bo'lib tuyog yumshog'idan oliniroqda joy olgan va uni qisman o'rab turadi. Uning tarkibiga o'zgargan oq chiziq kiradi. Tuyog o'qchasi naysimon shoxdan tuzilgan bo'lib, qalnligi 2,5–3,5 mm gacha etadi. (Tashtemirov R.M., Karimov M.G., 2013).

Tuyoqning shoxsimon yumshoq tovoni tuyoq kaftining asosiy qismini egallaydi va yumshoq naysimon shoxdan tuzilgan.

Oqsash turlari va ularning tavsifi.

Oyoqlarning ko'pgina kasalliklarida oyoq funksiyasining buzilishi – oqsash va harakat aritmiyasi bilan harakterlanadi. Kasal hayvonlarda oqsash turi patologik jarayonning patologik uchoqning joylashgan joyiga va uning keltirib chiqaruvchi sabablariga bog'liq bo'ladi. Oqsashlarni tasniflash katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, oqsash turlarini qaysi turiga mansubligini aniqlashkasallik tabiati va xarakterini aniqlashga imkon beradi va tashhis qo'yishni osonlashtiradi.

Kurak suyagi qaysi mushaklar yordamida tanaga mahkamlanish joylari (pastki tishsimon, rombsimon, yuza va chuqr ko'krak mushaklari, trapetsiyasimon, elka-bosh, elkaning keng mushaki va qattiq ko'ndalang fassiya); kurak-elka bo'g'inning fassiyasini, orqa tomondan elkaning ikki boshli mushaki, ko'krakning chuqrush mushaki va elkaning keng mushaki. Bu bo'g'inni fiksatsiya qilishda o'q oldi mushaki kamroq ahamiyatga ega. Yonboshdan kurak osti va o'q orqa mushaklari fiksatsiya qiladi. Bo'g'inning tirsakdan pastki qismlari bukuvchi va yozuvchi mushaklar yordamida fiksatsiya qilinadi.

Hayvon turgan holatida tirsak bo'g'imining muvozanati bilakuzuk bo'g'imi bukuvchilar yordamida (bilaguzukning bilak bukuvchisi, bilaguzukning tirsak yozuvchisi) bajariladi.

Oyoqlarga tayanganda, bukuvchi mushak paylari tortilib, tirsak bo'g'imi yozilishiga olib keladi. Tananing kurakka tushgan og'irligining bir qismi, barmoq suyaklariga va pay-bog'lama apparatlariga, suyaklararo o'rta uchinchi mushak, kunjutsimon suyakning to'g'ri va qiyshiq paylariga, barmoqlarning yuza va chuqr bukuvchilariga tushadi.

Tayangan vaqtida bilaguzuk bo'g'imi barmoqlari bukuvchilar va qo'shimcha payning boshchasi bilan fiksatsiya qilinadi. Bilaguzuk bo'g'imi yozilishiga olib keladi. Bilaguzuk bo'g'imi oldinga bukilib ketishiga, bilak fassiyasining volyar qismi, bilakni yozuvchi mushak, elkaning ikki boshli mushakini payli bog'lamlari, bilaguzuk bo'g'imining volyar bog'lami va bilak suyagini bo'g'im va maxsus chuqurligi qarshilik qiladi.


Tushov bo'g'imi barmoq bukuvchilar, kunjutsimon suyakning volyar bog'lamlari va suyaklararo mushakning tortilishi orqali fiksatsiya qilinadi.

Kunjutsimon suyaklarning yoshboshga siljishini kunjutsimon suyaklararo, butsimon, kollateral bog'lamlar va suyaklararo o'rtalash mushak barmoqlari hisobiga oldi olinadi.

Yumaloq bo'g'imi barmoqlarning yuzaki bukuvchi paylari, volyar bog'lamlar, tuyaq bo'g'imi - barmoqlarning chuqr bukuvchi paylari hisobiga fiksatsiya qilinadi.

Oyoq bo'g'imlarini tayanganda fiksatsiya qiluvchi apparatlarning charchash darajasida engillashtirish mushak guruhlarining to'xtovsiz qismashib qisqarib (mushak tonusi) turishiga bog'liqdir.

Orqa oyoq mushaklari, ko'krak oyoq mushaklariga qaraganda ancha juchli va ko'pdir, ular qisqarganda bo'g'im burchaklari to'g'rilanib, bayyon tanasining harakatini ta'minlaydi.



Aksosiy amortizatorlarsxemasi: (6 – rasm) 1 – proksimal; 2 – o'rta; 3 – pastki.


Droq oyoqqa tayanganda, tizza bo'g'iman pastki bo'g'imir, tizza qopiqning son suyagidagi ichki taroqsimon chig'iri do'ngligiga ilkaliya qilinishi ta'minlanadi (10-rasm).

Hu funksiyani sonning to'rt bshli mushakining to'g'ri va medial boshlarini bajaradi. Tovon bo'g'imi uchinchi kichik boldir mushaki va bo'rog' darajada barmoqlarning yuzaki bukuvchilarining engil tortishi bilan fiksatsiya qilinadi. Barmoq bo'g'imirni, oldingi oyoqlardagi kabi

fiksatsiya qilinadi, qi shundaki, barmoqlarning yuzaki bukuvchisi, tovon suyagi do'ngligida keng pay ipchalari bilan qo'shimcha kuchli birikadi.

Otlarda orqa oyoqlarni vaqt-i-vaqt bilan almashib, ozod qilishi tizza qopqog'ini fiksatsiya qiluvchi mushaklarga dam berishidandir. Shunday qilib, to'rt boshli mushak tizza qopqog'ini fiksatsiya qilib, orqa oyoqning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Qolgan bo'g'imlar kichik boldir, uch boshli va barmoqlarni bukuvchilarining taranglashishi orqali fiksatsiya qilinadi.

Anatomik preparatlarda ko'krak va orqa oyoqlar mushaklarini o'rgangandan so'ng, ot va qoramollar oyoqlarining qismlarini kuzatish hamda paypaslash usuli orqali, anatomik elementlarning joylashishini alohida yoki guruh mushaklar, paylari, bo'g'imlari konturlarini aniqlaydi va ularga xarakteristika beradi.



Oqsamaydigan hayvon qadami Oqsaydigan hayvon bunda ab = bv; (7-rasm) qadami bunda ab > bv.

Oyoqlar funksiyalarini kuzatib, talabalar qadam nima, fazalarini (davr), bosqichlarini, amortizatsiya moslashuvlarini, qaysi mushaklar bilan tayanish va oyoqlarini harakatlantirish amalga oshirilishini aniqlaydilar. SHunga ahamiyat berish lozimki, tayanganda birinchi davr – qisqa amortizatsiyali, ikkinchi davrda – ko'krak oyoq funksiyasi tanani oldinga tortilishi, orqa oyoq funksiyasi shu davrda tanani oldinga itarish va harakatga yo'nalish berish bilan xarakterlanadi (Tashtemirov R.M., Karimov M.G., 2013).

Oyoq harakatida tana mushaklarining roli o'rGANILADI. Birinchi davrda oyoqlarni oldinga olish fazasida (tuyogni tuproqdan uzib, qarama-qarshi oyoqdan oldinga o'tkazish vaqtida) bo'g'imlar bukilishi (tirsak va

korak-elka bo‘g‘imidan tashqari) bilan kuzatiladi; ikkinchi davrda ularni yozish va oyojni tana og‘irligini qabul qilishga tayyorlash yuz beradi.

Orqa oyoqda, tana og‘irligini qabul qilishga tayyorlangan, ya’ni tuyogni erga tegizish vaqtida, tos-son bo‘g‘imi bukilgan va qolgan hamma bo‘g‘imlar to‘g‘rilangan holatda bo‘ladi (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013).

Tos-son bo‘g‘imida oyojni oldinga olib o‘tish davri murakkablashadi: fleksiya (bukilish) bo‘g‘im buralishi (supinatsiya) bilan qo‘shilib ketadi, so‘ngra ichkariga tortish (adduksiya) tashqariga uzaytiish (abduksiya) bilan almashadi, shuning hisobida son va butun oyoq ichkariga qarab yoysimon shaklda harakat qiladi.

Huzoqlarda oyoqlarning oldinga harakati to‘g‘ri, sog‘in sigirlarda orqa oyeq ichkariga yoy hosil qilib, biri ikkinchisini kesib o‘tadi.

Ondam deb bir oyoqning bir tayanch nuqtasidan ikkinchi tayanch ~~nuqtasiga~~ bo‘lgan masofaga aytildi (11-rasm).

Oyoq funksiyasining buzilishi uning havoda osilib turgan yoki erga ~~tayangan~~ vaqtida kuzatiladi va qadam kesiklarining birini qisqarishini yoki ~~uzayishi~~ bilan harakterlanadi (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013).

Sog‘ hamda kasallangan oyoqlar qadami ikkita kesikdan iborat:

- 1) Birinchi yoki orqa;
- 2) Ikkinchi yoki oldingi


~~Oqsu~~maydigan hayvonlarda ikkala qadam kesiklarining uzunligi bir ~~bu‘ladi~~, oqsaydigan hayvonlarda qadam kesiklarining uzunligi bir-birden farq qiladi.

Oyoq kasalliklarida og‘riq sezish oqibatida harakat ritmi buziladi va ~~oqish~~ yuzaga keladi (12-rasm).

Oyoqlarning osilib turgan holatdagi oqsashi. Harakatlantiruvchi muhabklarning kuchli og‘rishi oqibatida yuzaga keladi. Oyoqni ko‘taruvchi va oldinga o‘tkazuvchi mushaklar kasallanganda; kasal oyoqning joyini sekinlik bilan o‘zgartiradi, erdan etarlicha ko‘tarib oldilmaydi, hayvon kasal oyog‘ini oldinga o‘tkazmasdan, suyanib turgan sog‘lon oyoq yaqniga qo‘yadi va qadamning oldingi kesigi kichrayadi. (13-rasm).

Oyoqlarning tayanch holatdagi oqsashi. Oyoqqa og‘irlik tushgan davrda og‘riq kuchayib, oyojni erdan ko‘tarib olguncha davom etadi. Bu oqish ko‘pincha tuyoqning barcha kasalliklarida, barmoq suyaklari ~~inganda~~ (kunjutsimon), muvozanatni (tayanchni) saqlovchi

apparatlarning paylari uzilganda, mushaklar ishini boshqaruvchi nervlar falajlanganda kuzatiladi.




Osilib turgan holatda oyoq oqsashi.(8-rasm).

Bu turdag'i oqsashda hayvon qadamining orqangi kesigi kichraygan bo'ladi. Og'riq kuzatilishi natijasida og'riyotgan oyoqqa suyanganda hayvon shu fazani qisqartirishga harakat qiladi, sog'lom oyoqni oldinga, uni kasal oyoqqa yaqin qo'yadi, shu sababli qadamning orqangi kesigi qisqaradi. Elkaning uch boshli va sonning to'rt boshli mushaklarini boshqaruvchi nervlar falajlanganda ham kuzatiladi (14-rasm) (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013).

Aralash oqsash – oyoqlar funksiyasi harakatning ikki fazasida (tayanish va ko'tarilishi) ham kuzatiladi. Ko'pincha proksimal bo'g'imlar – elka-kurak va tos-son bo'g'imlarida kasallik uchraganda kuzatiladi.

Bu turdag'i oqsash elkaning ikki boshli mushaki yallig'langanda ham uchraydi, chunki bu mushak oyoqlar tayanganda va harakatlanganda ham katta rol o'ynaydi (Tashtemirov R.M., Karimov M.G. , 2013).



Tayanib turgan holatda oyoq oqsashi (9-rasm).

Abluksiyada oqsash – oyoqlarni yonboshga uzaytirganda, bo'g'imirning yonbosh paylari, kurak o'q orqa va deltasimon mushaklar, tuyoqning tashqi qismi hamda juft tuyoqli hayvonlarda 4-barmoqlar shikastlanganda kuzatiladi.

Abluksiyadp oqsash – oyoqlarni tanasiga tortib oqsash. Oyoqlarning ichki tomonlari – otlarda tuyoqning ichki tomoni, juft tuyoqlarda 3-barmoq, bo'g'imirning ichki yonbosh paylari, kurak osti mushaklar shikastlanganda, oyoqlarni oldinga yoki orqaga o'tkazganda seziladi (15-rasm).


Vaqt-vaqt bilan oqsash. Arteriya qon tomirlarining tromboz va emboliyasi, masalan, oldingi oyoqda mushak osti va elka arteriyasi, orqa tuyoqda tashqi yonbosh yoki qorin aortasida oraliq va son arteriyalarining otkazuvchanligi buzilganda – hayvonni choptirgandan keyin 3-4 minutilan so'ng yuzaga chiqadi. (16-rasm) (Tashtemirov R.M., Karimov M.G., 2013)/

Kosal oyoqlar funksiyasi buzilishining ko'rinishiga qarab amalda nafas 3 darajaga bo'linadi:

1-darajali oqsashda – hayvonda kasal oyoq harakatida aritmiya kuzatilib, kasal oyog‘iga sog‘ oyog‘iga qaraganda kam vaqt davomida tayanadi;

2-darajali oqsashda – kasal oyog‘iga to‘lig‘icha og‘irlik qo‘ymaydi, ko‘tarib chegaralaydi;

3-darajali oqsashda – kasal oyog‘ini yerga butunlay bosmaydi, juda ehtiyyotkorlik bilan uni harakatlantiradi.



Son arteriyasining Ichki tuyuqlarning pododermatitida oyoqlar trombozida chap qo‘yilishi (10-rasm), orqa oyoqning qo‘yilishi (11-rasm).

Oqsash turlarini aniqlash uchun, kasal hayvonni qattiq erda, yumshoq tuproqda, kasal oyoqni tashqariga, ichkariga va orqaga qaratib hayvonni aylantirish, yurgizish, hayvonni oldindan, orqasidan va yonboshidan kuzatish, hayvonni yurgizganda bo‘yni va boshining harakatini kuzatish zarur. Hayvonni sekin va yo‘rttirib, ustiga minib yurgizib oqsashning o‘zgarishlarini kuzatish lozim.

II BOB. QORAMOLLARDA BARMOQ KASALLIKLARIGA TASHXIS QO‘YISH.

Kasal hayvonlarni umumiy tekshirish.

Tekshirish 2 gruppaga: umumiy va maxsus tekshirishlarga bo‘linadi:

a) fizikaviy – ko‘z bilan kuzatib chiqish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya;

b) funksional usullar – sekin va aktiv harakatlantirib tekshirish.

Kuzatish (ko‘z bilan kuzatish) yo‘li bilan hayvonning umumiy holatini, patologik jarayonning joylashish joyini va uning xarakterini, oyoq qo‘yishdagi o‘zgarishlar, uning hajmi, shakli, deformatsiya (shakli o‘zgarishi) borligi, figura o‘zgarishi, yoriqlar, jarohatlanganligi aniqlanadi va dastlabki diagnoz qo‘yiladi.

Oyoq kasalliklarining joylashishi va xarakteriga qarab kasal hayvon haqida vaziyatni qabul qiladi. Oyog‘ini oldinga, orqaga, tashqariga yoki ichkariga, ba’zida oyoq uchiga (zatsep), yonbosh devoriga yoki tuyuoqning o‘sqa tomoniga bosib turadi. Bu holatda boshni tutish vaziyati ham o‘zgaradi, oldingi oyoqning bir tomonlama oqsashida, uni erga qo‘yganda boshni balandga ko‘taradi, orqa oyoqlarda kasallik bo‘lsa boshini pastga tushiradi.

Adduksiya ko‘krak oyoqlarda bo‘lsa, kurak o‘qi orqa va deltasimon mushaklar pay qismi, bilak, bilaguzuk va barmoqlar bo‘g‘imining tashqi yonbosh payi, orqa oyoq tuyog‘ining tashqi devori va boshqalarda yallig‘lanish borligi aniqlanadi.


Adduksiya bo‘lsa, kurak osti va katta yumaloq mushakda, kurak-elka bo‘g‘imida, tuyuoqning ichki devorida yoki tos suyagida (sinish), tos-son bo‘g‘imida, o‘rta sag‘rin mushaki shilliq xaltasida patologik jarayon faoliyi aniqlanadi.

Oyog‘ini tez-tez ko‘tarib tursa, mokisimon blokida tuyuoqning teri xaltsida, artrozlar, osteoartritlar va revmatizm borligi bilinadi. Oldingi oyog‘ini orqaga tashlab turish, tuyuoqning orqa tomoni, elkaning ikki boshlimushaki, oldinga qo‘yib tursa tuyuoqning oldingi qismi yoki tuyuoq suyagi, barmoqlarni bukuvchi paylar va qinlarining yallig‘lanish usipbatidir.

Perkussiya va auskultatsiya usulida tekshirish.


Palpatsiya (paysplash) yordamida: to‘qimalarning sezuvchanligi, teridagi o‘zgarishlar – namligi, terlashi, teri po‘stining tushishi (tutimishi), tonusining o‘zgarishi, harorati, egiluvchanligi, teri qalinligi,

yot modda borligi, harakatchanligi, flyuktuatsiya, g'ijirlashi, atrol to'qimalar bilan birga o'sib ketganligi aniqlanadi. (8,9,10-rasm)



Yirik shoxli hayvonda kurak o'q oldi mushaki palpatsiyasi (12-rasm).

Yirik shoxli hayvonda bilakning bilaguzuk yozuvchi mushakinining palpatsiyasi (13-rasm).



Yirik shoxli hayvonlarda barmoq yuza bukuvchi payining palpatsiyasi (14-rasm)

Perkussiya (urib ko'rish) yordamida qattiq va yumshoq to'qima kasalliklariga diagnoz qo'yiladi (shoxda, suyaklar yorilganda, osteofit, tuyoq suyagining singanligi, teri osti ekzemasi, suyak sinishlari). Perkussiya simmetrik joylashgan (kasal va sog') uchastkalarda taqqoslab aniqlanadi.

Auskultatsiya (eshitib ko'rish) – jarohatlangan joylardan chiqadigan tovushlarni eshitib ko'rishga yordam beradi (gemoatroz, fibrinozli artrit,

sinovitlar, suyak sinishlari, gazli flegmonalar). Stetafonendoskopni jarohatlangan joyga qo'yib, bo'g'imlarni sekin harakatlantiradi.


~~Maxsus~~ tekshirishlarda – oyoqlarni tekshirishni uning past ~~hamonidan~~ boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'g'im, pay va bog'lamlarni tekshirish

Tumshoq tog'ay bog'lamlarini tekshirish. Yordamchi oyoqlarni ko'tarib, tushoq bo'g'imidan fiksatsiya qilib turadi. Tekshiruvchi yumshoq tog'ayidan ushlab ularni ikki qarama-qarshi tomonga yozadi. Og'riq reaksiyasi unda patologik jarayon borligidan darak beradi.

Tuyaq bo'g'imini tekshirish. Ko'tarilgan oyoq tushoq bo'g'imi yamaloq suyagining ustki qismidan fiksatsiya qilinib, tekshiruvchi yoyning orqa qismidan ushlab uni pastga, oldinga va aylanma harakat qilib ko'radi. Paychalar jarohatlangan bo'lsa og'riq paydo bo'ladi.

Barmoqlarni yozuvchi umumiylayning oraliq suyakka birlashgan shu payning qushimcha bilaguzuk boschchasini tekshirish. Ko'tarilgan oyoqda tuyaq bo'g'imini orqaga bukiladi (volyarnaya fleksiya). Bunda pay cho'ziladi, og'riq sezilsa jarohat borligi aniqlanadi. Keyin oldinga bukilib, oraliq bo'g'im paylari, yamaloq bo'g'im, bukuvchi paylar, tushoq suyagi holati aniqlanadi (15-rasm).



Oltarda kaft sohasidagi paylarni palpatsiya qilish :A - barmoq chuoq suyakka payini; B - shu payning qushimcha bilaguzuk boschchasini (15-rasm).

Yamaloqbo'g'imni tekshirish. Teridagi jarohatga ahamiyatga beriladi. To'qimalar shishi, mahalliy harorati, og'riq, konsistensiyasi qilib ko'rildi, dorsal va volyar fleksiya (bukilib) qilinib ko'rildi. Tushoq va yamaloq suyaklarda ekzostozlar, sinish, yorilish bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Tushoq bo'g'imi sohasini tekshirish. Kuzatish va paypaslab ko'rish asosida paylarning shilliq xaltalari, bo'g'imdag'i, mushaklardagi og'riqlar aniqlanadi. Bo'g'imni aylantirib (rotatsiya), bukib (fleksiya) bog'lovechi apparatlar holati aniqlanadi.

Panja sohasini tekshirish. Barmoqlarni yozuvchi payni, suyaklar, mushaklar va chuqur hamda yuza bukuvchi paylar, ularning qinlari tekshiriladi.

Bilaguzuk bo'g'imi sohasini tekshirish. Bo'g'imning pastki qismidagi shishlar, shu sohadagi pay qinlari tekshiriladi. Deformatsiyalangan artrit bo'lsa, sog'lom oyoqni tez ko'targanda suyanishi juda og'riqli bo'ladi.

Bilak va tirsak bo'g'imi sohasini tekshirish. Kuzatish va paypaslash yo'li bilan teri, teri osti kletchatkasi, mushaklar va suyaklarda uchraydigan jarohat, sinish, bursit, artrit, uch boshli elka mushakinining kasalliklari aniqlanadi.

Kurak-elka bo'g'imini tekshirish. Shu oblastda uchraydigan defiguratsiya, deformatsiya, atrofiya va mushaklar yallig'lanishi (ikki boshli, o'q oldi va o'q orqa mushaklar), miozit, miopatoz, suyak sinishlari aniqlanadi.

Kurak-yelka bo'g'imida va oyoqning barcha qismi harakatida abduksiya bo'lishi, yelka bo'g'imi o'q orqa mushakida patologik jarayon borligidan darak beradi.

Aralash oqsash kasal oyoqda kasallikning boshlanishi davrida kurak elka bo'g'imida abduksiya va taktil sezuvchanligi o'zgarishidan tashqari ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'lmasa, kurak usti nervining shikastlanganligi oqibatidir.

Bilak nervi kasalligi – falajlanish va parezi klinikasiga guman qilinganda «tirsakni tekshirish» (umumiy xirurgiyada) o'tkaziladi.

Tovon (sakrovchi) bo'g'imi sohasini tekshirish. Tez-tez kuzatiluvchi va qiyin diagnostika qilinuvchi kasalliklar borligiga bog'liq holda (qoramollarda kollegenozlar, spastik parez, otlarda – shu bo'g'imning osteodistrofik kasalliklari) sakrovchi bo'g'imni chuqur tekshirish kerak. Kuzatish va palpatsiya usuli bilan shakli, teri butunligining buzilishi, sinovial burnalarning holati, mahalliy harorat, hajmining o'zgarishi va axill payining taranglashganligi aniqlanadi. Bo'g'imning ichki yuzasini paypaslab suyaklardagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Surunkali deformatsiyalangan osteoartroz shpatga tekshirish usuli bilan aniqlanadi. Axill payida qatlamlar kuzatilsa, paypaslash yo'li bilan tovon suyagi do'ngligi tekshiriladi (butunligi va yuza bukuvchi payning

holatiga ahamiyat beradi). Bo‘g‘imning olddingi qismini kuzatish va paypaslash orqali tendovaginit va bursitlarni aniqlash mumkin.

Boldir sohasini tekshirish. Kuzatish orqali terining butunligi va hajmi aniqlanadi. Palpatsiya usuli bilan fassiyalar, mushaklar, suyak va suyak qopqog‘ining holati aniqlanadi. Masalan, harakatlanish, og‘riq, krepitatsiya, to‘qimalar shishganligi kuzatilsa, katta boldir suyagining singanligiga gumon qilinadi.

Tizza bo‘g‘imi sohasini tekshirish. Kuzatish yo‘li bilan jarohat, shishganligi, shu qismining shakli o‘zgarganligi aniqlanadi. Paypaslab tizza qopqog‘i, bog‘lamlarining holati va uning joylashish vaziyati o‘zgarganligini bilish mumkin. Sumka kapsulasining olddingi, ichki parolasi va tizza qopqog‘ining pastki qismi maksimal taranglashgan bo‘lsa, tizza qopqog‘ining yuqoriga va yonboshga chiqqanligi belgisi bo‘ladи. Shilimshiq sumkalar (tizza osti), ularning anatomik joylashishini paypaslab, zarur bo‘lganda punksiya o‘tkazilib, bo‘g‘im kapsulasi yoki shilimshiq sumka suyuqligi olib tekshiriladi.

Tos-ton bo‘g‘imi va tos sohasini tekshirish. Kuzatish, paypaslash va tektal tekshirish usullari bilan tos suyaklaridagi patologik jarayonlar tekshiriladi. Oddiy palpatsiya bilan og‘riq reaksiyalari aniqlanadi.

Yuqoridagi usullardan tashqari, ayniqsa oyoqlarning distal bo‘limleridagi kasallikkarni diagnostika qilish qiyinlashgan taqdirda qayridagi usullardan foydalilanadi: nervlarni o‘tkazuvchanlik operatsiyalar va rentgen tekshirish, nervlarning o‘tkazuvchanligi va o‘sishchanligi buzilsa tok yordamida galvanizatsiya va faradizatsiya o‘saziladi.

Dundan tashqari otlarda maxsus tekshirish usullari: passiv harakat, shpat sinovi, tirsak sinovi va klin (pona) yordamida tekshirish usuli o‘llaniladi.

Passiv harakat usulida tekshirish

Oyoqdagi suyak, bo‘g‘im, bog‘lam va mushak-pay tizimlarida uchraydigan kasallikkarga diagnoz qo‘yish uchun qullaniladigan maxsus tizim tekshirish usuli hisoblanadi. Bu usul oyoqlarni bukish yoyish, o‘sishchanlishirish va yaqinlashtirish, shu bilan birga ayrim bo‘g‘imlarni o‘sibaima-navbat aylanma harakat qildirish yo‘li bilan hayvonlarda og‘riq reaksiysini aniqlashga asoslangan.

Shpat sinovi usuli

Nurunkali deformatsiyalaruvchi osteoartrit va osteoartroz bo‘limlariiga diagnoz qo‘yishda qo‘llaniladi, bunda asosan sakrash

bo‘g‘imida mustahkam biriktiruvchi to‘qimalarning o‘sishi va suyal to‘qimalarining emirilishi kuzatiladi. Bu kasallikni aniqlash uchun bo‘g‘imni oxirigacha bukish kerak. Kasal oyoqni shunday bukish kerakki hayvon tuyog‘i qorin devori pastki qismiga tegib turishi kerak. Shu holatda 3 minut saqlab turiladi, so‘ngra oyoq qo‘yib yuborilib ot choptiriladi. Agar oqsash kuchaysa unda sakrash bo‘g‘imida patologik jarayon kechayotganligidan dalolat beradi yoki aksincha.

Agar tizza va tos-son bo‘g‘imlarida ham patologik jarayonlar kechayotgan bo‘lsa ham oqsash kuchayadi, uni aniqlab ajratish maqsadga muvofiqdir.

Tirsak sinovi

Bilak nervi falajlanishiga diagnoz qo‘yib aniqlash uchun qo‘llaniladi. Buning uchun sog‘lom oldingi oyoq oldingga ko‘tariladi, hayvonning gavda og‘irligi kasal oyog‘iga tushadi. Shunda hayvon o‘zini oldingga yoki orqaga oladi. Bilak nervi falajlanishida oldin tirsak bo‘g‘imi, so‘ngra pastki bo‘g‘imlar bukiladi, agar ko‘tarilgan oyoq qo‘yib yuborilmasa hayvon yiqilishi mumkin. Bu bilak nervi va uning tarmoqlari boshqarayotgan tirsak, bilaguzuk va barmoq bo‘g‘imlari yozuvchi mushak va paylarida funksiyaning buzilganligidan dalolat beradi.

Klin (pona) yordamida tekshirish.

Bu usul mokisimon chig‘iri kasalliklariga diagnoz qo‘yishda qiyinchiliklar bo‘lganda qo‘llaniladi. Hayvonning kasal oyog‘i taxtadan qilingan uzunligi 25 sm va eni 15 sm bo‘lgan klin ustiga qo‘yiladi, bunda tuyoqning oldingi ilgich qismi klinning baland joyiga, orqangi qismi esa past joyiga qo‘yilishi kerak. So‘ngra yon sog‘lom oyoq ko‘tariladi. Bunda kasal oyoqning tuyoq bo‘g‘imi kuchli chuziladi, barmoqlarning chuqr bukvuchi paylariga og‘irlik ko‘proq tushishi natijasida klin mokisimon blokni kuchli qisa boshlaydi. Agar mokisimon chig‘irida patologik jarayonlar kechayotgan bo‘lsa, hayvon og‘riq sezib oyog‘ini tortib olishga yoki ikkala orqa oyog‘iga og‘irlikni tashlashga harakat qiladi. SHu oyoqni klin ustiga teskari yunalishga qilib qo‘yilsa, hayvon unga uzoq vaqt bezovtalanmasdan tayanib turishi mumkin.


Issiq vanna usuli.

Differensial (qiyyosiy) - diagnostika uchun bu usul yordamchi hisoblanadi. Oyoqning distal (pastki) qismidagi suyak, bog‘lam va pay kasalliklarini tekshirishda qo‘llaniladi. Pay va bog‘lam kasalliklarida 40 °S li issiq vanna qo‘llanilganda oqsash vaqtincha to‘xtaydi yoki kamayadi, suyaklarning yarim sinishlarida va osteoartrozlarda oqsash aksincha kuchayadi.

Tuyoqni tekshirish.

Ular dastlab tozalab yuviladi. Keyin kuzatish, paypaslash, urib ko'ribi, auskultatsiya va maxsus tekshirishlar yordamida tuyoq asosida strelkasi, tuyoqning yumshoq qismi, tuyoq devori, aylanasi, paychalar va tuyoq suyngi, taqaning to'g'ri qoqilganligi, mixchalari, erga qo'yilgan tuyoq shakli, deformatsiyasi, yot modda bor-yo'qligi, suyuqlik oqishi, quradagi aniqlanadi. Sinab ko'rvuchi tuyoq qichqichlari yordamida og'rik reaksiyasi va patologik jarayonning joylashishi aniqlanadi. Qisqichlar bilan dastlab sekin qisib, keyinchalik bosimini oshirish kerak. Og'riqan joy qisliganda oyoqni tortish reaksiyasi kuzatilsa, shu joyda patologik jarayon joylashganligidan dalolat beradi.

Qisqichning bir tomoni tuyoq devoriga, ikkinchi tomoni tuyoq asosiga qo'yiladi. Dastlab tuyoqning mix qoqiladigan joyi, keyin ichki qondurma, strelkani yonbosh va o'rta qismlarigacha tekshirib boriladi (16-rasm).



Tuyoqni qisqichi bilan tekshirish (16-rasm).

Panja va tushoq arteriyalarining pulsi paypaslab aniqlanadi. Arteriyalar pulsi tezlashgan, tuyoq aylanasining harorati ko'tarilgan bo'lisa, tuyoq ichida o'tkir yallig'lanish jarayoni kechayotganligidan darak beradi.

Mokisimon chig'irni tuyoq omburi, paypaslash va pona yordamida tekshirish – sinovchi qisqichning bir shoxi strelka o'rtafiga qo'yilib, ikkinchisini navbat bilan tuyoqning tashqi va ichki tomonlariga qo'yib tekshiriladi. Qisish yo'nalishini mokisimon blok tomonga qaratadi. Pona bilan tekshirishni yog'ochli to'g'ri burchakli, uzunligi 25 sm va kengligi 15 sm bo'lgan pona yordamida amalga oshiriladi. Og'riq reaksiyasi

mokisimon, chig'ir to'qimalarida patologik jarayon kechayotganligini bildiradi.

O'lchanadi.


Bu usul yordamida patologik jarayonlar, ya'ni jarohatlar, o'smalar, shishlar, tuyoq nuqsonlari va deformatsiyalaridagi o'zgarishlar, ko'z shox pardasining xiralashuvida, ularning katta-kichikligi o'lchanadi. Bundan tashqari bu usul patologik jarayonning oqibatini aniqlashga ham imkon yaratadi, ya'ni tekshirish natijalariga qarab patologik jarayonning yaxshilanayotganligi yoki yomonlashayotganligi muhokama qilinadi. O'lchanadida oddiy lenta, zond, sirkul va bintdan foydalaniлади. Jarohatlarni o'lchanada sellofan va qalamdan foydalaniлади. Bunda sellofan jarohat ustiga qo'yilib jarohat chegaralari qalam bilan chiziladi, so'ngra oldingi va keyingi chizilgan jarohat konturlari bir-biriga taqqoslanib jarohatning kichrayib yoki kattalashib borayotganligi va davolash muolajalarini samarasi aniqlanadi.

O'tkazuvchan anesteziya usulida tekshirish.


Bu usul asosan ot va yirik shoxli hayvonlar oyoq kasalliklarida hamda buqalar jinsiy a'zo kasalliklarida qo'llaniladi.

Intraartikulyar (bo'g'im ichiga), intrasinovial (sinovial parda ichiga), intrabursal (bursa ichiga) og'riqsizlantirish orqali patologik jarayonning joylashgan joyi oqsash holatiga qarab aniqlanadi. Og'riqsizlantiruvchi novokain suyuqligi bo'g'im bo'shlig'iga va pay qiniga yuboriladi.

Novokain yuborilgandan keyin oqsashning yo'qolishi yoki kamayishiga qarab patologik jarayon joylashgan joy aniqlanadi.



Yirik shoxli hayvonlarning oldingi oyoqlarida o'tkazuvchan og'riqsizlantirish.
1 – Bilak va teri lateral, 2 – o'rta, 3- tirsak, 4 – dorsal, 5 – dorsolateral
(17-rasm).



Volyar og'riqsizlantirish.
1 – Kafst volyar nervi,
2 – kafst chugur volyar nervi
(18-rasm)

Nervlarni og'riqsizlantirishda ignaning holati
1 – katta boldir teri plantar safina nervi, 2 – tizza va chugur kichik boldir nervi, 3 –tovonning dorsal nervi (19-rasm)

Katta boldir nervining anesteziyasi (20-rasm)



Zond yordamida tekshirish.

Hayvonlarda uchraydigan jarohat, tabiiy bo'shliqlar va oqma kanallarini diagnostik tekshirish usuli hisoblanadi. Zond yordamida jarohat kanalining yunalishi, devori va tubining holati va yot jismning bor yoki yuqligi aniqlanadi. Zondlash

uchun barmoq va metalldan yoki elastik jihozdan qilingan zondlardan foydalilanildi. Buning uchun zondlar to'plami kerak: po'latli (tuqimali, juyligi), ebonitli zondlar yordamida fistula va bo'shliqlar tekshiriladi.

Zondlashda ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish kerak. Ayrim hollarda oqma kanali, yiring bilan to'lgan jarohat,

qizilo'ngach, oshqozon, siydiq kanali va siydiq pufagi, bachadon, elin va burun yo'llari albatta zond yordamida tekshirilishi kerak. Aseptik kechayotgan bo'g'im, pay qinlari, ko'krak va qorin mintaqasi jarohatlariga, shuningdek toza otilgan jarohatlarga zond yuborish mumkin emas.

Zondlashning asosiy qoidalari: 1) Xirurg qo'li, zond va zond ko'llaniladigan joy dezinfeksiya qilinadi. 2) Tabiiy bo'shliqlar yaqin bo'lgan joylarga zond yuborishda juda ehtiyyot bo'lish kerak, aks holda uning devori yorilib ikkilamchi yo'l hosil bo'ladi, bu esa xato diagnoz qo'yishga sabab bo'lib, infeksiyaning rivojlanishiga olib keladi.

Hid.

Og'iz bo'shlig'ini (tish kariesi) yoki suyaklarni (aktinomikoz, tuyoli strelkasi raki va boshqalar) tekshirishda katta ahamiyatga ega. Tish kariesga uchrab chiriyotgan bo'lsa, emal muddasi yuqolib, qo'ng'ir yoki qoramtil dog'lar paydo bo'ladi, bu vaqtida hayvonning og'zidan qo'lanshid kelib turadi.

Intrarektal tekshirish. Tos bushlig'i organlari kasalliklar diagnostikasida qo'llaniladi. Bu usul yordamida tos suyagi, dumg'aza va bel umurtqalari sinishlari, gemaatomalar, qorin aorta trombozlari, abscess va o'smalar aniqlanadi.

Tekshirishdan oldin hayvonning dumi va anus (orqa chiqaruv teshig'i atrofidagi terisi sovun hamda dezinfeksiyalovchi eritma bilan issiq suvdan yuviladi. So'ngra tiroqlar kalta qilib olinadi, qo'llar yaxshilab yuviladi. Dezinfeksiya qilinadi. Qo'lga vazelin va moy surtiladi yoki maxsus rezim qo'lqop, bo'lmasa selofanli englik kiyiladi. Hayvonlar keng issiq binolarda tekshiriladi.

Rentgen usulida tekshirish.

Klinik belgilari uncha aniq bo'limgan suyak kasalliklari (sinish periostit, ostit, osteomielit, suyak va tog'ay to'qimalarining nekrozi, artrit, osteoartrit, osteoartroz, ankiloz, Bo'g'im chiqishlari), shu bilan bir yumshoq to'qimalarning suyaklashuvi va yot jismlar rentgen usul yordamida aniqlanadi.

Laborator-diagnostik tekshirish.

Bu usul chuqruda joylashgan patologik jarayonlarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Buning uchun kuyidagi operatsiyalar amaly oshiriladi:

1. Abscess, gemaatoma, limfoekstravazat, assit, plevrit, perekarditis kasalliklarini bir -biri bilan qiyoslash uchun namunali (probali) teshilad

2. Burun va peshona bo'shliqlarida o'smalar bo'lganda trepanatsiya olaziladi;
3. Darmoqning chuqur bukvuchi payida nekroz, mokisimon chig'irda yiringli bursit va tuyoq bo'g'imida yiringli artrit bo'lganda tuyoq strelkasi qol yilab kesiladi;
4. O'sma va onxotserkozga diagnoz qo'yilganda biopsiya olinadi.

Laboratoriya tekshirishlari.

Diagnozni tasdiqlash va kasal hayvonning umumiy holati to'g'risida yiling, differensial diagnoz uchun o'smalar, parazitar kasalliklarni qidish uchun teri bo'lakchasi, organizmni reaktivligi, immunobiologik testi va regenerativ-tiklanish jarayonlarini aniqlash uchun jarohatdan olib, bo'g'imdan suyuqlik va organizmning himoya funksiyasini aniqlash uchun qon olinadi.

Tekshirish uchun, yiringli o'choqdan mikroblarni aniqlash uchun yiting, differensial diagnoz uchun o'smalar, parazitar kasalliklarni qidish uchun teri bo'lakchasi, organizmni reaktivligi, immunobiologik testi va regenerativ-tiklanish jarayonlarini aniqlash uchun jarohatdan olib, bo'g'imdan suyuqlik va organizmning himoya funksiyasini aniqlash uchun qon olinadi.

Dekteriologik tekshirish.

Bu tekshirish usuli patologik jarayonlardagi mikroblarni patogenligi virulentligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Tekshirish uchun yiling, lanish jarayonlaridan jarohatnozli yiring va shikastlangan qimalardan parchalar olinib tekshiriladi.

Oyoqlarni tekshirishdan oldin to'liq anamnez olinadi: kasallik paydo bo'lgan yuqt, kelib chiqqan sharoit, kuzatilgan kasallik belgilari, kasallik belgilari boshlanguncha va undan keyin hayvonda qanday o'zgarishlar beradi; kasallik boshida kasallik davrida va oxirida oqsash qaysi jarajada ko'rindi; davolanganligi va uning natijasi, degan savollarga javob topishi kerak, hayvonning tana harorati, pulsi, nafas olishi va shilliq gondalarining holati aniqlanadi. Shundan keyin oyoq kasalliklarini har xil qol qo'llab diagnoz qo'yishga kirishiladi.

III BOB. QORAMOLLARDA BARMOQLAR YIRINGLI NEKROTIK JARAYONLARINI KELTIRIB CHIQARUVCHI ETIOLOGIK OMILLAR, ULARNI PATOGENETIK XUSUSIYATLARI

Sigirlar barmoq sohasi yiringli-nekrotik jarayonlarni uchrar darajasi.

Respublikamiz hududida yangi tashkil etilgan chorvach xo'jaliklarida hayvonlarni yangi tipda saqlash, oziqlantirni parvarishlashda zoogigiena talablarining buzilishi bir qancha yuksalliklarni kelib chiqishiga asosiy sabab bo'lishi kuzatilmoqda. Bunda tashqari, keyingi vaqtarda mintaqamizda ekologik muvozanatni buzilishi, tuproq, suv va o'simlik tarkibining buzilishi ham turli xilda jumladan turli barmoq kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo'lmoida.

Veterinar ortopediya jarrohlikning katta va muhim bo'lisoblanadi. U qishloq xo'jalik hayvonlari barmoq va xususan tuy sohasidagi kasalliklar etiologiyasini, diagnostikasini, davolash va oldolish chora-tadbirlarini, tuyoqlarni taqalashni o'rganadi. Veterinar ortopediya mustaqil bo'limga ajratilishi tuyoqlarning anatomi-fiziologichususiyatlari va ular nisbatan tez-tez zararlanishidan kelib chiqadigan tuyoq patologiyasining o'ziga hosligi bilan bog'liq. Tuyoq kasallik katta va kichik chorvachilik xo'jaliklarda sezilarli ravishda tarqali tufayli, veterinar ortopediya boshqa klinik fanlar orasida muhim o'megallaydi [25; 132-b].

Barmoq va xususan tuyoq kasalliklarini o'rganishda zamona veterinar ortopediya nafaqat hayvonlar yashaydigan mintaqalarni, balki ularni saqlash usullarini (bog'lovli, bog'lovsiz yaylov sharoitida saqlanish) hamda chorvachilikning texnologiyasini hisobga oladi, chunki kasalliklarning o'ziga xosligi odatda ko'rsatilgan omillar bilan tig'iz bog'liqidir.

Tuyoq patologiyalarini hamda ularni jarrohlik yo'li bilan davolash uchun tavsija etiladigan usullarni yaxshiroq tushunish maqsadida qishloq xo'jalik hayvonlar barmoqlarining topografik anatomiyati, to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lish kerak, chunki aksariyat turli kasalliklarda nafaqat alohida anatomik elementlar balki atrof to'qimasi ham zararlanadi [25; 132-b].

Ayrim mualliflarning keltirgan ma'lumotlariga qaragan barmoqlarning yiringli-nekrotik shikastlanishlari har yili 5-10 hayvonlarda kuzatiladi [149 ; 84-86-b.].

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi, bo'rdoqichilik xo'jaliklarda oyoqlar distal qismining kasalliklari tez-tez qayd etilib, bu uchinchida navbatda hayvonlarni saqlash sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. Sutchilik xo'jaliklarda esa oyoq va ayniqsa barmoq kasalliklari yuqumsiz kasalliklarning 20% ini tashkil etadi. [16; 136-b, 83; 1256-1258-b, 88.; 78-86-b, 92; 156-157-b, 94; 260-b, 108; 69-70-b, 98; 47-50-b, 109; 84-85-b, 152; 4-23-b, 153; 23-b, 154; 27-29-b.].

Xorij adabiyotlarida ta'kidlanishicha, mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda keyingi 30 yil ichida oyoqlarning distal qismi kasalliklari asosiy muammolardan biri bo'lib, oqibatda kasallangan sigirlarning 50 foizi muddatidan oldin so'yilmoqda va bu xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy keltirmoqda. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyoqning shikastanishi jami oyoq kasalliklarning 50-60% ni yoki jarrohlik patologiyasining 14-17% ini tashkil etadi [26; 200-b.]. Keyingi yillarda oyoq kasalliklari oqibatida muddatidan oldin hisobdan chiqariladigan sigirlar 4-15,3% ni tashkil etmoqda [157; 44-b.]. Rossiya va boshqa xorij mamlakatlarda yirik shoxli hayvonlarda oyoq kasalliklarning ancha to'payganligi qayd etilmoqda. Shvetsiya va Angliyada 74% va 55% hayvonlarning oyoq kasalliklari oqibatida so'yilishi qayd qilingan [209; 11-b.].

Ayrim mualliflar [28; 10-11-b.] Evropa mamlakatlarda hayvonlarning hisobdan chiqarilishining asosiy sabablaridan biri oyoq kasalliklari ekanligini ta'kidlaydilar. Niderlandiyada oyoq kasalliklari maslit va bepushtlikdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Irlandiya chevachiligidagi ilg'or texnologiyaning kiritilishi hayvonlar o'rtasida oqsashining (54%) oshishiga sabab bo'lgan. Shvetsiyada oqsash oqibatida 4%, Germaniyada 3% va Niderlandiyada 2% dan ortiq sut beradigan sigirlar hisobdan chiqarilmoqda. Keyingi 10-15 yil ichida Janubiy Ural, Chelyabinsk, Kurgan viloyatlari, Qozog'istonning Kustanay viloyati ferma va komplekslarida sigir sonining kamayishiga qaramasdan, oyoq shikastanishi 20-50% ga oshganligi qayd qilingan. Mualliflarning [16; 38-40-b.], [117; 10-b.] ma'lumoti bo'yicha har uchta sigirdan bittasi oyoq deformatsiyasi yoki oqsash oqibatida hisobdan chiqariladi. Tuyoq deformatsiyasi va uning kasalligi oqibatida har kunlik sut 3,3-4,5 kg bo'maydi va hayvonlarning umumiyligi ahvoli yomonlashadi.

Tadqiqotchi o'zining ilmiy izlanishlarida sigirlarda yiringli pododermatiting tarqalishini batafsil o'rganib, sutchilik kompleksidagi 730 bosh sigirlardan 226 bosh (30,9%) tuyoq kasalliklari bilan

kasallangan bo‘lib, 81 bosh hayvonda esa (35%) yiringli pododermal jarayoni kechayotganligini aniqlagan [65; 28-b.].

B.M.Olivkov (111; 456-b, 112; 48-b) buyicha barmoq bukuval chuqur payining yirtilishi 18,69% va 14,9% barmoq yozuvchi yuza par uzelishi, suyaklararo uchinchi muskul uzelishi 11,21% , barmoq yozuvchi umumiy payi uzelishi 3,7% xollarda kuzatilidi. Barmoq bukuvchi pay tendiniti 18% , yozuvchi payini tendiniti esa 9% ni tashkil qildi. Tendin va tendovaginitlarni tug‘ri davolash va oldini olish ularni chaqirga sabablar, patogenez va simptomologiyasini aniqlash veterinariy mutaxassisligi oldida katta muammo bulib qolmoqda.

Xorijiy va mahalliy olimlarning ta’kidlashicha, oyoqlar kasalliklari yuqumsiz kasalliklarning umumiy miqdoriga nisbatan 40% ni tashkil qildi va u asosan jarohat, bo‘g‘im-paylar cho‘zilishlari, tuyoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Oyoqlar distal bo‘limi kasalliklari natijasida nasldor hayvonlardan foydalani muddati qisqaradi va mahsuldarlikning keskin kamayib ketishi oqibatda katta iqtisodiy zararga sabab bo‘ladi. [85; 123-132-b., 64; 66-67-b., 21 576-580-b., 204; 7-13-b., 202.; 123-131-b., 205; 275-277-b., 220; 34-31 b., 213; 273-281-b., 185; 369-374-b., 190; 103-108-b., 200; 521-b, 20 277-294-b., 208; 189-190-b., 187; 311-316-b.].

Respublikamizdagi qoramolchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda oyoq bo‘g‘inlarida va tuyoqning turli yallig‘lanishlarni keltiruvchi chiqaruvchi asosiy omillardan biri paxtani qayta ishlash natijasida olinadigan oziqalar tarkibidagi gossipol bo‘lib, u organizmda toksik allergik holatni yuzaga keltiradi, natijada moddalar almashinu jarayonini buzilishiga, immunobiologik xususiyatlarni pasayishiň oqibatda bo‘g‘indagi sinovial pardasi va uning atrofidagi to‘qimalarida kuchsiz shikastlanishlar ham yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishu sabab bo‘ladi.Xirurgik kasalliklar orasida oyoqlar distal qisqa bo‘g‘inlarning kasalliklari bo‘rdoqichilik va sutchilik xo‘jaliklarida ketarqalgan [171; 313-316-b, 116; 58-60 b, 162; 16-18 b,47; 72-b] bo‘lgan bu patologiyaning kelib chiqishiga asosan hayvonlarni saqlash oziquantirishdagagi etishmovchiliklar (hayvonlarni tiqis saqlash, matsion to‘shamalarning etishmasligi, pollarning notekisligi va ifloslanganli tuyoqlarni o‘z vaqtida tozalab va kesib turmaslik, terining matseratsiyalar ratsionlarning oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar bo‘yicha nomutanosibligi sabab bo‘ladi.

Ayrim mualliflar [17;138-b] ma'lumotiga ko'ra oyoq kasalliklari xo'jaliklarida sog'in sigirlarning barcha yuqumsiz foizlarning 20 foizini tashkil etadi.

Xo'jaliklarda kasal hayvonlar oyoq kasalliklarini umumiylar maxsus tekshirish usullari yordamida tekshirilganda pododermatitlar 39% ni, tuyyoqlar oraliq'ida dermatitlar 31% ni, tovonning yiringli-nekrotik yarasi 14% ni, gultoj flegmonasi 7% ni, tuyyoq va yumaloq bo'g'in artriti 7% ni, yumshoq tovon flegmonasi 2% ni tashkil etdi. [102; 143-147-b].

Olimlar tomonidan o'tkazilgan xirurgik dispanserlash natijalarida tekshirilgan sigirlarning 17,5 foizida tuyyoqlar yiringli-nekrotik yarasining turli darajali zararlanishlari qayd etilgan [42; 40-45-b].

Doshqa ayrim tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, CHelyabinsk viloyatidagi ayrim chorvachilik xo'jaliklari sharoitidagi sigirlarda tovonning yiringli-nekrotik turli darajali zararlanishi 8,3- 28,4 foizni tashkil etganligi aniqlangan [176; 60-63-b].

A.M.Beloborodenko tomonidan o'tkazilgan tajriba va tahlillar shuni o'snatdiki, sigirlar podasining umumiylar soniga nisbatan 20,3-36,6% ida foizlarning kasallanishi kuzatilib, ularning o'rtacha 44,2 foizi xo'jalik hisobidan chiqarilgan [21; 44-50-b].

Tadqiqotchilarining kuzatishlariga ko'ra, chorvachilik komplekslariga keltirilayotgan g'unajinlarning 30% tuyyoqlar deformatsiyasi va tez destruksiyasi qibatida urug'lanish darajasi past bo'lishi bilan bog'liq ravishda hisobdan chiqariladi [125; 131-136-b., 176; 50-53-b.].

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yirik shoxli hayvonlarni majburiy hisobdan chiqarishning asosiy sabablaridan biri shoxchilik ekanligi aniqlangan [74; 23-27-b., 100; 19-22-b., 101; 49-51-b., 103; 57-b., 104; 41-42-b., 105; 34-35-b.]. Mualliflarning ko'rsatishicha, bunday holat, asosan sigirlarda kuzatilib, ularni hisobdan chiqarish esa olib oldorlikni pasayishiga olib keladi.

U yoki bu xo'jaliklarda saqlanadigan hayvonlar orasida tuyyoq foizlarning tarqalishi nafaqat g'ayritabiyy, yomon saqlash sharoitlari chorvachilik binolaridagi yuqori namlik va harorat, pollarning noto'g'ri hozimetsiyasi va ifloslanishi, yaylovnning notekisligi va turli o'tkir shaxslardan bilan ifloslanishi va shunga o'xshashlar) balki tuyyoqlar tegishli va doimiy parvarish qilinmasligi bilan bog'liq. Bunday holatlarda hayvonning tuyyoqlari asta sekin deformatsiyaga uchraydi vauzunchoq, patologik shaklni egallaydi.Tuyoqlarning bunday patologik shaklida ular muronda ishqalanmaydi, natijadapay-paycha apparati cho'ziladi va

nixoyat yallig‘lanish jarayoni rivojlanadi, og‘riq va oqsash paydo bo‘lad Bunday tuyoqlarga ega sigirlar 10% gacha sut, bo‘rdoqiga boqiladig buqalar esa 20–30 kg gacha go‘sht mahsuldorligini yo‘qotadi (162; 16 18-b, 47; 72-b.].

Ma’lumki, qishloq xo‘jalik hayvonlarning yuqumsiz kasalliklakushер ginekologik va xirurgik kasalliklar bilan birgalikda barcha kasalliklarning o‘rtacha 94-96 foizini tashkil etadi. Bu kasalliklar paytdi iqtisodiy zarar mahsuldorlikning keskin kamayishi, hayvonlarni barva podadan chiqarish, majburiy so‘yish va hayvonlarning o‘limi hisobiga kuzatiladi.

Podani sog‘lomlashtirish va hayvonlar mahsuldorligini oshirishda barcha yuqumsiz kasalliklarning 40 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan xirurgik kasalliklarni samarali davolash, oldini olish katta ahamiyati ega. Bu kasalliklarning asosiy qismini oyoqlarning turli kasalliklari tashkil etadi. [171; 313-316-b.]

Golshtin-friz zotiga mansub sigirlar barmoq sohasida yirinpli nekrotik jarayonni uchrash darajasi hamda patologik o‘zgarishlari o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchining ma’lumotlariga ko‘ra, ortopediyalar adaptatsiya muddati bir yil bo‘lgan 13,26% sigirlardan uchragan, shulardan 75% barmoq sohasidagi turli kasalliklarni, 25% tuyoq deformatsiyasini tashkil etgan. Jarrohlik jarayonlaridan 55,50% yara, 33,33% pododermatitlar, 11,11% tilomalar hisoblanadi [158; 16 b., 165; 289-295-b.].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlarida ayrim nosog‘lochorvachilik xo‘jaliklarida barmoq kasalliklarning hayvonlar orasida 60 foizgacha tashkil etishi, ayniqsa yuqori mahsuldorlikga hayvonlarning zararlanishi, kasallangan hayvonlarning xo‘jalik qiyin mahsuldorligi va tana vaznining pasayib ketishi kabi salbiy oqibatlar aniqlaganlar [124; 138-141-b., 82; 80-81-b., 177; 138-140 -b., 161; 30 311-b., 91; 28-31-b., 49; 114-118-b., 50; 80-81-b., 30; 41-43-b., 31; 35-b., 35; 27-b., 32; 39-41-b., 33; 10-11-b., 34; 139-142-b., 95.; 38-40 b.].

V.N.Bannikovning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi: xo‘jaliklarda 20% dan 40% gacha sigirlarda oyoqlar distal bo‘limini turli etiologiyali kasalliklari mavjud bo‘lib, hayvonlar mahsuldorligi sezilarli darajada pasaytiradi. Kasallik etiologiyasi va davomiyligi bilan bog‘liq ravishda sut mahsuloti 35% dan 65% gacha yo‘qotiladi [15; 16-b.].

Xorijiy bir qator olimlarning ilmiy ishlarida qoramollarda oyoq kasalliklari keng doirada tarqalganligi va chorva mollariga katta iqtisodiy zarar etkazishi qayd etilgan [79; 41-67., 94; 260-b., 45; 349-b. 181; 113-114, 212; 441-445., 217; 350-359-b., 218; 166-178.].

Ayrim mualliflar [57; 55-57-b., 77; 52-57] malumotiga ko'ra, yil davomida komplekslardagi qoramollarda tuyoq kasalliklari chorva mollarining 40,00%, sanoat tipidagi molxonalarda esa 90,00% gacha kuzatiladi. SHu sababli, sut-tovar fermalarida birinchi o'rinnlardan birini uzallagan oyoq va tuyoqlarning shikastlanishi hayvonlar kasalliklarining u'tkir muammosiga aylanmoqda.

Ayrim olimlar [122; 54-57-b.] ta'kidlashicha, yuqori mahsuldor qo'sha zotli sigirlarning kasalliklari ixtisoslashgan sanoat xo'jaliklari uchun u'tkir muammo bo'lib qolmoqda, chunki ular chorva mollariga katta iqtisodiy zarar etkazadi, bu har bir laktatsiya davrida 400 kg gacha va 200 g gacha sutkalik vaznnipasaytiradi, hayvonlarni erta hisobdan chiqarish yahayvonlarning naslchilik qiymatini kamaytiradi.

Xorijiy olimlar [155; 132-136.] ma'lum qilishicha, chorvachilikda intensiv usullarni kiritilishi, tuyoq patologiyasi barcha oyoq kasalliklarining 55,00 -60,00% niyoki jarrohlik patologiyalarining 14,00-17,00% ni tashkil qildi.

Ayrim mualliflar [137; 2-b.] ning ta'kidlashicha tadqiqot o'tkazilgan jaliklarda sigirlarning jarrohlik kasalliklari keng tarqalganligi va kasallanishning 84,00% ni tashkil etishini aniqlandi. Shu bilan oyoq kasalliklari umumiyligi jarrohlik kasalliklarining 76,00% ni tashkil qildi.

Tadqiqotchilarining [156; 33-35] ko'rsatishicha sigirlarda tuyoq kasalliklari sutchilik fermalariga katta zarar etkazib, hayvonlarni davolash uchun parvarishlashga xarajatlarning oshishi, 305 kunlik laktatsiya davrida oqsoq sigirlarda (300 -1500 kg) sut kamayishi, servis umumiyligining 28 kunga ko'payishi, oyoq kasalliklari tufayli hayvonlarning umumiyligi (20,00-15,00%) nobud bo'lishi kuzatiladi.

Mualliflarning [179; 24-26-b., 180; 37-b.] ta'kidlashicha, "SP Saburovo" Orel viloyatida tuyoqlarning dominant kasalliklari - bu dermatitlararo dermatiti (44,60%) ni, pododermatit (20,11%) ni, tuyoq jumashiq tovoniva tuyoqning yiringli-nekrotik yaralari (14,81%) ni, buning hollarda gul tojining flegmonasi (4,81%) ni, tuyoq bo'g'imining umumiyligi 3,71% ni tashkil etishi qayd qilingan.

Olimlar [44; 30-32-b.] ma'lumotlariga ko'ra, ayrim fermer jaliklarda sigirlarning 15,00% gacha yiringli-nekrotik shikastlanishi

qayd etilgan, bu esa buzoq olishni 17,00% ga, sut ishlab chiqarishni 24,28% ga va tana vaznining kamayishiga, tug'ruqdan keyingi davrni cho'zilishigava urug'lantirish sonining ko'payishiga olib keladi.

ZAO «Plemxoz im Telmana» da oyoqning distal qismi kasalliklari keng tarqalganligi aniqlangan [71; 19-b.]. Sigirlarda oyoq patologiyalari yuqumsiz kasalliklarning 29,00-35,00% nitashkil etishi qayd qilingan. Oyoq patologiyalari buzoqlarda ham 7,00 -10,00% ni tashkil etadi. Qoramollarda oyoq patologiyalari tufayli fermer xo'jaliklariga ko'prosib, iqtisodiy zarar etkaziladi [78; 17-20-b., 24; 40-41-b.], bu yuq mahsuldar hayvonlarni muddatidan oldin majburiy ravishda hisobga chiqarishga olib keladi.

Ushbu guruhdagi bir boshida oldingi chap oyog'ida va bir boshida o'ng oyog'ida tuyeqning yiringli pododermatit jarayolari hayotgan hayvonlarda davolashning 3-kunlarida barmoqlar pasiyva va passiv harakat qilinganda klinik belgilari quyidagicha bo'ldi: tuyeq qattiq tovonining ichki qismi jarohatlangan, yuqori sohasi shishgan, ogriqli flyuktuatsiya beradi. tuyeq tovoni pardasi shikastlangan joyi nekrozga uchrab qoraygan, uning teri

asosi va atrof to'qimalari shikastlangan. Qoramolla shikastlangan oyoqlarining bo'g'imlarini biroz bukan holatda tuyoqning uchki qismiga bosib turibdi. Hayvonlar harakatlanganda oyoqlarini bermalol uzatib tayanganda kuchli oqsaydi. Ayrim hayvonlarda patologik uchok ochilib, uning ichidan suyuq yashil kulrang yiring oqayotganligi va atrof to'qimalarida yalliglanishga xususiyatli qizarish va shishlar paydo bo'lgan.

Hayvon umumiy poda bilan birga yurib oziqlanadi. Sigirda 2-3 darajali oqsash paydo bo'lganda uning umumiy holati yomonlashib, bukchayib holsizlangan, oriqlagan, sut mikdori keskin kamayib umumiy harorati 1^oS ko'tarilgan.

Shikastlangan tuyoqlar klinik tekshirilganda tuyoqlarning ilgich qismida va devorlarida qattiq og'riq bo'lib, tuyoq devorlari va ayniqsa tuyoq tovonida mahalliy harorat kuzatilib, paypaslaganda va tuyoq qisqichi bilan qisib ko'rildi ganda kuchli og'riq seziladi.

Davolashning 6 - kuniga kelib tuyoq yuqori sohasi shish ozros kamaygan, ogriqli, tuyoq tovoni shox pardasi teri asosi jarohati va atrof to'qimalarida qoraqo'tir hosil bo'layotganligi qayd etildi. Qoramolla shikastlangan oyoqlarining bo'g'imlarini biroz bukkan holatda tuyoqning uchki qismiga bosib turibdi. Hayvonlar harakatlanganda oyoqlarini bermalol uzatib tayanganda oqsaydi. Hayvonlarda patologik uchokdan yiring ajralishi kamaygan va atrofida yalliglanishga xos qizarish va shishlar pasaygan.

Davolashning 11-kunidan boshlab ushbu guruh hayvonlarining klinik belgilariida ijobjiy o'zgarishlar kuzatilib, hayvonlardagi patologik uchokdan yiring ajralishi to'xtaganligi va atrofida yalliglanish va qizarish hamda shishlar kuzatilmadi. Tuyoq tovonidagi nuqsoni quruq yosh granulyasion to'qima bilan qoplangan. Tuyoq tovoni shox pardasi teri asosi jarohati va atrof to'qimalarida qoraqo'tir kichrayganligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda oqsash biroz saqlanib qolganligi qayd etildi.

Davolashning 16-kuniga kelib hayvonlarning umumiy holat qoniqarli bo'lib, ularning ishtahasi yaxshi puls va nafas olishi fiziologich me'yordarajasida ekanligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlatrilganda oqsash deyarli sezilmaydi. Tuyoq tovonidagi nuqsoni quruq, shox pardasining o'sishi hisobiga patologik nuqson hajmi kichrayilib shikastlangan tuyoqlar funksiyasi va tuzilishi me'yordaraja me'tiklanganligi qayd etildi.

Ikkinci tajriba guruh hayvonlari barmoq va tuyoqlari tozalanib qirqildi hamda yiring va o'lgan to'qimalar xirurgik yo'l bilan tushlandi, so'ngra 5% li formalin bilan vanna qilindi, yiring qalishi to'xtagandan keyin 10% li katozal immunostimulyatoridan vena toiniriga 25 mldan har 48 soatga bir marta jami uch marta yuborildi, 10 ml 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin 4 ml aralashtirilib muskul ichiga yuborildi va oksitetratsiklin+streptotsid+yodoform (0,2 nisbatda) lar so'rilihini tezlashtirish uchun dimeksid fuflashtiruvchi vosita surkaldi, so'ngra kukunlar patologik o'choqga surkalib mahkam qilib bog'lam qo'yildi.

Ikkinci tajriba guruhidagi barmoqlararo dermatit bilan usallangan bir bosh hayvonda davolashning 3-kunlarida barmoqlar tuyogchalararo teri qizil-sariq rangda bo'rtib chiqqan, tuyoqning gultoj sohasi qizarib, yumshoq tovon yuqorisidagi barmoqlararo terilarning urkulyar shishganligi va mahalliy haroratning oshganligi yaqqol namoyon bo'ldi, davolashning 6-7-kunlarida yallig'lanish jarayonining eng pasayishi kuzatilib, bunda barmoqlar oralig'idagi shish shishhib, elastikligining tiklanganligi, teri burmalarning ancha kichiklashganligi aniqlandi. Bu vaqtida oqsash kamayganligi uchun davolash paytida hayvonlar yurgizila boshlandi. Shikastlangan barmoqlarda passiv harakat usullari qo'llanilganda barmoq erkin va og'riqli ekanligi qayd etildi.

Davolashning 10-kunidan boshlab barmoqlararo dermatit bilan usallangan hayvon klinik tekshirilganda, patologik nuqsoni quruq, yosh granulyasion to'qima bilan qoplangan, barmoqlar oralig'idagi teri formalinining ancha kichiklashganligi atrofida shish deyarli polmag'anligi, barmoqlar palpatsiya kilinganda uning elastikligi ancha polmag'anligi va barmoqlar bajaradigan funksiyasi tiklanganligi aniqlandi. Ushbu guruhdagi barmoqlararo dermatit bilan kasallangan hayvonlarda davolashning 16-kuniga kelib barmoqlar oralig'i teri bo'shini va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi qayd etildi.

Davolashning 3-kunlarida barmoqlar palpatsiya va passiv harakat qilinganda ushbu guruhdagi 2 bosh hayvonlarning bir boshida orqa o'ng qabir hoshida orqa chap va o'ng oyoqlarida yumshoq tovon flegmonasi jarayonidagi klinik belgilari quyidagicha namoyon bo'ldi: yumshoq tovon sohasi diffuz hujayrali infiltratsiya natijasida kattalashgan, bu payda yiringli o'choqlar paydo bo'lib, ular birlashib, katta yiringli

o'choqni hosil qilib, katta yaraga aylangan. Yara yumshoq tovon chegarasida, terida, tuyeq aylanasining tovon qismida hosil bo'lgan.

Kasal hayvon kuchli oqsab, tuyog'ining old qismiga tayanib turadi harakatda esa oyog'ini avaylab uni ohista bosadi, ovqatdan qolishi umumiy haroratining 40°S oshganligi qayd etildi. Kasallik boshida tuyeq tovoni qizib, og'riqli, taranglashgan shish barmoq bo'yish tarqalgan, shish flyuktuatsiya hosil qilib, yorilishi oqibatida o'mid oqma hosil bo'lganligi va kulrang-sarg'ish yiring ajralib turdi kuzatildi.

Hayvonlarning shikastlangan barmog'ida 8-kunga kelib patolog jarayon atrofidagi shish kamaya boshladidi, passiv harakat usul qo'llanilganda og'riq saqlanib, sigirlar harakatlanganda oqsaydi, tindi turganda tuyog'ining old qismiga tayanib turadi, harakatda esa oyog'ini avaylab bosadi.

Tajribaning 14-kuniga kelib barmogida yumshoq tovon flegmonasi jarayonlari kechayotgan ushbu guruh hayvonlarining klinik belgilari ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Yumshoq tovonidagi nuqsoni quruq, yosh granulyasion to'qima bilan qoplangan. Kasal hayvonda shikastlangan barmoq atrofida shish yo'qolib teri elastikligi tiklandi, patolog o'choqdagi jarohatda qora qo'tir hosil bo'lib, barmoq to'qimalari elastikligi yaxshilangan, passiv harakatda barmoq bo'g'imlari anch erkin, og'riq ozroq qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda oqsad kuzatilmasada, ular oyoqlarini ozroq avaylab yurishlari namoyish bo'ldi, ammo davolashning 18-kunida bu holat biroz qayd etilgani bo'lsada, tajribaning oxirida bu holat kuzatilmadi.

Ushbu guruhdagi 2 bosh hayvonlarning ikkala orqa oyoqlarida tuyeqning yiringli pododermatit jarayolari kechayotgan hayvonlarda davolashning 3-kunlarida barmoqlar palpatsiya va passiv harakat qilinganda ularning klinik belgilari birinchi tajriba guruh hayvonlarining klinik belgilariiga o'xshab, jarohat tuyeq qattida tovonining ichki qismiga joylashgan bo'lib, tuyeq yuqori soha shishgan, ogriqli flyuktuatsiya beradi. tuyeq tovoni shox pardasi shikastlangan joyi nekrozga uchrab qoraygan, uning teri asosi va atrof to'qimalari shikastlangan. Ayrim hayvonlarda patologik uchok ochiladi uning ichidan suyuq yashil kulrang yiring oqayotganligi va atrof to'qimalarida yallig'lanishga xos xususiyatlari qizarish va shishlar paydo bo'lgan.

Birgurlarda 2-3- darajali oqsash paydo bo'lganda uning umumiy holati yomonlashib, bukchayib holsizlangan, oriqlagan, sut mikdori kuchki kamayib umumiy harorati 1°S ko'tarilgan.

Davolashning 6-nchi kuniga kelib tuyeq yuqori sohasi shish ozroq hamoygan, ogriqli, tuyeq tovoni shox pardasi teri asosi jarohati va atrof to'qimalarida qoraqo'tir hosil bo'layotganligi qayd etildi. Qoramollar shikastlangan oyoqlarining bo'g'imlarini biroz bukkan holatda tuyeqning uchki qismiga bosib turibdi. Hayvonlar harakatlanganda tuyanch oqsayıdi

Davolashning 11-kuniga kelib hayvonlarning umumiy holati tuyanch bo'lib, ularning ishtahasi yaxshi puls va nafas olishi fiziologik me'yor darajasida ekanligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlatirilganda tuyash deyarli sezilmaydi. Tuyeq tovonidagi nuqsoni quruq, shox pardasining o'sishi hisobiga patologik nuqson hajmi kichrayganligi qayd etildi. Ushbu guruhdagi tuyeqning yiringli pododermatit tuyayular bilan kasallangan hayvonlarda davolashning 14-kuniga barmoqlar oralig'i teri funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tilanganligi qayd etildi.

Uchinchi nazorat guruh hayvonlari an'anaviy usullarda, ya'ni barmoq va tuyeqlar tozalanib qirqildi hamda yiringdan tozalanib, o'lgan to'qimalar xirurgik yo'l bilan olib tashlandi, so'ngra 5% li bormalin bilan vanna qilindi, 0,9% li fiziologik eritma bilan bitsillin-5 aralashdirilib muskul ichiga yuborildi va sitratsiklin+streptotsid+yodoform (4:4:2 nisbatda) kukunlari patologik o'choqga purkalib mahkam qilib bog'lam qo'yildi.

Birinchi tajriba guruhidagi 2 bosh hayvon orqa o'ng va chap oyoqlarida barmoqlararo dermatit bilan kasallanganda quyidagi klinik belgilari namoyon bo'ldi:davolashning uchinchi kunidan boshlab barmoqlar atrofiga shish, qizarish va mahalliy haroratning oshganligi yaratildi.

Davolashning 3-kunlarida barmoqlar palpatsiya qilinganda, kuchli bo'lgan borligi, barmoq bo'g'imi kapsulasi taranglashib, qalinlashganligi tashlandi. YUmaloq va tushoq sohasi bo'rtib chiqqan, tuyeqning gultoj sohasida shish va mahalliy haroratning oshganligi yaqqol namoyon bo'ldi, davolashning 6-7-kunlarida barmoqlar oralig'ida shish va mahalliy harorat va terining pigmentlashmagan joyida qizarish saqlanib qolganligi, hayvon harakatlanganda esa oqsash namoyon bo'ldi.

Tajribaning 12-kunida yallig'lanish ozroq pasayib, bunda barmoqlar oralig'idagi shish kamaydi, elastikligi ozroq tiklandi, ter burmalarining esa kichiklashganligi qayd etildi. Qoramollar shikastlangan oyoqlarining bo'g'imlarini biroz bukkan holatda tuyoqning uchki qismiga bosib turibdi. Hayvonlar harakatlanganda tayanch oqsaydi Davolashning 17-kunidan boshlab barmoqlararo dermatit bilan kasallangan hayvonlar klinik tekshirilganda, patologik nuqsoni quruq, yosh granulyasion to'qima bilan qoplangan, barmoqlar oralig'idagi teri burmalarining ancha kichiklashganligi atrofida shish deyarli qolmaganligi, barmoqlar palpatsiya kilinganda uning elastikligi ancha tiklanganligi va barmoqlar bajaradigan funksiyasi tiklanganligi aniqlandi. Ushbu guruhdagi barmoqlararo dermatit bilan kasallangan hayvonlarda davolashning 20-kuniga kelib barmoqlar oralig'i ter funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi qayd etildi.

Davolashning 3-kunlarida barmoqlar palpatsiya va passiv harakat qilinganda ushbu guruhdagi 2 bosh hayvonlarda orqa o'ng va chap oyoqlarida yumshoq tovon flegmonasi jarayonlari klinik belgilari quyidagicha namoyon bo'ldi: yumshoq tovon sohasi kattalashganligi shikastlangan joyda yiringli o'choqlar paydo bo'lib, ular qo'shilib katta yiringli o'choqni hosil qilgan. Patologik o'choqda hosil bo'lgan yan yumshoq tovon va yumshoq tovon chegarasidagi terida, tuyog aylanmasining tovon qismigacha tarqalgan.

Kasalllik boshida tuyoq tovoni qizib, og'riqli, taranglashgan shish barmoq bo'ylab tarqalgan, shish flyuktuatsiya hosil qilib, yorilishi oqibatida o'rniда oqma hosil bo'lganligi kuzatildi

Davolashning 8-nchi kunga kelib, patologik jarayon atrofidagi shish o'zgarmagan, og'riq va barmoq bo'g'imi harakat chegaralanganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Sigirlar harakatlanganda oqsaydi, tinch turganda kasallangan oyog'iga to'liq tayana olmaydi tuyoqning old qismiga tayanib turadi, harakatda esa oyog'ini avaylat uni ohista bosadi.

Davolashning 13-kunida palpatsiya qilinganda barmoqning kapsula va bog'lamlar elastikligi asta-sekin tiklanganligi, passiv harakatlantirilganda uning erkin harakatlanishi va og'riq reaksiyasi saqlanganligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda oqsan saqlanib qolganligi va oqmdan suyuq yiring ajralishi aniqlandi.

Tajribaning 17-kuniga kelib barmogida yumshoq tovon flegmonasi jarayonlari kechayotgan ushbu guruh hayvonlarining klinik belgilari

ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshladi. Yumshoq tovonidagi patologik jarayondagi nuqson quruq, yosh granulyasion to'qima bilan qoplanayotgani aniqlandi.. Kasal hayvonda shikastlangan barmoq atrofi palpatsiya qilinganda shish pasayib teri elastikligi tiklanayotganligi, patologik o'choqdagi jarohatda qora qo'tir hosil bo'layotganligi, bormoq to'qimalari elastikligi yaxshilanib, passiv harakatda og'riq ozroq qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda shikastlangan oyoqlarda oqsash kuzatilmasada, ular shikastlangan oyoqlarini ozroq avaylab yurishlari namoyon bo'ldi, ammo davolashning 24-kunida bu holat biroz qayd etilgan bo'lsada, tajribaning oxirida barmoqlar funksiyasi va tuzilishi me'yor darajasiga tiklanganligi qayd etildi.

Ushbu guruhda 1 bosh hayvonning orqa chap oyog'ida tuyeq viringli pododermatit jarayonlari kechayotganda davolashning 5-kunlurida tuyeq qattiq tovonining ichki qismi jarohatlanganligi, tuyeq yugori sohasi shishgan, og'riqli bo'lib, tuyeq tovoni shox pardasi shikastlangan joyi nekrozga uchrab qorayganligi, atrof to'qimalari shikastlanganligi aniqlandi. Sigir shikastlangan oyog'ining bo'yimlarini biroz bukan holatda tuyeqning uchki qismiga bosib turibdi. Hayvon harakatlanganda tayanch oqsaydi. Patologik uchok bilib, uning ichidan suyuq yashil kulrang yiring oqayotganligi va atrof to'qimalarida yalliglanishga xos xususiyatli qizarish va shishlar paydo bo'lgan.

Sigirda 2-3-darajali oqsash paydo bo'lganda uning umumiy holati romonlashib, bukchayib holsizlangan, oriqlagan, sut mikdori kamayib umuniy harorati 1⁰S ko'tarilgan.

Davolashning 11-kunidan boshlab ushbu guruh hayvonlarining boshdan yiring ajralishi to'xtaganligi va atrofida yalliglanish va qizarish hamda shishlar kuzatilmadi. Tuyoq tovonidagi nuqsoni quruq, yosh granulyasion to'qima bilan qoplangan. Tuyoq tovoni shox pardasi atrof jarohati va atrof to'qimalarida qoraqo'tir kichrayganligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda oqsash saqlanib qolganligi qayd etildi.

Davolashning 18-kuniga kelib hayvonlarning umumiy holati bo'lib, ularning ishtahasi yaxshi puls va nafas olishi fiziologik me'yor darajasida ekanligi qayd etildi. Hayvonlar harakatlantirilganda shish deyarli sezilmaydi. Tuyoq tovonidagi nuqsoni quruq, shox pardasining o'sishi hisobiga patologik nuqson hajmi kichrayib,

hayvonda oqsash deyarli bo'lmasada, shikastlangan tuyog'ini avaylab yurishi qayd etildi.

Xulosa o'mida ta'kidlash joizki, barmoq sohasida kuzatilgan yiringli nekrotik jarayonlarning klinik belgilari bevosita kasallik turi va uning darajasiga qarab klinik belgilarni namoyon qildi hamda tuzalish vaqtin ham bir biridan keskin farq qildi ya'ni barmoqlararo dermatit bilan kasallangan birinchi guruh hayvonlarida davolash o'rtacha 18 kun, ikkinchi guruhda 16 kun va uchinchi guruxda 20 kun, yumshoq tovon flegmonasi bilan kasallangan birinchi guruh hayvonlarida davolash 21 kun, ikkinchi guruhda 18 kun va uchinchi guruxda 24 kun davom etgan bo'lsa, yiringli pododermatit bilan kasallangan hayvonlarda esa shunga mos ravishda, 16, 14 va 18 kun davom etdi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, barmoq va tuyoqlardagi funksiyalarining morfologik to'liq tiklanishi davolash tugatilganidan ancha keyin kuzatildi.

Gematologik ko'rsatkichlar

Bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarida punktatni bakteriologik va sitologik tekshirish natijalari katta ahamiyat kasb etadi. Qondagi gemoglobin va eritrotsitlar miqdorining kamayishi, eritrotsitlar cho'kishi tezligining (ECHT) oshishi yiringli asoratli rivojlanayotganidan dalolat beradi [191; 9-10-b.].

V.V.Idogovning ma'lumotlariga ko'ra, yiringli pododermatit bilan kasallangan sigirlarni davolashda sorbentlarni qo'llash birmunchi yaxshi samara berib, bunda qonning morfologik ko'rsatkichlarining to'riklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmda oksidlanishi qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi [58; 194 b.].

Tadqiqotchilarining ta'kilashicha, qonning biokimiyoviy ko'rsatkichlarini tadqiq qilish katta diagnostik ahamiyatga ega bo'lib hatto qonning to'liq bo'lmagan gematologik va biokimiyoviy tahlili haqida mutaxassisga hayvon organizmi holatini ishonchli aniqlash uchun etarli, qon tarkibini davriy ravishda tekshirib borish esa nafos organizmning umumiyligi holatini, balki kasallikning oqibatini oldindan bilish, davolash ishlarini muvofiqlashtirish, u yoki bu vositalarining ta'sirini o'rGANISH imkonini beradi [207; 44-46-b., 208; 478-481-b].

Olimlar ma'lumotlariga ko'ra, yuqumli tuyoq dermatiti bilan aniqlangan yirik shoxli mollarda immunologik, biokimiyoviy va matologik ko'rsatkichlar yangi preparatni qo'llagan holda olib berilgan davolash-profilaktik tadbirlardan so'ng γ -globulinlar konentratsiyasini $18,8 \pm 1,0$ g/l gacha, IgM $2,3 \pm 0,2$ mg/ml gacha, faolligi $53,2 \pm 1,4$ mkg/ml gacha, fagotsitar indeks $60,2 \pm 2,8\%$ gacha, fagotsitar soni $4,5 \pm 0,12$ birlikkacha, qon zardobidagi lipidlarning antioksidant faolligi $37,3 \pm 1,46\%$ gacha ko'tarilishi, azot oksidini hosil bo'lishini $12,4 \pm 0,48$ mkmol/l gacha kuchayishi, yuqqa yadroli neytrofillar ulushini $7,4 \pm 0,6$ gacha, eozinofillarni $5,2 \pm 0,7$ gacha va monotsitlarni $6,4 \pm 0,6$ gacha kamayishi aniqlangan. [12; 19-b.]

30-rasm



31-rasm



Tadqiqotchining ta'kidlashicha, [58; 18-b.] mahalliy sharoitga nisbatiyasi uch yil bo'lgan sigirlar kuz faslida tekshirilganida topedik patologiyalar $28,33\%$ ni, shundan pododermatitlar $14,81\%$ ni, sohasidagi artrit va abscesslar ko'rinishidagi birlamchilar $22,22\%$ ni tashkil etgan. Barmoq sohasida spontan yiringliklar jarayonlar kechayotgan sigirlar qon zardobi biokimiyoviy berilganida, sog'lom hayvonlardagiga nisbatan leykotsitlar miqdori mingga oshishi, umumiy oqsil miqdori $2,96\%$ ga ko'tarilishi, oqsil miqdori mos ravishda, betta-globulinlarni $8,36\%$ ga va gamma-globulinlarni $5,09\%$ ga ortishi, alfa-globulinlarni esa $12,93\%$

ga kamayishi qayd etilgan. Shuningdek, kasal sigirlar qoni zardobi tarkibida kaliy miqdorining 23,61 mg% ga ortgani holda, natriy miqdorini 57,7 mg% ga kamayishi kuzatilgan.

Mualliflar [17; 138-b.] qoramollarda yallig'lanish jarayonlari paytidagi leykotsitar reaksiyalarning xarakterli o'ziga xosliklarini kuzatish bilan shunday hulosaga kelganki, bu reaksiyaning darajasiga qaratilish yallig'lanish jarayon kechishi va organizm himoya kuchlarining holatiga to'g'risida hulosa qilish mumkin.

Tekshirishlar natijasida sigirlarda barmoq va tuyuoq kasalliklarini keltirib chiqaruvchi asosiy ekzogen omil turli xildagi mexanik shikan natijasida shox kapsulasi (qavati) va yumshoqto'qimaning jarohatlanishi bo'lib, keyinchalik jarohatga patogen mikrofloraning tushishi va patologichalar jarayonning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunga hayvonlarni qisilishi, polkontruksiyasi, sanitariya-gigienik me'yordarning buzilishi, ratsionning organizm hayoti uchun zarur bo'lgan komponentlar asosida tuzilmashligi oqibatida organizmning infeksiyaga rezistentligi pasaygan va kasalligi kelib chiqqan. Kasallangan hayvonlar qoni tekshirilganda ular qoni oqsil, fosfor va kalsiy miqdori ancha kamayganligi aniqlandi va oqibatda hayvonlarning turli xil kasalliliklarga nisbatan chidamliligi pasaygan, bungacha o'tkazuvchanligining oshishi va epidermis qavati yupqalashganligi sabab bo'lgan. [102;143-147-b.].

Qonni biokimyoiy ko'rsatgichlari bo'yicha tekshirishda leykotsitor, neytrofiliya, ECHR tezlashishi, disproteinemianing kuzatilishi yallig'lanishlariga xos belgilari hisoblanadi. Odamlarda revmatoid artrit paytida laborator tekshirish ma'lumotlari nospetsefik bo'lib, revmatoid artritning boshlang'ich bosqichlaridayoq ECHT ning tezlashishi, fibrinogen, alfa-globulinlar, qonning S-reakтив oqsillari darajasining ortishi hamda gemoglobin miqdorining kamayishi kuzatiladi. [1; 128-134 b, 23; 59-62 b].

Tajribalarimizdagi barmoq va tuyuoqlarida kechayotgan patologichalar jarayonlarni davolash davomida barcha sigirlarda klinik fiziologik ko'rsatkichlar bilan birga, ular qonining morfologik va biokimyoiy ko'rsatkichlari ham tekshirib borildi. Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdi, umum qabul qilingan usullarga 10 ml 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin 4 ml aralashtirilib muskul ichiga va oksitetratsiklin+streptotsid+yodoform (4:4:2 nisbatda) lar so'rilishini tezlashtirish uchun dimeksid faollashtiruvchi vosita qo'llanilgan birinchidagi guruh hayvonlari qonidagi eritrotsitlar miqdori beshinchi kundan boshlab ko'payib bordi, ya'ni tajribaning 15-kunida 3,5% ni, tajribaning oxirigida

kelib ko'payish dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 6,3% ni ($P<0,05$) tashkil etdi.

Bu guruxdagi sigirlar qonida leykotsitlar miqdori tajribaning 10-kunidan kamayib bordi va 6,7% ni tashkil etdi, tajriba oxirida esa 21,4% ga ($P<0,05$) kamayganligi qayd etildi. Gemoglobin miqdorining o'zgarishi eritrotsitlar sonining o'zgarishiga o'xshash bo'lib, tajribaning 10-kunida 8,7% ga ko'paydi ($r<0,05$), keyinchalik uning maksimal ko'payish darajasi tekshirilarning 25-kunida kuzatildi, ya'ni bunda uning miqdori 16,9% ga ($P<0,05$) oshganligi namoyon bo'ldi. Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarida qondagi morfologik o'zgarishlarining boshlanishi tajribaning boshida namoyon bo'lib, bunda eritrotsitlarning cho'kish tezligi tajriba boshiga nisbatan 5-kunida 3,7% ga kamaygan bo'lsa, tajribaning 15 kunida 12,2% va 25-kunida esa 13,2% ga kamayganligi qayd etildi (1-ilova).

Birinchi tajriba guruhidagi hayvonlarda eozinofillar miqdori tajribaning 10-kunlarda 26,3% ga ko'paygan bo'lsa, tajribaning 25-kuniga kelib 47,4% ga ($P<0,05$) oshganligi qayd etildi. Yosh neytrofillar tajriba davomida kamayib borib, tajribaning 5-kuniga 21,4% 10- kuni 35,7% kamayib tajribaning 15 –kunidan umuman qayd etilmadi. Tayoqcha yadroli neytrofillar ham tajriba davomida kamayib borib, tajribaning 10-kunida 42,9% ga ($P<0,05$) kamaygan bo'lsa, tajriba oxirida esa 50% ga kamayganligi aniqlandi. Ushbu guruhdagi segment yadroli neytrofillar esa yordari manzara namoyon qilib, tajriba davomida ko'payib, tajribaning 10-kunlarda 20,3% ga ko'paygan bo'lsa, tajribaning 25-kuniga kelib 45,9% ga ($P<0,05$) ko'payganligi namoyon bo'ldi. Leykoformuladagi limfotsitlar bo'shib ko'rsatkichi ham birinchi guruh hayvonlarida tajriba davomida kamayib borib, 10-kunlarda dastlabki ko'rsatkichlariga nisbatan shunga mos ravishda 9,1% ga ($P<0,05$) va tajriba oxirida esa 19,6% ga ($P<0,05$) kamayganligi aniqlandi

Ushbu guruhdagi hayvonlarda monotsitlar miqdori tajriba boshidan ko'payib borishi qayd etilib, tajribaning 5-kunida 60% ga, tajribaning 15-kunida esa 140% ga oshganligi va tajriba oxirida esa dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 160% ga oshganligi qayd etildi (2-ilova).

Qon zardobining biokimyoiy tarkibi tekshirilganda, dastlabki 10-kunda umumiyoq oqsil miqdori 5,4% ga ($P<0,05$) ko'payganligi kuzatilgan bo'lsa, so'ngra u yana oshib bordi va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 9,2% ga ($P<0,05$) ko'tarilganligi qayd qilindi. Oqsil spektri aniqlanganda, albuminlar ko'payib borib, uning maksimal ko'payish darajasi 25-kunda kuzatildi va 19,7% ni tashkil etdi. Alfa globulinlar miqdori tajriba davomida kamayib borib, tajriba oxiriga borib

21,6% ni tashkil etdi, beta globulinlar miqdori tajribaning 10-kunida 15,6% ga ($P<0,05$) ko'payib, tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 24,6% ga ($P<0,05$) oshganligi gammaglobulinlarda esa teskari manzara namoyon bo'lib, kamayib kuzatishlarning oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 18,2% ga kamayganligi aniqlandi (3-ilova).

Umum qabul qilingan usullarga qo'shimcha yiring ajralishi to'xtagandan keyin 10% li katozal immunostimulyatoridan vena qo'tomiriga 25 mldan har 48 soatga bir marta jami uch marta, 10 ml 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin 4 ml aralashtirilib muskul ichiga oksitetratsiklin + streptotsid + yodoform (4:4:2 nisbatda)lar so'riliishi tezlashtirish uchun dimeksid faollashtiruvchi vosita qo'llanilganda tajribadagi 2-guruh hayvonlari qoni tekshirilganda, ularda quyidagi o'zgarishlar namoyon bo'lganligi qayd etildi

Eritrotsitlar soni tekshirishlarning boshida, ya'ni 5-kunda 2,1% ga, 10-kunida 4,2% ga ko'paygan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 8,3 foizga ($P<0,05$) oshganligi aniqlandi.

Leykotsitlar soni tajribaning 5-kunidan boshlab kamaya boshladigan 10-kunida 11% ga va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 17% ga kamayishi kuzatildi. Gemoglobin miqdori tekshirishlarning 5-kunida 5,6% ga ko'paygan bo'lsa, tajribaning 15-va 25-kunlarida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda, 15,5% va 19,4% ($P<0,05$) tashkil etdi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi ikkinchi tajriba guruh hayvonlarida tajribaning 5- va 10-kunida shunga mos ravishda 3,4 va 7,9% ga kamaygan bo'lsa, tajriba davomida yana kamayib bordi va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 13,5% ga kamayganligi namoyon bo'ldi (4-ilova).

Ikkinchi tajriba guruh hayvonlarida eozinofillar miqdori tajribanida ko'payib borishi kuzatilib, tajribaning 5-kunida 28,1% ga, 10-15-va 25-kunlarida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda 62,5%, 81,2% va 93,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi aniqlandi. Yosh neytrofillar ushbu guruhda tajriba davomida kamayib borib, tajribanigan 5-kuniga 16,7% ga, 10- kuni 58,3% ga kamayib tajribanigan 15-kunidan boshlab umuman qayd etilmadi. Ikkinchi tajriba guruh hayvonlarida tayoqcha yadroli neytrofillar miqdori tajribanigan 10-kunida 34,5% ga kamaygan bo'lsa, tajribanigan 25-kunida 58,6% ga ($P<0,05$) kamayganligi namoyon bo'ldi. Ushbu guruhdagi segment yadroli neytrofillar tajribanida ko'payib borib, tajribanigan 10-kunlarida 27,7% ga ko'payganligi aniqlandi.

Birinchi tajriba guruhi hayvonlari qonidagi morfologik ko'rsatkichlari

1-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Eritrotsitlar ($10^{12}/l$) | Leykotsitlar ($10^9/l$) | Gemoglobin (g/l) | ECHT mm /soat |
|-----------------|-----------------------|-------------------------------|---------------------------|--------------------|-------------------|
| Tajribagacha | M ±m % | 5,12±0,23 100 | 10,82±0,19 100 | 84,0±2,9 100 | 0,82±0,02 100 |
| 5 kun | M ± m % | 5,18±0,23 101,2 | 10,2±0,27 94,3 | 88,0±4,94 104,8 | 0,79±0,02 96,3 |
| 10 kun | M ±m % | 5,2±0,28 101,6 | 10,1±0,41 93,3 | 91,3±2,95 108,7 | 0,74±0,04 90,2 |
| 15 kun | M ± m % | 5,3±0,23 103,5 | 9,4±0,53 86,9 | 94,4±1,35 112,4 | 0,72±0,04 87,8 |
| 25 kun | M ± m % | 5,44±0,23 106,3 | 8,5±0,31 78,6 | 98,2±1,19 116,9 | 0,71±0,02 86,8 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Birinchi tajriba guruhi hayvonlari qonining leykoformulasasi

2-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Leykoformulasি% | | | | | | |
|--------------------|--------------------------|-----------------|-----------------------|-------------------|-------------------|------------------------|--------------------|------------------|
| | | B | E | neytrophillar | | | limfotsit | Monotsit |
| | | | | YU | T.YA | S. YA | | |
| Tajribagacha | M ± m % | - | 3,8 ±0,41 100 | 2,8 ±0,82 100 | 5,6 ±0,27 100 | 26,6 ±0,75 100 | 59,2 ±1,29 100 | 2 ±0,35 100 |
| 5 kun | M ± m % | - | 4,2 ±0,42 110,5 | 2,2 ±0,82 78,6 | 4,4±0,44 78,6 | 27,8 ±1,19 104,5 | 58,2 ±1,47 98,3 | 3,2 ±0,41 160 |
| 10 kun | M ± m % | - | 4,8 ±0,41 126,3 | 1,8 ±0,54 64,3 | 3,2 ±0,74 57,1 | 32 ±1,58 120,3 | 53,8 ±1,55 90,9 | 4,4 ±0,57 220 |
| 15 kun | M ± m % | - | 5,2 ±0,41 136,8 | - | 3 ±0,35 53,6 | 36 ±1,58 135,3 | 50,4 ±0,57 85,1 | 4,8 ±0,41 240 |
| 25 kun | M ± m % | - | 5,6 ±0,27 147,4 | - | 2,8 ±0,41 50 | 38,8 ±0,82 145,9 | 47,6 ±1,2 80,4 | 5,2 ±0,42 260 |

-Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Birinchi tajriba guruhi hayvonlari qo'si zardobidagi boshchayiq normalarishini

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Statistik ko'rsatkich | Oqsil fraksiyaları | | | | |
|--------------------|--------------------------|--------------------------|----------------------|--------------------|-------------------|--------------------|-------------------|
| | | | Umumiy oqsil, g/l | Albuminlar | Globulinlar, % | | |
| | | | | | a | b | y |
| 1 | Tajribagacha | M ± m % | 67,2±1,4 100 | 29,4±0,80 100 | 27,6±0,84 100 | 12,2±0,74 100 | 30,8±1,6 100 |
| 2 | 5 kun | M ± m % | 69,4±0,65 103,3 | 30,8±0,72 104,8 | 26,4±0,75 95,6 | 13,4±0,41 109,8 | 29,4±0,79 95,5 |
| 3 | 10 kun | M ± m % | 70,8±0,98 105,4 | 31,8±0,29 108,2 | 25,8±0,55 93,5 | 14,1±0,62 115,6 | 28,9±1,23 91,9 |
| 4 | 15 kun | M ± m % | 71,6±0,67 106,5 | 32,7±0,49 111,2 | 24,7±0,48 89,5 | 14,9±0,36 122,1 | 27,7±0,83 89,9 |
| 5 | 25 kun | M ± m % | 73,4±0,61 109,2 | 35,2±0,76 119,7 | 24,4±0,57 88,4 | 15,2±0,40 124,6 | 25,2±0,85 81,8 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Ikkinci tajriba guruhi hayvonlari qonidagi morfologik ko'rsatkichlari

4-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Eritrositlar ($10^{12}/l$) | Leykotsitlar ($10^9/l$) | Gemoglobin (g/l) | ECHT mm /soat |
|-----------------|-----------------------|------------------------------|---------------------------|--------------------|-------------------|
| Tajribagacha | M ± m % | 4,8±0,22 100 | 9,9±0,31 100 | 81,4±3,36 100 | 0,89±0,02 100 |
| 5 kun | M ± m % | 4,90±0,20 102,1 | 9,4±0,40 95 | 86,0±2,37 105,6 | 0,86±0,03 96,6 |
| 10 kun | M ± m % | 5,1±0,31 106,3 | 8,8±0,47 89 | 91,0±3,39 111,8 | 0,82±0,02 92,1 |
| 15 kun | M ± m % | 5,0±0,31 104,2 | 8,6±0,30 87 | 94,0±2,44 115,5 | 0,79±0,03 88,8 |
| 25 kun | M ± m % | 5,2±0,12 108,3 | 8,2±0,36 83 | 97,2±0,57 119,4 | 0,77±0,03 86,5 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

5-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Leykoformulasii% | | | | | | |
|-----------------|-----------------------|------------------|-----------------------|---------------------|-------------------|------------------------|--------------------|--------------------|
| | | B | E | neytrophillar | | | limfosit | Monotsit |
| | | | | YU | T.YA | S. YA | | |
| Tajribagacha | M ± m % | - | 3,2 ±0,41 100 | 2,4 ±0,75 100 | 5,8 ±0,42 100 | 27 ±1,45 100 | 58,4 ±0,83 100 | 3,2 ±0,41 100 |
| 5 kun | M ± m % | - | 4,1 ±0,37 128,1 | 2 ±0,7 83,3 | 4,4±0,57 75,9 | 29,2 ±0,96 108,1 | 56,5 ±1,5 96,7 | 3,8 ±0,42 118,7 |
| 10 kun | M ± m % | - | 5,2 ±0,42 162,5 | 1 ±0,22 41,7 | 3,8 ±0,54 65,5 | 34,2 ±0,82 127,7 | 51,2 ±1,34 87,7 | 4,6 ±0,22 143,7 |
| 15 kun | M ± m % | - | 5,8 ±0,41 181,2 | - | 3,6 ±0,27 62 | 37,4 ±0,83 138,5 | 47,8 ±1,78 81,8 | 5,4 ±0,57 168,7 |
| 25 kun | M ± m % | - | 6,2 ±0,41 193,8 | - | 2,4 ±0,27 41,4 | 39,2 ±1,55 145,2 | 46,0 ±1,69 78,8 | 6,2 ±0,41 193,8 |

-Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Ikkinci tajriba guruhi hayvonlari qoni zardobidagi biokimiyoviy ko'rsatkichlari

6-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Statistik ko'rsatkich | Oqsil fraksiyaları | | | | |
|-----------------|-----------------------|-----------------------|--------------------|--------------------|-------------------|--------------------|-------------------|
| | | | Umumiy oqsil, g/l | Albuminlar | Globulinlar, % | | |
| | | | | | a | b | y |
| 1 | Tajribagacha | M ± m % | 66,2±1,24 100 | 28,8±0,80 100 | 25,6±0,56 100 | 13,2±0,43 100 | 32,4±1,61 100 |
| 2 | 5 kun | M ± m % | 68,4±0,64 103,3 | 30,2±0,40 104,5 | 25,1±0,59 98 | 12,8±0,38 112,1 | 29,9±0,65 92,3 |
| 3 | 10 kun | M ± m % | 70,8±0,78 106,9 | 32,3±0,36 112,1 | 24,2±0,66 94,5 | 14,1±0,51 111,4 | 28,9±0,93 89,2 |
| 4 | 15 kun | M ± m % | 72,9±0,58 110,1 | 34,6±0,58 120,1 | 22,8±0,56 89 | 15,1±0,39 114,4 | 27,5±0,55 84,9 |
| 5 | 25 kun | M ± m % | 75,8±1,04 114,5 | 36,8±0,71 127,8 | 21,8±0,53 85,2 | 16,4±0,82 124,2 | 25±1,49 77,2 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Uchinchi nazorat guruhi hayvonlari qonidagi morfologik ko'rsatkichlari

7-ilova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Eritrotsitlar ($10^{12}/l$) | Leykotsitlar ($10^9/l$) | Gemoglobin (g/l) | ECHT mm /soat |
|-----------------|-----------------------|-------------------------------|---------------------------|------------------|---------------|
| Tajribagacha | M ± m % | 5,0±0,45 | 10,2±0,41 | 86,4±3,52 | 0,90±0,03 |
| | | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 5 kun | M ± m % | 5,1±0,35 | 10,3±0,45 | 90±3,22 | 0,86±0,03 |
| | | 102 | 100,1 | 104,2 | 95,5 |
| 10 kun | M ± m % | 5,3±0,29 | 10,1±0,41 | 96,0±3,02 | 0,88±0,04 |
| | | 106 | 99 | 111,1 | 97,8 |
| 15 kun | M ± m % | 5,20±0,27 | 9,6±0,34 | 93,0±4,25 | 0,84±0,04 |
| | | 104 | 94,1 | 107,6 | 93,3 |
| 25 kun | M ± m % | 5,30±0,23 | 9,1±0,44 | 94,0±1,87 | 0,82±0,03 |
| | | 106 | 89,2 | 108,8 | 91,1 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Uchinchi nazorat guruhi hayvonlari qonining leykoformulasasi

8-illova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Leykoformulasasi% | | | | | | |
|--------------------|--------------------------|-------------------|-----------------------|----------------------|--------------------|------------------------|---------------------|---------------------|
| | | B | E | neytrosifilar | | | limfosit | Monotsit |
| | | | | YU | T.YA | S. YA | | |
| Tajribagacha | M ± m % | - | 3,4 ±0,44 100 | 3,2 ±0,41 100 | 5,2 ± 0,41 100 | 24,8 ±0,96 100 | 60,6 ± 1,03 100 | 2,8 ± 0,41 100 |
| 5 kun | M ± m % | - | 3,8 ±0,41 111,8 | 2,8 ±0,82 87,5 | 4,9 ± 0,51 94,2 | 26,4 ±0,75 106 | 59 ± 0,79 97,3 | 3,1 ± 0,37 110,7 |
| 10 kun | M ± m % | - | 4,4 ±0,75 129,4 | 2,4 ±0,75 75 | 4,6 ± 0,57 88,5 | 28,8 ±1,38 116,1 | 56,2 ± 1,34 92,7 | 3,6 ± 0,57 128,6 |
| 15 kun | M ± m % | - | 4,9 ±0,37 144,1 | 1,6 ±0,57 50 | 4,6 ± 0,27 88,5 | 33,2 ±0,96 133,8 | 51,8 ± 1,14 85,5 | 3,9 ± 1,78 139,3 |
| 25 kun | M ± m % | - | 5,2 ±0,41 152,9 | - | 4,2 ± 0,74 80,8 | 36 ± 0,79 145,2 | 48,8 ± 1,63 80,5 | 4,8 ± 0,41 171,4 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

Uchinchi nazorat guruhi bayvonlari qosi zardobida biokimiyeviy ko'rsatkichlari

9-illova.

| Tajriba kunlari | Statistik ko'rsatkich | Statistik ko'rsatkich | Oqsil fraksiyaları | | | | |
|--------------------|--------------------------|--------------------------|----------------------|----------------------|---------------------|----------------------|---------------------|
| | | | Umumiy oqsil, g/l | Albuminlar | Globulinlar, % | | |
| | | | | | a | b | y |
| 1 | Tajribagacha | M ± m % | 68,1 ± 0,65 100 | 31,2 ± 0,46 100 | 24,8 ± 0,57 100 | 13,4 ± 0,5 100 | 30,6 ± 0,86 100 |
| 2 | 5 kun | M ± m % | 69,2 ± 0,82 101,6 | 31,9 ± 0,45 102,2 | 23,9 ± 0,46 96,4 | 13,6 ± 0,46 101,5 | 30,6 ± 0,99 100 |
| 3 | 10 kun | M ± m % | 69,8 ± 0,56 102,5 | 32,9 ± 0,63 105,5 | 23,8 ± 0,35 96 | 13,2 ± 0,36 98,5 | 30,1 ± 0,75 98,4 |
| 4 | 15 kun | M ± m % | 70,2 ± 0,92 103,1 | 33,4 ± 0,57 107,1 | 23,1 ± 0,61 93,1 | 14,1 ± 0,57 105,2 | 29,4 ± 0,84 96,1 |
| 5 | 25 kun | M ± m % | 71,4 ± 0,95 104,9 | 33,8 ± 0,64 108,3 | 22,7 ± 0,48 91,5 | 14,6 ± 0,55 109,5 | 28,9 ± 0,55 94,4 |

- Tajribagacha bo'lgan ko'rsatkichlarga nisbatan ($P<0,05$) biometrik farq.

bo'lsa, tajribaning 25-kuniga kelib 45,2% ga ($P<0,05$) ko'payganligi namoyon bo'ldi. Limfotsitlar foizini tajribaning 10-kunida 12,3% ga kamayganligi kuzatilgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 21,2% ga kamayganligi qayd etildi. Monotsitlar miqdori esa tajriba davomida oshib bordi tajribaning 5-kunida 18,7% ga tajribaning 10-kunida esa 43,7% ga ($P<0,05$) oshganligi va tajriba oxirida 93,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi (5-ilova).

Ushbu guruh hayvonlari qon zardobining biokimiyoviy ko'rsatkichlarida ham ma'lum bir xarakterli o'zgarishlar namoyon bo'ldi. Qon zardobidagi umumiyoq oqsil miqdori tekshirishlarning 10-kunida 3,3% ga oshgan bo'lsa, so'ngra tajriba davomida ko'payib borib, tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 14,5% ga ($P<0,05$) ko'payganligi aniqlandi. Albuminlar miqdori tekshirishlarning 5-kunida 4,5% ga oshgan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni tajribaning 15-kunida 20,1% ($P<0,05$) va tajriba oxirida ular miqdorining 27,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi Alfa-globulinlar miqdori tajribalar davomida kamayib borib, tekshirishlar oxirida 14,8% ga ($P<0,05$) kamayganligi qayd qilindi. Betta-globulinlar miqdori esa dastlabki ko'rstkichlarga nisbatan tajribaning 15-kunida 14,4% ga ($P<0,05$) va tajriba oxirida 24,2% ga ($P<0,05$) ko'payganligi kuzatildi. Gamma-globulinlar miqdori esa kamayib borib, tajriba oxirida 77,2% ni tashkil etdi(6-ilova).

Uchinchi nazorat guruhi hayvonlari qoni tekshirilganda, ul qonidagi morfologik va biokimiyoviy ko'rsatkichlarda kuyidagi o'zgarishlar namoyon bo'ldi.

Eritrotsitlar miqdori faqatgina davolashning 10-kunida 6% ga oshib so'ngra yana ozroq kamayib to'lqinsimon xarakter namoyon qilib tajribaning 15- kunida 4% ni va tajriba oxirida 6% ga ko'payganligi qayd etildi. Leykotsitlar soni tajriba davomida kamayib bordi, davolashning 25-kunida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 10,8% ga kamayganligi kuzatildi. Gemoglobin konsentratsiyasi ham tajribaning 10-kunida 11,1% ga ($P<0,05$) oshgan bo'lsa tajriba oxiriga kelib uning miqdori kamayib boshladi va dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 108,8% ni ($P<0,05$) tashkil etdi. Uchinchi tajriba guruh hayvonlari qonida eritrotsitlarning cho'kish tezligi tajriba davomida ozroq bo'lsada kamayib bordi to'lqinsimon xarakter namoyon qilib, tajriba boshiga nisbatan tajribaning 5-kunida 4,5% ga, tajribaning 10 kunida 2,2% ga va 15-kunida esa 6,7% ga kamayganligi tajriba oxirida esa dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 9,9% ga ($P<0,05$) kamayganligi namoyon bo'ldi (7-ilova).

Bizning nazarimizda uchinchi guruhdagi hayvonlar qonidagi kotsitlarning kamayishi, limfotsit to'qimalarda ularning hosil bo'lish davonidagi patologik o'zgarishlardan darak beradi. Ushbu guruhdagi neytrofillar foizi tajriba boshidan boshlab ko'payib borib, tajribaning 5-kunida 11,8% ga oshgan bo'lsa, tajribaning 10 kunida 29,4% ga ($P<0,05$) va 15-kunida esa 44,1% ga ($P<0,05$) ko'payganligi tajriba oxirida esa dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 52,9% ga ($P<0,05$) oshganligi namoyon bo'ldi. Ushbu guruhdagi yosh neytrofillar ushbu guruhda tajriba davomida kamayib borib, tajribaning 5-kuniga 12,5% ga, 10-kuni 25% ga ($P<0,05$) 15-kuni 50% ga kamayib, tajribaning 25-kunidan boshlab umuman qayd etilmadi. Tayoqcha yadroli neytrofillarda tajriba davomida ozroq bo'lsada kamayib bordi va tajribaning 5-kunida 5,8% ga kamayib asta-sekin tajriba davomida yana kamayib, tajriba oxirida 19,2% ga kamayganligi aniqlandi. Ushbu guruhdagi segment yadroli neytrofillar esa tajriba davomida ko'payib, tajribaning 5-kuniga 6% ga, 10-kuni 16,1% ga 15-kuni 33,8% ga va tajribaning 25-kunida 45,2% ga ko'payganligi namoyon bo'ldi. Leykoformuladagi limfotsitlar foizi tajriba davomida ozroq bo'lsada kamayib bordi va tajribaning 10-kuniga 7,3% ga, 15-kuni 14,5% ga va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 19,5% ga ($P<0,05$) kamaydi. Monotsitlar tajriba davomida ko'payib bordi va tajribaning 5-kunida 10,7% ga, tajribaning 10-kunida esa 28,6% ga ($P<0,05$) oshganligi va tajriba oxirida 71,4% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi. (8-ilova).

Ushbu guruh hayvonlarining qon zardobidagi ko'rsatkichlarda ham karakterli keskin o'zgarishlar ko'zatilmadi. Qon zardobida davolashning 15-kunida umumiyl oqsil miqdori 3,1% ga ko'paygan bo'lsa, tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 4,9% ga oshganligi kuzatildi. Oqsil spektridagi albuminlar foizi tajriba davomida ozroq bo'lsada oshib bordi va tajribaning 5-kunida 2,2% ga, tajribaning 10-kunida esa 5,5% ga va tajriba oxirida 8,3% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi. Alfa- va gamma-globulinlar miqdori tajriba davomida kamaya borib, tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan shunga mos ravishda, 8,5% va 16% ga kamayishi qayd etildi. Beta-globulinlar miqdori esa aksincha, tajriba davomida ko'payib va to'lqinsimon xarakter namoyon qilib tajribaning 15-kunida 5,2% ga va tajribaning oxirida 9,5% ga oshganligi namoyon bo'ldi (9-ilova).

Qoramol barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini davolash tadbirlarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan

ilmiy xo'jalik tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini davolashda umum qabul qilingan usullarga qo'shimcha yiring ajralishi to'xtaganlari keyin 10% li katozal immunostimulyatoridan vena qon tomiriga, 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin oksitetratsiklin+streptotsid+yodoform (4:4:2 nisbatda) lar so'riliшиб tezlashtirish uchun dimeksid faollashtiruvchi vosita qo'llanilganda ноби natijalar olindi, bunda patologik jarayonlarning salbiy томонга rivojlanishi kuzatilmay, uning tuzalish muddati qisqardi.

Birinchi va ikkinchi guruh hayvonlarida yallig'lanish jarayonining pasayishi, uchinchi guruh hayvonlariga nisbatan ancha erta boshlandi. Yallig'lanish jarayoni reaksiyasining pasayishi, barcha birinchi va ayniksa ikkinchi guruh hayvonlarining shikastlangan hammasi funksiyalarining tiklanishi bilan birga kechgan bo'lsa, uchinchi guruh hayvonlarining hammasida ham bu manzara kuzatilmadi.

Xulosa o'mida ta'kidlash joizki, qonning gematologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, birinchi va ikkinchi guruh hayvonlarida eritrotsitlar va gemoglobin hamda eozinofil, segment yadroli neytrofillar va monotsitlar miqdori ko'payib borganligi, leykosit va limfotsitlar miqdorining kamayib borishi ushbu guruh hayvonlarida patologik jarayonning tuzalishi, retikuloendotelial sistemasining stimullashidan darak beradi.

Kasal sigirlar qonining ayrim gematologik ko'rsatkichlari ha davolash davomida tajriba va nazorat guruhidagi hayvonlarda patogen bilan mutanosib holda o'ziga xos o'zgarishlarni namoyon qildi.

Barmoq sohasida turli yiringli-nekrotik jarayonlari bilan kasallangan sigirlar qonda monotsitlar sonining kamayishi mumkin ularni immunitetni stimullash jarayonida aktiv fagotsitar xususiyatini namoyon qilib nobud bo'lishi bilan izohlanadi. Kasal hayvonlarga davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular organizmidagi fiziologik jarayonlar yaxshilana boshlashi bilan monotsitlar sonining ko'paygani kuzatildi.

Davolash davomida tajribadagi uchala guruh hayvonlaridagi klinik belgilardagi farqni tasdiqlash maqsadida, qonning gematologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, birinchi va ikkinchi guruh hayvonlarida eozinofil, segment yadroli neytrofillar va monotsitlar miqdori ko'payib borganligi, limfotsitlar miqdorining kamayib borishi, ushbu guruh hayvonlariga qo'llanilgan dori vositalarining ma'lum miqdori

asosida takomillashtirilgan davolashga asoslangan usullari fiziologik jarayonning tuzalishiga va retikuloendotelial sistemasining o'stashidan darak beradi.

Tekshirishlar asosida barmoq sohasida turli yiringli-nekrotik jarayonlarini davolashda ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qon zardobida umumiy oqsil miqdori davolash ishlari boshlangunga qadar 10,5% ga kam bo'lishi, organizmda moddalar almashinuvini t'adillashuvi bilan bog'liq bo'lib, bunda hayvonlarda organizmning o'sizlanishi va qonning quyuqlashishiga sabab bo'ladi.

Kasal hayvonlarga davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular organizmidagi fiziologik jarayonlar yaxshilana boshlashi bilan oqsil miqdorining ko'payganligi qayd etildi. Ta'kidlash lozimki, barmoq sohasida turli yiringli-nekrotik jarayonlari bilan kasallangan sigirlar boshlangunga qadar ular qon zardobidagi albuminlar va betta globulinlar miqdorlarining mos ravishda 27,8% va 24,2% ga kam bo'lishi, ma'lumki organizmda aktiv immun himoya jarayoniga katta miqdorda o'stanadigan oqsil miqdoriga bog'liq bo'lib, davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular miqdorining ko'payishi kuzatildi.

V BOB. QORAMOLLARDA BARMOQLARNING YIRINGLI -NEKROTIK JARAYONLARINI OLDINI OLİSH

Qoramollarda barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarini oldini olish chora tadbirlari

Hayvonlarni bir joyda bog'lab boqishda tuyoqlarning shikastlanishi lari ko'proq uchraydi. Bunday sharoitda harakatning chegaralaniishi, tuyoq shoxining o'sib ketishi oqibatida paylarning cho'zilishi, tuyoq shoxining sinishi kabi oyoq kasalliklari kelib chiqadi [159; 14-16-b., 160; 20-b., 166; 46-48-b., 168; 14-15-b., 69; 250-b.].

Bir qator olimlar bo'lmaning eni 1,1 m, uning uzunligi esa hayvon tanasining gorizontal uzunligining 90-95% dan kam bo'lmasligini va yana qo'shimcha 20 sm uzunlikda bo'lishini, shuningdek bo'lma uzunligi 1,8-2,0 m bo'lishi tavsiya etadilar[25; 132-b.], [73; 65-69-b.].

Hayvonlarni molxonada bog'lab boqqanda gipo- va adinamiy oldini olish va tuyoqlarning bir xilda emirilishini ta'minlash hamda pododermatit kasalligini oldini olish uchun hayvonlarni har kuni yayratish maydonchalariga chiqarish kerak [167; 56-57-b., 168; 14-15-b., 174; 21-b.].

Ko'pgina mualliflar oyoq kasalliklarini oldini olishda yaxshi vosita sifatida 10% li mis kuperosi, 2% li formalinni, 5% li formaldegid eritmasini va 5% li lizol eritmasini oyoq vannasi tarzida qo'llashni tavsiya etadilar [16; 136-b., 114; 128-b., 68; 63-64-b.].

Tadqiqotchilar [63; 303-b.] ta'kidlashicha, hayvonlarni guruhi usulidagi boqishda dastlabki rivojlanish bosqichlarida artritlar kam aniqlanadi. Ularni barvaqt aniqlashning imkonи bo'lganda, davolanishi juda qiyin hisoblangan bo'g'imlar va to'qimalarda surunkali kechadigan yiringli yallig'lanishlarning oldini olishga imkon tug'ilardan odatda bunday turdagи yallig'lanishlar kam davolanadi.

Mualliflar [17; 138-b.] ma'lumotiga ko'ra, hayvonlarni yaylovga chiqarishdan oldin va qaytarilishi bilan albatta ularning tuyoqlarini ko'zdan kechirib, kalta qilib kesish lozim.

Mualliflar [171; 313-316-b., 114; 128-b. ta'kidlashicha, buzoqlari guruhida infraqizil, ultrabinafsha nurlarni qo'llash va aeromonizatsiyalari travmatizmlarni oldini olishda samarali profilaktik vositalar hisoblanadi.

Olimlar [151; 24-25-b.] jarrohlik infeksiyasining oldini olish uchun davolash uchun miramistin kabi vositadan foydalanishning keng istiqbollari haqida ta'kidlaydilar. Ushbu preparat gram-musbat, gram-

manfly, aerob va anaerob bakteriyalarga nisbatan aniq
ba'beritsid ta'sirga ega.

Olimlar [36; 29-31-b.] takidlashicha, sanoat sut chorvachiligi sharoitida sigirlarning tuyoqlarini parvarish qilish tizimi hamma narsani ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydilar: motsion, kesish va oyoq yordamnari. Oyoqlarning distal qismi kasalliklarining oldini olishda yidagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- ortopedik (jarrohlik) tibbiy ko'rikdan o'tish;
- jurohatlarni oldini olish tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish;
- to'g'ri ilmiy asoslangan oziqlantirishni tashkil etish va hayvonlarni qashning normal zootexnik shartlariga rioya qilish;
- sanoat parvarishi uchun hayvonlarni tanlash;
- barmoqlar sohasi terisining maseratsiyasini va tuyoqlarning chirimini istisno qiladigan sharoitlarni yaratish;
- hayvonlarning tuyoqlarini parvarish qilish;
- pol sifatini nazorat qilish;
- tuyoqlarni davriy dezinfeksiya qilish;
- hayvonlar uchun muntazam motsionlarni tashkil etish;
- chorvachilik komplekslari, fermer xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari sodimlari o'rtaida veterinariya-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

32-rasm



Barmoq va tuyoq sohasini klinik va ortopedik tekshiruvda hayvonlarni ko‘zdan kechirish dam olish va ko‘chirishda, ularni yaylovda yoki chorvachilik binosiga haydashda amalga oshiriladi. Zararlanishning tabiatini, uning qachon paydo bo‘lgani, ifloslanishi, begona jismlarning mavjudligi aniqlanadi. Oyoqlarni tekshirganda, oyoqlarning old va lateral tomonidan oyoq qo‘yishi aniqlanadi. Bo‘g‘imlarning holati, pay va bog‘lam apparatlari, sinovial qinlar, bursalar, parez va falaj mavjudligi aniqlanadi.

Shu bilan birga, tuyoqlarning erga qo‘yish burchagini, shos devorining holatini, qattiq tovon va yumshoq tovonning holatini kapsulaning rangi va yorqinligini, yoriqlar, burmalar va yaralar mavjudligini aniqlash muhimdir.

Dispanserlash orqali veterinariya ko‘riklarini o‘tkazish barmoq va tuyoq kasalliklarini 5-8 baravarga kamaytirishga hissa qo‘shadi. Hayvonlarni podadan aylantirishni qisqartirish, shuningdek, tarmoqning rentabelligi va foydani oshirish haqida bir qator olimlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish amaliyotchilari ta’kidlashadi. [17; 138-b., 160-b., 14; 338-340-b., 39; 33-b., 75; 128-b., 80; 52-57].

Mualliflarning ta’kidlashicha, [72; 249-250., 134; 45-46-b.] yirik sutchilik komplekslari va fermer xo‘jaliklarida qoramollarning shikastlanishini oldini olish quyidagicha bo‘lishi kerak:

- kundalik klinik tekshiruv, bu bilansigirlarni ratsional oziqlantirish va malakali sog‘ish. Shikastlanishni oldini olish veterinariya muhandislik xizmatlari mutaxassislari bilan barcha chorvachilik xodimlari ishtirokida amalga oshirilishi kerak;

- chorvachilik binolari loyihasi ustida veterinariya-sanitariya nazoratini o‘rnatish, shuningdek pollar, oxurlar, sog‘ish mashinalari hayvonlarni mahkamlash vositalari, hayvonlarni saqlash, boqish va ekspluatatsiya qilish texnologiyalari;

- mexanizatsiyalashgan qurilmalarning texnik holatini nazorat qilish, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash vositalari, elektr tarmoqlari, qurilma yuzalar, bog‘lash moslamalari, mahkamlash mashinalari;

- yaylovlarini, chorvachilik binolarini, yurish joylarini tozalash, qoramolni o‘tkir metall buyumlardan, muzlatilgan go‘ng‘ishda haydash;

- oldini olish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini o‘tkazish mexanizmiga ozuqaviy va biologik shikastlanishlar va elektr shikastlanishlari.

Operatorlar, chorvadorlar, mexanizatorlar, mashina sog'ish ustalari o'rtaida hayvonlarning jarohatlanishi, barmoq-tuyoq kasalliklarining oldini olish borasida olib borilgan tushuntirish ishlari ham muhim ahmiyat kasb etadi.

Demak, adabiyot ma'lumotlarini tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, yirik shoxli mollar oyoqlarining barmoqlarining yiringli – nekrotik kasalliklari juda keng tarqalgan bo'lib, avvalambor hayvonlarni qqlash sharoiti va oziqlantirishni buzilishi bilan bog'liq ravishda sezilarli iqtisodiy zarar keltiradi hamda yuqumsiz va yuqumli etiologiyaga ega. Yirik shoxli hayvonlar oyoqlarining barmoq bo'limi patologiyalarini davolash va oldini olishda xorij olimlari tomonidan turli muolajalar qo'llanib kelingan. Ammo, O'zbekistonga chetdan olib kelingan mahsuldar sigirlarda ko'p uchraydigan barmoqlarining yiringli –nekrotik kasalliklарini mintaqaviy xususiyatlardan kelib chiqadigan etiologiyasi, patogenezi, patomorfologik o'zgarishlari, ularni davolash va oldini olishning maqbul usullari etarlicha o'rganilmagan. Hayvonlarda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini kamaytirishga hamda davolash va profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu maqsadda tajribalarimizda Samarqand viloyati Oqdaryo tumani "Urovon Grand Invest" qoramolchilik fermer xo'jaligidan 40 bosh Golshtin-friz zotiga mansub sigirlar olinib, ular o'xshash juftliklar imoyili asosida 20 boshdan 2 guruhga ajratildi. Ikkala guruh hayvonlari alohida saqlandi.

Birinchi tajriba guruh hayvonlariga profilaktik chora-tadbirlar qo'llanildi. Ushbu guruhdagi hayvonlarga har kuni 3-4 soat yayratish maydonchalarida motsion berib borildi. Hayvonlar saqlanadigan joy ratsion va motsion beriladigan yayratish maydonchalari doimiy nazorat qilinib, unda hayvonlarni, sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirmaslik to'g'risida tajribagacha va tajriba davomida doimiy ogohlantirib borildi. Shuningdek, ushbu guruh hayvonlarining tuyoqlari tajribagacha va tajriba davomida klinik tekshirib borildi va 3 oyda bir marta tuyoqlar kesilib turildi. Barmoqlardagi ochiq jarohatlarning asoratlarini davolash va tuyoq kasalligiga chalinishini oldini olish maqsadida, birinchisi sog'ish maydoniga kirish joyida toza suvli va ikkinchisi undan chiqish joyida 5% formalinli dezinfekcion eritma bilan muntazam to'ldirib turiladigan orunligi 6 m va chuqurligi 20-25 sm o'lchamli ikkita vannadan har 10 kun oralig'ida 2-3 kun davomida hayvonlar o'tkazib turildi. Qish faslida

vanna suv va dezinfeksion eritma o'rniga quruq so'ndirilgan oxal taxta qirindisi aralashmasi bilan 9:1 nisbatda to'ldirildi.

Shuningdek, organizmning himoya xususiyatini stimulla maqsadida oyiga bir marta 10% li katozal immunostimulyator vena tomiriga 25 ml dan har 48 soatga bir marta jami uch marta yuborib turdi.

Ikkinci nazorat guruhi hayvonlariga hech qanday muolajalar qo'llanilmadi ularni saqlash va oziqlantirish xo'jalik sharoiti asos tashkil etildi.

Klinik ko'rsatkichlar

Mamlakatimizdagi qoramollarga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklar barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlari bilan kasallangan sigirlarni oldini olishda hayvonlarni to'la qiymatli ratsionlarda boqish xo'jaliklarga qatta iqtisodiy samara beradi.

Tajribadagi birinchi guruh hayvonlari tajribalar davomida klinik tekshirilganda, 3 oy davomida ular barmoq va tuyoqlarida sezilar darajada patologik jarayonlari kuzatilmagan bo'lsada, faqatgina uch bosh hayvonda shikastlanish oqibatida barmoq sohasida jarohatlar kuzatildi ularga o'z vaqtida kerakli muolajalar qo'llanishi natijasida xirurgik infeksiya rivojlanishining oldi olindi.

Ikkinci nazorat guruhidagi tajribaning uchinchi oyidan boshlab bosh hayvonda orqa o'ng oyoqda klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lga yiringli pododermatit, 2 bosh hayvonlarda orqa chap va o'ng oyoqlarida esa klinik belgilari kuchsiz namoyon bo'lgan pododermatit jarayonlar qayd etildi. Orqa o'ng oyoqda klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lga yiringli pododermatit bilan kasallangan hayvonda tana harorati me'yordan $0,5^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilganligi qayd etilib, kasal hayvonlar harakatlanganda aralash oqsashning o'rta darajasi qayd qilindi. Hayvonlarning turganda shikastlangan oyog'ini bukkan holda sog'lom oyog' tana og'irligini tashlab turadi.(5- rasm)

Hayvonning shikastlangan orqa o'ng oyoq barmoq bo'g'ima kattalashib taranglashgan. Bo'g'im atrofidagi teri palpatsiya qilinganda uning sezuvchanligi va harakatlanganligi o'zgarmaganligi kuzatilib, unda qalinlashish, to'qimalarning o'sishi, chandiq kuzatilmadi, amma palpatsiya qilinganda mahalliy harorat va sezilarli darajada kuchli og'riborligi aniqlandi. Shikastlangan bo'g'imgarda passiv harakat usullari qo'llanilganda bo'g'inda harakatchanlik kamayganligi aniqlandi.

Tekshirishlar natijasida tuyoq pododermatiti bilan kasallangan sigarda tuyoq tovoni shox pardasi, uning teri asosi va atrof to‘qimalarining shikastlanganligi aniqlandi.

Nekrozga uchragan patologik to‘qimalar tuyoq kaftidagi nuqsonlar atrofida ko‘p miqdorda oqmalar hosil bo‘lganligi qayd etildi. Hosil bo‘lgan oqmalardan yiringli, tarkibida oz miqdordagi ekssudat oqib urishi, yallig‘lanish infiltratsiyasi tuyoqning kaft tarafdan dermaning suqur qatlamlariga tarqoq kirib boruvchi xususiyatiga ega bo‘lishi kuzatildi. Tuyoq tovonining ichki qismi yiringli pododermatiti bilan shikastlangan tuyoq yuqori sohasi shishgan, oriqli flyuktuatsiya beradi. Hayvonda patologik uchok ochilib, uning ichidan quyuq kulrang yiring payotganligi va atrofida yalliglanishga xos xususiyatli shishlar paydo bo‘lganligi kuzatildi.

Hayvon umumiy poda bilan birga yurib oziqlanadi. Sigirda 3- darajali oqsash paydo bo‘lganda uning umumiy holati yomonlashadi va bukchayib holsizlandi, ishtahasi pasaayib, oriqlay boshladi, sut mikdori 6 litrga kamayib umumiy harorati 1°S ko‘tarildi.

Tajribadagi hayvonlarda 2 bosh hayvonlarda orqa chap va o‘ng oyoqlarida esa klinik belgilari kuchsiz namoyon bo‘lgan pododermatit jarayonlari shikastlanish oqibatida hosil bo‘lishi bilan harakterlandi.

Sigirlarda shikastlangan tuyoqlar tekshirilganda, tuyoq kaftidagi nuqsonlar shox qavatining emirilishi, patologik jarayon tuyoq terisi asosiga kirib borib nuqsondan ko‘p miqdorda hidli ekssudat ajralib chiqishi aniqlandi. Ular atrofidagi to‘qimalarda yallig‘lanish shishlari hosil bo‘lib ularning yumshoq tovon va uning atrofiga tarqalganligi, terida mahalliy harorat va qizarish paydo bo‘lganligi qayd etildi. Teri asosi va atrof to‘qimalarida destruktiv va distrofik o‘zgarishlar rivojlangan bo‘lib, surunkali kechuvchi jarayonda nekroz va nekrobioz jarayonlarining spiderma, derma va gipoderma qatlamlariga tarqalganligi va fibrin qavatlari tagida nekrozga uchragan patologik to‘qimalar hamda tuyoq kaftida qoramtili nuqsonlar qayd etildi.

Hayvonlar umumiy poda bilan birga yurib oziqlanadi. Sigirlarda 3-darajali oqsash paydo bo‘lib ularning umumiy holati yomonlashadi va bukchayib holsizlandi, ishtahasi pasaayib, oriqlay boshladi, sut mikdori 5 litrga kamayib umumiy harorati $0,5^{\circ}\text{S}$ ko‘tarildi.

Barmoq atrofida og‘riqli shish hosil bo‘lib, oyoqning harakat funksiyasi buzilgan. Hayvonlarda past va o‘rta darajali oqsash kuzatildi. Barmoq kuchsiz shikastlanganda bo‘g‘im atrofida uncha katta bo‘limgan

shish, og'riq va oqsash kuzatildi. Kasallangan hayvonlarda jarayon surunkali shaklga o'tib barmoq bo'g'imi atrofidagi periartikulyar to'qimalarni ham shikastlab, bo'g'im kapsulasi va bo'g'im bog'lumlar qalinlashishi natijasida o'zining elastikligini yo'qtganligi qayd etildi. Biriktiruvchi to'qimalarni o'sishi hisobiga bo'g'imdag'i shish asta-kattalasha bordi. Bo'g'im atrofidagi terining harakatchanligi yo'qolish qalinlashib qolganligi kuzatildi.

Xulosa o'rniда ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib, hayvonlarda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini oldini olishda, hayvonlarga har kuni o'rtacha 3-4 soat yayratish maydonchalarida motsion berish, hayvonlar saqlanadigan joy, ratsion va yayratish maydonchalari doimiy nazorat qilinib, unda hayvonlarni sifatsiz ozuqlar bilan oziqlantirmaslik shuningdek hayvonlarni tuyoqlari har 3 oyda bir marta tuyoqlar kesib turish, barmoqlardagi ochiq jarohatlarning asoratlarini davolash va tuyosha kasalligiga chalinishini oldini olish maqsadida, birinchisi sog'iish maydoniga kirish joyida toza suvli va ikkinchisi undan chiqish joyida 5% li formalinli dezinfektion eritma bilan muntazam to'ldirib turiladi. uzunligi 6 m va chuqurligi 20-25 sm o'chamli ikkita vannadan har 10 km oralig'ida 2-3 kun davomida hayvonlar o'tkazib turish va qish fastidi vanna suv va dezinfektion eritma o'miga quruq so'ndirilgan oxak va taxta qirindisi aralashmasi bilan 9:1 nisbatda to'ldirish hamda organizmning himoya xususiyatini stimullash maqsadida oyiga bir marta 10% li katojal immunostimulyator vena qon tomiriga 25 mldan har 48 soatga bir marta jami uch marta yuborib turishni tavsiya etamiz.

Ishning iqtisodiy samaradorligi

"Qoramollar barmoqlarining yiringli-nekrotik jarayonlar diagnostikasi, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish" mavzusida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda M.X. Shayxamanov usulidan foydalanildi [173, 48-b.].

Bunda, iqtisodiy samaradorlik mezoni sifatida iqtisodiy samara (1), oldi olingan zarar va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan har 1 soat xarajat hisobiga olingan sof foyda (S_s) aniqlandi. Mahsulotlarning xarid narxlari o'rtacha hozirgi kun bozor narxlardida olindi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda foydalanilgan birlamchi ma'lumotlar 16-jadvalda keltirilgan.

Ishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda foydalanilgan birlamchi ma'lumotlar

5.2.1-jadval

| t/r | Ko'rsatkichlar | An'anaviy davolash usulida | Tavsiya etilgan davolash usulida |
|-----|--|----------------------------|----------------------------------|
| 1. | Guruhdagi hayvonlar soni, bosh | 5 | 5 |
| 2. | Har bir sigirdan sog'ib olingan o'rtacha kunlik sut miqori, kg | 15,9 | 21,4 |
| 3. | 1 kg sutning xarid narxi, so'm | 5600 | 5600 |
| 4. | Qo'shimcha veterinariya xarajatlari qiymati (bir boshga 20 kun davomida, so'm) | | 412577 |

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda quyidagi tenglamadan foydalanildi: Sv=Qqm - Qqvxa, bunda

Sv=bir bosh davolangan sigir hisobiga olingan iqtisodiy samaradorlik, so'm;

Qqm=bir bosh davolangan sigir hisobiga olingan qo'shimcha mahsulot qiymati, so'm;

Qqvxa-o'rtacha bir bosh sigirni davolashga sarflangan qo'shimcha veterinariya xarajatlari qiymati, so'm.

Qqvxa ni aniqlash. Iqtisodiy samaradorlikni xisoblashda xar birida 5 boshdan kasal sog'in sigir bo'lgan ikkita tajriba guruxda va 5 bosh kasal sog'in sigir bo'lgan nazorat guruxlarida o'tkazildi. Tajriba guruxlarining eng yaxshi natija kayd etgan guruxida kunlik sut maxsulorligi o'rtacha 21,4 kg ni, nazorat guruxida esa 15,9 kg ni tashkil etdi. Tajribalar davomida ya'ni nazorat guruxidagi sigirlarga nisbatan tajriba guruxidagi sigirlardan 5,5 kg ko'p sut sog'ib olindi.

Tavsiya etilgan usulda davolangan tajriba guruhidagi yiringli-nekrotik jarayonlari bo'lgan sog'in sigirlarni davolash uchun quyidagi dori vositalari qo'llanildi:

Yiringli-nekrotik jarayonlarini davolash uchun 20 kunda bir boshga tuyoqni qirqish, yiring va o'lgan to'qimalarni xirurgik yo'l bilan olib tashlash (95000 so'm), 5%-li formalinli vanna (24000 so'm), 10 ml 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin 4 ml muskul ichiga (4900 so'm), imeksid faollashtiruvchi vosita surkaldi (26600 so'm), oksitetratsiklin + treptotsid + yodoform (4:4:2 nisbatda) kukuni patologik o'choqga purkalib mahkam qilib bog'lam qo'yildi (31500 so'm), yiring ajralishi to'xtagandan keyin 10% li katozal immunostimulyatorvena qon tomiriga

25 mldan har 48 soatda bir marta vena qon tomirigajami uch yuborildi (157500 so'm). Jami qo'shimcha xarajatlar qiymati (95000 so'm+24000 so'm+4900 so'm+26600 so'm+31500 so'm+157500 so'm) 339500 so'mni tashkil etdi.

Veterinariya vrachining xizmat xarajatlarini hisoblash. Kasal sigir ishlov berish uchun bir nafar veterinariya vrachi 20 kun davomida kuniga 2 soatdan jami 40 soat ishladi. Veterinariya vrachiningoylik ish haqi 1900000 so'm, biroyda 26 kunlik ish kuni borligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, bir kunlik ish haqi 73077 (1900000 : 26 kun) so'mni, 5 kunlik (40soat : 8 soat) ish haqi 365385 (73077 so'm x 5kun) so'mni tashkil etdi. Guruhdagi hayvon sonining 5 bosh ekanligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, bir bosh kasal sigir uchun sarflangan veterinariya vrachi xizmatining qiymati 73077 (365385:5) so'mni tashkil etdi.

Demak, $Q_{qvx} = 339500 \text{ so'm} + 73077 \text{ so'm} = 412577 \text{ so'mni tashkil etdi}$ (16-jadval).

Qqm ni aniqlash.Kunlik sog'ib olingan sut miqdori 20 kuniga davolash tajribasi davomida nazorat guruhida o'rtacha 15,9 kg, tajriba guruhida 21,4 kg ni, qo'shimcha olingan sut miqdori bir kunda o'rtacha 5,5 (21,4-15,9) kg, 20 kunlik davolash tajribasi davomida 110 (5,5 kg x 20 kun) kg ni, uning qiymati 616000 (110 kg x 5600) so'mni tashkil etdi. farq keyingi 30 kun davomida o'rtacha birkunda 3,5 (22,5-19,0) kg ni, 30 kunda 105 (3,5kg x 30kun) kg ni tashkil etdi va uning qiymati 588000 (105 kg x 5600 so'm) so'mni, undan keyingi 30 kun davomida esa bir kunda 0,70 kg (23,0-22,3) kg ni, 30 kunda 21 (0,7 kg x 30 kun) kg ni tashkil etdi va uning qiymati 117600 (21 kg x 5600 so'm) so'mni tashkil etdi. Demak, olingan qo'shimcha sutning qiymati 1321600 (616000+588000+117600) so'mni tashkil etdi.

Bundan tashqari, tajriba guruhidagi 5 bosh sigirdan 4 boshi 20 kun davomida sog'aydi, nazorat guruhidagi 5 bosh sigirdan 2 boshi sog'aydi. Demak, 2 (4-2) boshsigirning ortiqcha sog'ayishi evaziga olingan foyda, tejalgan davolash vositalari hisobidan 679000 (339500 so'm x 2 boshi so'mni, tejalgan veterinariya vrachi xizmati hisobidan 146154 (73077 so'm x 2 bosh) so'mni tashkil etdi. Ya'ni, sog'aygan sigir hisobidan tejalgan davolash vositalari va tejalgan veterinariya vrachi xizmatining umumiy qiymati 825154 (679000+146154) so'mni tashkil etdi.

Demak, $Q_{qm} = 2146754(1321600+825154) \text{ so'mni tashkil etdi}$.

$Sv = Q_{qm} - Q_{qvx} = 1734177(2146754-412577) \text{ so'mni tashkil etdi}$.

Oldi olingan zarar (Qooz)ni hisoblash. Qo'shimcha sut olishga erishish orqali oldi olingan zarar bir yil (80 kunda) davomida bir bosh sigir hisobiga qo'shimcha olingan sut miqdori 236 kg, 10 bosh sigir uchun 2360 kg ni tashkil etadi. Uning qiymati 13216000 (2360 kg x 5600so'm) ni tashkil etadi.

Veterinariya vrachi xizmatini tejash orqali oldi olingan zarar 730770 (73077 so'm x 10 bosh) so'mni, ya'ni jami oldi olingan zarar (Qooz) 13946770 (13216000+730770) so'mni, bir bosh sigir hisobiga oldi olingan zarar 1394677 (13946770 so'm:10bosh) so'mni tashkil etdi.

Xarajatlar qoplami, ya'ni sarflangan bir so'm xarajat hisobiga erishilgan iqtisodiy samara 4,2 (1734177:412577) so'mni tashkil etdi.

Demak, sigirlarda yiringli-nekrotik jarayonlarnidavolashni takomillashgan usulini qo'llash har bosh sog'in sigir hisobiga 1394677 so'mdan iqtisodiy zararning oldini olish, shuningdek, har bosh sog'insigir hisobiga o'rtacha bir yilda 1734177 so'mdan iqtisodiy samara olish imkonini beradi va bunda xarajatlar qoplami 4,2 so'mni tashkil etadi.

OLINGAN ILMYIY TADQIQOT NATIJALARI BO'YICHA MULOHAZALAR.

Mamlakatimizda barmoq va tuyoqlar kasalliklarini asosiy qismida yiringli yallig'lanishlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mintaqamizdagi qoramolchilik xo'jaliklarda uchraydigan barmoq va tuyoqlar kasalliklarini etiopatogenezini o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoramolchilik xo'jaliklarda sigirlar klinik tekshirilganda xirurgik kasalliklar keng tarqalganligi u 55–60% ni yoki oyoqlarning zararlaniishi barcha jarrohlik patologiyaning 76% ni tashkil etgan. [137; 2-b]

Ilmiy izlanishlar olib borilgan Samarqand viloyati “Farovon Grand Invest” va “Oqdaryo To'lqin shijoat” chorvachilik fermer xo'jaliklarda 2019-2020 yillarda 377 bosh sigirlarda klinik-ortopedik (xirurgik) dispanserlash o'tkazilganda, ularning 97 boshida (25,7%) barmoq va tuyoqlarida patologik jarayonlari kechayotganligi aniqlandi.

Xo'jaliklarda sigirlarda klinik-ortopedik dispanserizatsiya o'tkazilganda barmoq va tuyoqlarda, 16,5% barmoqlararo dermatit, 15,5% pododermatitlar, 14,4% yumshoq tovon flegmonasi, 12,1% Rustergols yarasi, 10,3% tuyoq gultoji flegmonasi, 8,2% laminitlar, 6,2% tuyoq ungulyatsiyasi, 6,2% yarali tiloma va 10,3% tuyoq sohasidagi jarohatlar kechayotganligi qayd etildi.

Olimlarning ta'kidlashicha, mahalliy sharoitga adaptatsiyasi uch bo'lgan sigirlar kuz fasilda tekshirilganida ortopedik patologiyalari 28,33% ni, shundan pododermatitlar 14,81% ni, barmoqlar sohasidagi artrit va absesslar ko'rinishidagi birlamchi asoratlar 22,22% ni tashkil etgan. [158; 18-b., 164; 283-289-b., 165; 289-295.]

Bizning tadqiqotlarimizda esa “Farovon Grand Invest” va “Oqdaryo To'lqin shijoat” chorvachilik fermer xo'jaliklarda 2019-2020 yillarda qoramollar barmoq va tuyoqlaridagi kasalliklar yilning fasl va oylar bo'yicha tekshirib borilganda, kasallanish darajasi ko'proq bahor oylarida kuzatilib, bunda barcha ruyxatga olingan sigirlarning 31 boshida (31,9%), qish oylarida 28 boshida (28,9%), kuz oylarida 21 boshida (21,6%) va kamroq yoz oylarida 17 boshni (17,5%) tashkil etishi aniqlandi.

Xorijdan keltirilgan hayvonlarda bizning mintaqamiz sharoitiga moslashish jarayoni ham ular organizmiga turli hildagi barmoq va tuyoqlar kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo'layotganligi qayd qilindi. Bu ega hayvonlarni transportirovka paytida ular tuyoqlari tovonida

deformatsiyalar paydo bo'lgan, yangi sharoitdagи mikroorganizmlar ulardagi patologik jarayonlarni tezlashishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa g'unajinlar o'tasida tuqqandan keyin 2-3hafta o'tgach oqsash namoyon bo'lib, bu simptom hayvonlar o'tasida asta- sekin ko'paya boshladi. Bu birinchidan sigirlar sut orqali juda ko'p miqdorda makro va mikroelementlarni chiqarib yuborishi bo'lsa, ikkinchidan hayvonlarni adaptatsiya jarayonining davom etayotganligi bilan bog'liqidir.

Ushbu kasallik bilan ko'proq kasallanish asosan kuz oylarida 5 bosh sigirda (31,25%), qish oylarida 4 bosh (25%), yoz oylarida 4 bosh (25%) va eng past darajali kasallanish bahor oylarida 4 bosh (18,75%) qayd etildi. Olingen ma'lumotlar tadqiqotchilar [158;18-b., 164; 283-289-b., 165; 289-295.] ma'lumotiga mos keladi.

Bizning tadqiqotlarimizda ham barmoqlarning yiringli jarayonlari aksariyat hollarda mahsuldor sigirlarning orqa oyoqlari distal bo'limida uchrashi kuzatildi.

Tekshirishlar davomida tuyaq pododermatitlari yilning asosan bahor va qish fasllarida sigirlarda birinchi tug'ishidan keyin uchradi. Ushbu kasallik bilan ko'proq kasallanish asosan bahor oylarida 8 bosh sigirda (53,3%), qish oylarida 7 bosh (46,7%) uchradi, yoz va kuz oylarida deyarli qayd etilmadi.

Tekshirishlar natijasida tuyaq pododermatiti bilan kasallangan sigirlarda tuyaq tovoni shox pardasi, uning teri asosi va atrof to'qimalarining shikastlanganligi aniqlandi. Hayvonlarda klinik tekshirilganda ularda quyidagi klinik belgilari namoyon bo'ldi: tuyaq tovonining ichki qismi yiringli pododermatiti bilan jarohatlangan tuyaq yuqori sohasi shishgan, ogriqli flyuktuatsiya beradi. Qoramollar oyoqlarning jarohatlangan bo'g'imirlarini biroz bukan holatda tuyoqning uchki qismini bosib turadi.

Yumshoq tovon flegmonasi yilning ko'proq qish va bahor fasllarida sigirlarda birinchi tug'ishidan keyin uchradi. Ushbu kasallik bilan ko'proq kasallanish asosan qish oylarida 7 bosh sigirda (50%), bahor oylarida 6 bosh (42,9%) uchradi, kuz oylarida 1 bosh (7,1%) va yoz oylarida esa deyarli qayd etilmadi.

Yumshoq tovon flegmonasi tuyaq yumshog'inining kollagen va elastik biriktiruvchi to'qimalarning yiringli diffuz yallig'lanishi bo'lib, kasallik asosan infeksiyaga chalingan sanchilgan jarohatlar va yiringli-nekrotik jarayonlarning atrof to'qimalardan o'tib tarqalishidan hosil bo'ladi. Tekshirilgan 2 bosh hayvonning tuyoqlarida pododermatitning flegmonoz

jarayoni kuzatilib, bunda asosan infektion jarayon tuyog asosining so'rg'ichsimon qavatida joylashganligi aniqlandi.

Rustergols yarasi yilning bahor va qish fasillarida sigirlarda uchradi Ushbu kasallik bilan ko'proq kasallanish asosan bahor oylarida 6 bosh sigirda (50%), qish oylarida 5 bosh (41,7%) uchradi, kuz oylarida 1 bosh (8,3%) va yoz oylarida esa deyarli qayd etilmadi.

Rustergols yarasi bilan kasallangan hayvonlarning umumiy holat qoniqarli bo'lib, ular harakatlanganda tayanch oqsash kuzatilib ayniqsa qattiq polda yurganda oqsash kuchayib borishi namoyon bo'ldi. Hayvonning ikki oyog'i shikastlanganda ularning ko'proq yotishi va qiyinchilik bilan o'midan turishi namoyon bo'ldi. Hayvonning ishtahasi pasayganligi, sut mahsuldarligi va tana vaznining kekin kamayishi qayd etildi. Kasal hayvonlar shikastlangan oyog'ini tanadan uzoqlashtirib sog'lon tuyog ilgich qismiga og'irligini tashlab oyog'ini tez-tez siltab turishi kuzatildi.

Tadqiqotlar natijasida sigirlar oyoqlarining distal bo'limini yiringli-nekrotik kasalligida *Pseudomonas aeruginosa* (100%), *Staphylococcus aureus* (67,8%), *Escherichia coli* (49,3%), *Staphylococcus epidermidis* (42,7%), *Proteus vulgaris* (38,4%), *Streptococcus pyogenes* (27,8%) mikroorganizmlari aniqlangan [142; 105-108-b.].

Sigirlar barmoq sohasigi yiringli-nekrotik jarayonlaridan olingan namunalarning mikroblar turlari, foizlari va mikroblarni antibiotiklar bilan boshqa dori vositalariga sezuvchanligini hamda in vitro usuli bilan biokimyoviy va plazmokoagulaza xususiyatlarini aniqlashga oid ilmiy tekshirish ishlarmizda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlar bilan kasallangan sigirlarning patologik jarayonlaridan olingan namunalar Petri kosachalari ozuqa muhitlarida ekilgan mikroblar koloniyalari tekshirilganda, stafilokokkning 5 ta, streptokokkning 7 ta, esherixi kolining 6 ta, ko'k yiring tayoqchasing 3 ta, zamburug'larning 2 ta, protey va enterokokklarning 4 tadan kulturalari ajratib olindi. Jami ajratilgan 31 mikrob koloniylar nisbiy foizi tahlil qilinganda, stafilokokklar 16,1%, streptokokk 22,6% , esherixi koli 19,3% , ko'k yiring tayoqchasi 9,7% , zamburug'lar 6,5% , protey 12,9% va enterokokk 12,9% ni tashkil etdi .

Mikroblarni antibiotiklar va boshqa dori vositalariga sezuvchanligini aniqlash maqsadida Petri kosachalarida hosil bo'lgan zonalar lineyalar yordamida o'changanda maxsus tayyorlangan emulsiya shimdirligida disklarda (oksitetratsiklin va penstrep-400) stafilokokk 28 mm, streptokokk 22 mm, esherixi koli 24 mm, ko'k yiring tayoqchasi 22 mm,

zamburug'lar 25 mm, protey 26 mm va enterakokk 20 mm ni tashkil etpi bo'lsa, oksitetratsiklin + yodoform + streptotsid shmdirilgan disklarda stafilokkk 27 mm, streptokokk 21 mm, esherixi koli 26 mm, ko'k yiring tayoqchasi 23 mm, zamburug'lar 24 mm, protey 24 mm va enterakokk 25 mm ni tashkil etdi. SHunga o'xshash 30% li linkomitsin shmdirilgan disklarda stafilokkk 23 mm, streptokokk 20 mm, esherixi koli 22 mm, ko'k yiring tayoqchasi 21 mm, zamburug'lar 22 mm, protey 23 mm, enterakokk 22 mm va bitsillin-5 shmdirilgan disklarda stafilokkk 23 mm, streptokokk 19 mm, esherixi koli 14 mm, ko'k yiring tayoqchasi 12 mm, zamburug'lar 11 mm, protey 21 mm va enterakokk 23 mm ni tashkil etdi. Summar antibiotik shmdirilgan disklarda nisbatan zonalar kattaroq namoyon bo'lib, bunda stafilokkk 29 mm, streptokokk 23 mm, esherixi koli 25 mm, ko'k yiring tayoqchasi 28 mm, zamburug'lar 27 mm, protey 26 mm va enterakokk 25 mm ni tashkil etishi qayd etildi

Qoramollarda barmoq va tuyoplarda kechayotgan turli yiringli nekrotik jarayonlar oqibatida barmoq va tuyop elementlarining patologomatomik o'zgarishlari tekshirilganda, yiringli pododermatitda tuyop teri asosining so'rg'ichsimon qavati shishgan, suyuqligi qoramitir loyqasimon, notejis va mayda-mayda qon quyilganligi kuzatildi. Tuyoq teri asosining so'rg'ichsimon qavati so'rg'ichlari giperplaziya va gipertrofiyaga uchraganligi sababli tuyop teri asosining so'rg'ichsimon qavatining ayrim joylari qizil donador baxmalsimon shaklga kirgan. Uning dorsal va ventral tomonlari binafsha-kulrang ozroq granulyasion to'qima o'sganligi kuzatilib, tuyop teri asosining so'rg'ichsimon qavati so'rg'ichlari bilan granulyasion to'qima oralig'iga yiringli ekssudat bir-biriga yopishgan uzun so'rg'ichlar shaklida joylashgan. Tuyoq shox qavati qoraygan bo'lib, yiringli yallig'lanish oqibatida nekrotik jarayonlar rivojlangan. So'rg'ichsimon qavatining so'rg'ichlari usti yupqa loyqasimon, yuzasi notejis, yumshoq to'qimasi stromasida buzilishlar kuzatilmagan bo'lsada, ularda qoramitir o'lgan to'qimalar hosil bo'lganligi aniqlandi.

Qoramol barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini davolash tadbirlarini iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy xo'jalik tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini davolashda umum qabul qilingan usullarga qo'shimcha yiring ajralishi to'xtagandan keyin 10% li katozal immunostimulyatoridan vena qon tomiriga, 0,5% li novokain bilan 30% li linkomitsin va oksitetratsiklin + streptotsid +

yodoform (4:4:2 nisbatda) lar so'rilishini tezlashtirish uchun dimeksid faollashtiruvchi vosita qo'llanilganda ijobiy natijalar olindi, bunda patologik jarayonlarning salbiy tomonga rivojlanishi kuzatilmay, uning tuzalish muddati qisqardi, bunda barmoqlararo dermatit bilan kasallangan birinchi guruh hayvonlarida davolash o'rtacha 18 kun, ikkinchi guruhda 16 kun va uchinchi guruxda 20 kun, yumshoq toyon flegmonasi bilan kasallangan birinchi guruh hayvonlarida davolash 21 kun, ikkinchi guruhda 18 kun va uchinchi guruxda 24 kun davom etdi, bo'lsa, yiringli pododermatit bilan kasallangan hayvonlarda esa shunga mos ravishda, 16, 14 va 18 kun davom etdi.

Yiringli pododermatit bilan kasallangan sigirlarni davolashda sorbentlarni qo'llash birmuncha yaxshi samara berib, bunda qonning morfologik ko'rsatkichlarining tez tiklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmada oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi [58; 194-b.].

Ilmiy tekshirishlarimizda barmoq sohasigi yiringli-nekrotik jarayonlarini davolashda umum qabul qilingan usullarga qo'shimcha yiring ajralishi to'xtagandan keyin 10% li katozal immunostimulyatorдан, 30% li linkomitsin va oksitetratsiklin + streptotsid + yodoform (4:4:2 nisbatda)lar so'rilishini tezlashtirish uchun dimeksid faollashtiruvchi vosita qo'llash uning tuzalish muddatini qisqartirish bilan birga, qonning morfologik va biokimyoiy ko'rsatkichlarida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Eritrotsitlar soni tekshirishlarning boshida, ya'ni 5-kunda 2,1% ga, 15-kunida 4,2% ga ko'paygan bo'lsa, tajriba oxiriga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 8,3 foizga ($P<0,05$) oshganligi aniqlandi.

Leykotsitlar soni tajribaning 5-kunidan boshlab kamaya boshladi va 10-kunida 11% ga va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 17% ga kamayishi kuzatildi. Gemoglobin miqdori tekshirishlarning 5-kunida 5,6% ga ko'paygan bo'lsa, tajribaning 15- va 25-kunlarida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda, 15,5% va 19,4% ($P<0,05$) ni tashkil etdi. Eritrotsitlarning cho'kish tezligi ikkinchi tajriba guruh hayvonlarida tajribaning 5- va 10-kunida shunga mos ravishda 3,4 va 7,9% ga kamaygan bo'lsa, tajriba davomida yana kamayib bordi va tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 13,5% ga kamayganligi namoyon bo'ldi. Davolash davomida tajribadagi uchala guruh hayvonlaridagi klinik belgilardagi farqni tasdiqlash maqsadida, qonning hematologik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, birinchi va ikkinchi

guruh hayvonlarida qonning morfologik ko'rsatkichlarining tez tiklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi, leykotsit miqdorining va eritrotsitlarning cho'kish tezligining tajriba davomida kamayib borishi ushbu guruh hayvonlarida patologik jarayonning tuzalishi, retikuloendotelial sistemmasining stimullahidan darak beradi.

Ushbu guruh hayvonlarida eozinofillar miqdori tajriba davomida ko'payib borishi kuzatilib, tajribaning 5-kunida 28,1% ga, 10-15- va 25-kunlarda dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda 62,5%, 81,2% va 93,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi aniqlandi. Yosh neytrofillar ushbu guruhda tajriba davomida kamayib borib, tajribaning 5-kuniga 16,7% ga, 10- kuni 58,3% ga kamayib tajribaning 15-kunidan boshlab umuman qayd etilmadi. Ikkinci tajriba guruh hayvonlarida tayoqcha yadroli neytrofillar miqdori tajribaning 10-kunida 34,5% ga kamaygan bo'lsa, tajribaning 25-kunida 58,6% ga ($P<0,05$) kamayganligi namoyon bo'ldi. Ushbu guruhdagagi segment yadroli neytrofillar tajriba davomida ko'payib borib, tajribaning 10-kunlarda 27,7% ga ko'paygan bo'lsa, tajribaning 25-kuniga kelib 45,2% ga ($P<0,05$) ko'payganligi namoyon bo'ldi. Limfotsitlar foizini tajribaning 10-kunida 12,3% ga kamayganligi kuzatilgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 21,2% ga kamayganligi qayd etildi. Monotsitlar miqdori esa tajriba davomida oshib bordi tajribaning 5-kunida 18,7% ga, tajribaning 10-kunida esa 43,7% ga ($P<0,05$) oshganligi va tajriba oxirida 93,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi.

Tadqiqotchilarining ta'kilashicha, qon tarkibini davriy ravishda tekshirib borish esa nafaqt organizmning umumiy holatini, balki kasallikning oqibatini oldindan bilish, davolash ishlarini muvofiglashtirish, u yoki bu dori vositalarining ta'sirini o'rganish imkonini beradi [207;44-46-b., 206; 478-481-b].

Tadqiqotlarimizda kasallangan sigirlar qonida monotsitlar sonining kamayishi, mumkin ularni immunitetni stimullahash jarayonida aktiv lagotsitar xususiyatini namoyon qilib nobud bo'lishi bilan izohlanadi. Kasal hayvonlarga davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular organizmidagi fiziologik jarayonlar yaxshilana boshlashi bilan monotsitlar sonining ko'payganligi kuzatildi.

Davolash davomida tajribadagi uchala guruh hayvonlaridagi klinik belgilardagi farqni tasdiqlash maqsadida, qonning gematologik

ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, birinchi va ikkinchi guruh hayvonlarida eozinofil, segment yadroli neytrofillar va monotsitlar miqdori ko'payib borganligi, limfotsitlar miqdorining kamayib borishi, ushbu guruh hayvonlariga qo'llanilgan dori vositalarining ma'lum miqdori va tartib asosida takomillashtirilgan davolashga asoslangan usullar patologik jarayonning tuzalishiga va retikuloendotelial sistemasining stimullahidan darak beradi.

Muallifning ta'kidlashicha, [158; 18-b] yiringli-nekrotik jarayonlar kechayotgan sigirlar qon zardobi biokimyoiy tekshirilganida, sog'lon hayvonlardagiga nisbatan leykotsitlar miqdori 0,88 mingga oshishi umumiyl oqsil miqdori 2,96% ga ko'tarilishi, oqsil fraksiyalari miqdori mos ravishda, betta-globulinlarni 8,36% ga va gamma-globulinlarni 5,09% ga ortishi, alfa-globulinlarni esa 12,93% ga kamayishi qayd etilgan.

Bizning tajribalarimizda ham ushbu guruh hayvonlari qon zardobining biokimyoiy ko'rsatkichlarida ham ma'lum bir xarakter o'zgarishlar namoyon bo'ldi. Qon zardobidagi umumiyl oqsil miqdori tekshirishlarning 10-kunida 3,3% ga oshgan bo'lsa, so'ngra tajriba davomida ko'payib borib, tajriba oxirida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan 14,5% ga ($P<0,05$) ko'payganligi aniqlandi. Albuminlar miqdori tekshirishlarning 5-kunida 4,5% ga oshgan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni tajribaning 15-kunida 20,1% ga ($P<0,05$) va tajriba oxirida ular miqdorining 27,8% ga ($P<0,05$) ko'payganligi qayd etildi.

Alfa-globulinlar miqdori tajribalar davomida kamayib borib, tekshirishlar oxirida 14,8% ga ($P<0,05$) kamayganligi qayd qilindi. Betta-globulinlar miqdori esa dastlabki ko'rskichlarga nisbatan tajribaning 15-kunida 14,4% ga ($P<0,05$) va tajriba oxirida 24,2% ga ($P<0,05$) ko'payganligi kuzatildi. Gamma-globulinlar miqdori esa kamayib borib, tajriba oxirida 77,2% ni tashkil etdi.

Tekshirishlar asosida barmoq sohasida turli yiringli-nekrotik jarayonlarini davolashda ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qon zardobida umumiyl oqsil miqdori davolash ishlari boshlangunga qadar 14,5% ga kam bo'lishi, organizmda moddalar almashinuvini mo'tadillashuvi bilan bog'liq bo'lib, bunda hayvonlarda organizmnning suvsizlanishi va qonning quyuqlashishiga sabab bo'ladi.

Kasal hayvonlarga davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular organizmidagi fiziologik jarayonlar yaxshilana boshlashi bilan oqsil miqdorining ko'payganligi qayd etildi. Ta'kidlash lozimki, barmoq

sohasida turli yiringli-nekrotik jarayonlari bilan kasallangan sigirlar davolangunga qadar ular qon zardobidagi albuminlar va betta globulinlar miqdorlarining mos ravishda 27,8% va 24,2% ga kam bo'lishi, ma'lumki organizmda aktiv immun himoya jarayoniga katta miqdorda sarflanadigan oqsil miqdoriga bog'liq bo'lib, davolash muolajalari qo'llanilgandan keyin ular miqdorining ko'payishi kuzatildi.

Ko'pgina mualliflar oyoq kasalliklarini oldini olishda hayvonlarni molxonada bog'lab boqqanda gipo- va adinamiyani oldini olish va tuyoqlarning bir xilda emirilishini ta'minlash uchun hayvonlarni har kuni yaratish maydonchalarida yaratishni, yaxshi vosita sifatida 10% li mis kuperosi, 2% li formalinni, 5% li formaldegid eritmasi va 5% li lizol eritmasini oyoq vannasi tarzida qo'llashni tavsiya etadilar[16; 136-b., 114; 128-b., 68; 63-64-b.].

Ilmiy taddiqot ishimizda sigirlarda barmoqlarning yiringli-nekrotik jarayonlarini oldini olish chora tadbirlari qo'llanilgandan keyin, birinchi guruh hayvonlari tajribalar davomida klinik tekshirilganda, 3 oy davomida ular barmoq va tuyoqlarida sezilarli darajada patologik jarayonlari kuzatilmagan bo'lsada, faqatgina uch bosh hayvonda shikastlanish oqibatida barmoq sohasida jarohatlar kuzatildi va ularga o'z vaqtida kerakli muolajalar qo'llanishi natijasida xirurgik infeksiya rivojlanishining oldi olindi.

Ikkinchi nazorat guruhidagi tajribaning uchinchi oyidan boshlab 1 bosh hayvonda orqa o'ng oyoqda klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lgan yiringli pododermatit, 2 bosh hayvonlarda orqa chap va o'ng oyoqlarida esa klinik belgilari kuchsiz namoyon bo'lgan pododermatit jarayonlari qayd etildi. Orqa o'ng oyoqda klinik belgilari yaqqol namoyon bo'lgan yiringli pododermatit bilan kasallangan hayvonda tana harorati me'yordan $0,5^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilganligi qayd etilib, kasal hayvonlar harakatlanganda aralash oqsashning o'rta darajasi qayd qilindi. Hayvon tinch turganda shikastlangan oyog'ini bukkan holda sog'lom oyog'iga tana og'irligini tashlab turadi.

Tajribadagi 2 bosh hayvonlarda orqa chap va o'ng oyoqlarida esa klinik belgilari kuchsiz namoyon bo'lgan pododermatit jarayonlari shikastlanish oqibatida hosil bo'lishi bilan harakterlandi.

Sigirlarda shikastlangan tuyoqlar tekshirilganda, tuyoq kaftidagi nuqsonlar shox qavatining emirilishi, patologik jarayon tuyoq terisi asosiga kirib borib nuqsondan ko'p miqdorda hidli ekssudat ajralib chiqishi aniqlandi. Ular atrofidagi to'qimalarda yallig'lanish shishlari

hosil bo‘lib ularning yumshoq tovon va uning atrofiga tarqalganligi, terida mahalliy harorat va qizarish paydo bo‘lganligi qayd etildi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingen ma'lumotlarga asoslanib, hayvonlarda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini oldini olishda, hayvonlarga har kuni o‘rtacha 3-4 soat yayratish maydonchalarida motions berish, hayvonlar saqlanadigan joy, ratsion va yayratish maydonchalari doimiy nazorat qilinib, unda hayvonlarni sifat va ozuqalar bilan oziqlantirmaslik shuningdek hayvonlarni tuyoqlari har oyda bir marta tuyoqlar kesib turish, barmoqlardagi ochiq jarohatlarning asoratlarini davolash va tuyoq kasalligiga chalinishini oldini olish maqsadida, birinchisi sog‘ish maydoniga kirish joyida toza suvli ikkinchisi undan chiqish joyida 5% li formalinli dezinfekcion eritma bilan muntagazam to‘ldirib turiladigan uzunligi 6 m va chuqurligi 20-25 sm o‘lchamli ikkita vannadan har 10 kun oralig‘ida 2-3 kun davomida hayvonlar o‘tkazib turish va qish faslida vanna suv va dezinfekcion eritma o‘rniga quruq so‘ndirilgan oxak va taxta qirindisi aralashmasi bilan 9-11 nisbatda to‘ldirish hamda organizmning himoya xususiyatini stimullash maqsadida oyiga bir marta 10% li katozal immunostimulyator vena qon tomiriga 25 mldan har 48 soatga bir marta jami uch marta yuborib turishi tavsiya etamiz.

SUT YO'NALISHIDAGI QORAMOLCHILIK XO'JALIKLARIDA BARMOQ KASALLIKLARINI OLDINI OLISH BO'YICHA TAVSIYALAR

1.Tuyoq kasalliklarini oldini olish uchun barmoqlar terisining matseratsiyasini va tuyoq shoxi chirishini istisno etadigan sharoitlarni yaratish lozim.

2.Chorvachilik binolarida pollar, ventilyasiya va kanalizatsiya to'g'ri tuzilishini, gung o'z vaqtida tozalanishini nazorat qilish lozim.

3.Go'ng va siydkidan ajraladigan ammiakni bog'lash va mikroblar virulentligini pasaytirish maqsadida lotoklarga superfosfat sepiladi.

4.Dezinfeksiya va namlikni pasaytirish uchun yo'laklarga va lotoklarga so'ndirilmagan oxak joylashtiriladi.

5.Hayvonlarni botqoqli yerlarda boqishga yo'l qo'yilmaydi. Yayrash maydonchalarni va qo'ralarni past, sizot suvlarini yaqin joylarda qurmaslik lozim.

6.Bino va yayrash maydonchalar dezinfeksiyasida patogen mikroflora yo'qotiladi. Yoppasiga uchraydigan tuyoq kasalliklarida dezinfeksiya uchun 5% li o'yuvchi ishqor eritmasi, 20% li so'ndirilgan oxak, 5% li formalin eritmasi, 5% li paraformaldegid eritmasi va boshq. qo'llanadi.

7.Hayvonlarni muntazam ravishda oyoq vannalaridan o'tkazish uchun ko'chirma yoki statsionar vannalar quriladi. Vannaning o'ichamlari: eni –darvoza eniga teng, uzunligi – 1,5–2 m, chuqurligi – 30 sm.

8.Sovuqda vanna suv va dezinfektion eritma o'rniga quruq so'ndirilgan oxak va taxta qirindisi aralashmasi bilan 9:1 nisbatda to'ldirildi.

9.Hayvonlarga har kuni 3-4 soat yayratish maydonchalarida motsion berib boriladi.

10.Hayvonlar saqlanadigan joy, ratsion va motsion beriladigan yayratish maydonchalari doimiy nazorat qilinib, unda hayvonlarni , ifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirmaslik to'g'risida doimiy ogohlantirib borildi.

11.Barmoqlardagi ochiq jarohatlarning asoratlarini davolash va tuyoq kasalligiga chalinishini oldini olish maqsadida, birinchisi sog'ish maydoniga kirish joyida toza suvli va ikkinchisi undan chiqish joyida 5 % li formalinli dezinfektion eritma bilan muntazam to'ldirib turiladigan

uzunligi 6 m va chiqurligi 20-25 sm o'lchamli ikkita vannadan har 10 kun oralig'iда 2-3 kun davomida hayvonlar o'tkazib turildi.

12. Sigirlarda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarni davolashda umum qabul qilingan usullar bilan birga yiring ajralishi to'xtagandan keyin 10 % li katozal immunostimulyatoridan vena qon tomiriga 25 ml har 48 soatda bir marta jami uch marta, 10 ml 0,5% li novokain eritmasi bilan 4 ml 30% li linkomitsin aralashtirilib muskul orasiga va oksitetratsiklin + streptotsid + yodoform (4:4:2 nisbatda) so'riliishini tezlashtirish uchun dimeksid dori vositalarini birgalikda qo'llash orqali takomillashtirilgan etiopatogenetik davolash usuli tavsiya etiladi.

13. Hayvonlarda barmoq sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlarini oldini olishda, kunlik matsion, o'sgan tuyoqlarni har 3 oyda kesish sog'ish maydoniga kirish joyida toza suvli va undan chiqish joyida 5 % li formalinli vannadan hayvonlarni o'tkazib turish, oyiga bir marta 10 % li katozal preparatidan vena qon tomiriga 25 ml dan har 48 soatda bir marta jami uch marta yuborib turishga asoslangan guruhli profilaktik majmuuni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Astapenko M.G. Differensialnaya diagnostika artritov i artrozov. //Jurnal "Klinicheskaya meditsina".-1984.-№9.-S.128-134.
2. Baylov, V.V Primenenie vnutrikostnykh in'eksiy lekarstvennykh vechestv v kompleksnom lechenii bolezney korystets u telyat / V.V. Baylov, M.D. Sryni, O.K. Suxovolskiy // Mejdunarodnyi vestnik veterinarii.-2009.-№ 4.-S. 36-38.
3. Baylov, V.V. Amputatsiya palsa u korov pri gnoynom artrite / V.V. Baylov, L.N. Trudova, M.K. Bukai // Rol agrarnoy nauki v ustoychivom razvitiu selskix territoriy. Sbornik II Vserossiyskoy (nauchnoy) konferensii. -Novosibirsk.-2017.-S. 338-340.
4. Baylov, V.V. Vnutrikostnoe vvedenie antibiotikov v kompleksnom lechenii gnoyno-vospalitelnykh protsessov konechnostey u krupnogo rogatogo skota: avtoreferat kandidatskoy dissertatsii / V.V. Baylov // Leningrad.-1990. -16 s.
5. Baylov, V.V. Vnutrikostnoe vvedenie lekarstvennykh vechestv v kompleksnom lechenii gnoynых ran venchika u telyat / V.V. Baylov, L.N. Trudova, M.K. Bukai // Voprosy normativno-pravovogo regulirovaniya v veterinarii. -2018.-№2.-S. 88-90.
